

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ibraximjanova Gavxar Amanbayevna  
Urmanova Lola Akbarovna  
Xodjayeva Maxfuza Xalilovna  
Xalilov Faxriddin Nuriddinovich

**MUSIQA  
ELEMENTAR NAZARIYASI.  
GARMONIYA**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan kasb-hunar kollejlarining 3141001 – musiqa ta'limi  
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etilgan

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI  
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI  
TOSHKENT — 2017**

УДК:372.878  
КБК 85.31  
М 92

**Ibraximjanova G.A.**

**Musiqa elementar nazariyasi. Garmoniya:** kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / G.A. Ibraximjanova [va boshq.]; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2017. — 180 bet.

- I. Urmanova L.A.
- II. Xodjayeva M.X.
- III. Xalilov F.N.

УДК:372.878  
КБК 85.31

**Taqrizchilar:**

A.X.Trigulova — p.f.n. Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,  
G.M.Sharipova — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,  
N.K.Yuldasheva — Yunus Rajabiy nomidagi TPK o‘qituvchisi.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq tarzda va pedagogik kollejlarning musiqa yo‘nalishi o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan «Musiqa nazariyasi» namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan. O‘quv qo‘llanmada musiqashunoslik nazariy majmuasiga kiradigan boshlang‘ich fani «Musiqa elementar nazariyasi»ga oid baza ma‘lumotlari bayon qilingan va ikkinchi fani «Garmoniya»ga oid diatonikaakkordlari har taraflama ko‘rsatilgan.

O‘quv qo‘llanma pedagogik kollejlarining musiqa yo‘nalishida tahlisil olayotgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan. U boshqa musiqa o‘quv muassasalarida ham qo‘llanilishi mumkin.

ISBN 978-9943-391-59-8

## KIRISH

San'at mazmuni – hayot, atrofimizdagi voqelik, insonning o'zi va uning ichki dunyosi, o'y-fikrlari, his-tuyg'ularidir. San'at inson faoliyatining boshqa turlaridan farqli ravishda badiiy obrazlar yaratish orqali voqelikni o'zlashtiradi. U kishining hissiyoti va ongiga bevosita ta'sir qiluvchi shaklda olamni go'yoki yangidan yaratadi. Lekin san'atkor hayotni, hodisani, narsalarni nusxa qilib ko'chirmaydi. U biror obrazga xos bo'lgan eng umumiyligi, tipik xussusiyatlarni saralab olib, ularning hammasini anglab tushunib, obraz qiyofasini o'zgartiradi, so'ng uni rasm, she'r, musiqa asari shaklida gavdalantiradi. Albatta, har qanday san'atkorning asari muallifning shaxs hissiyotini o'z ichida saqlab qoladi. Chunki tashqi dunyoning obyektiv materiali san'atkorning ongida alohida qayta ishlab chiqilib, original, o'ziga xos ijod bo'lib qayta vujudga keladi. Biroq, shu bilan birga har bir ijodiy asar jamoat ongingining mahsuloti deb ham hisoblanadi. Negaki, u muayyan bir ijtimoiy psixologiya, mamlakat, tarixiy hodisa bilan bog'liq bo'ladi. Badiiy ijodiyotning ijtimoiy tomoni shunda namoyon bo'ladiki, inson o'z zamondoshlari hamda xalqi o'tmishi va odamzod bilan aloqadorligini badiiy obrazlar orqali his etadi. Haqiqiy san'at abadiy badiiy qadriyatlар ijod qilar ekan, xuddi avlodlarning uzluksiz bog'liqligini amalga oshiradi.

Shunday qilib, san'at asarlari ham hayot, ham ijodning rasmidir. Ammo san'atning har xil turlari hayotning turli-tuman tomonlarini bir xil darajada tasvirlashga qodir emas. San'atning har bir turi o'ziga xos mazmun va tamoyillari bilan ajralib turadi. Xo'sh, musiqa san'ati o'zi nima? Uning maqsadi, vazifalari nimadan iborat?

Musiqa<sup>1</sup> — ohang (intonatsiya) san'ati, sadolarda ifodalangan voqelikning badiiy aksidir. U borliqni o'ziga xos tarzda aks ettirib, uni boyitadi, hamda uni tushunib olish va o'zgartirishga yordam beradi. Ma'lumki, musiqa jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Musiqa insonning turmush tarzi va ijtimoy hayotida, mehnat va dam olish chog'larida albatta ishtirok etadigan bo'lib, kishini ma'naviy qadriyatlarga erishtiradigan noyob vositadir. U shaxsning ma'naviy olamini, axloqiy maqsadlarini shakllantiruvchi estetik tarbiyaning samarali quroli hisoblanadi. Musiqaning o'zi, uning yaratuvchilari, ijro etuvchilari, tinglovchilaridan iborat musiqa madaniyati jamiyat madaniyatidagi muhim bir sohadir.

<sup>1</sup> *Musiqa* (yunoncha – μουσική) – ilhom parilari san'ati.

Musiqa boshqa san'at turlari bilan hamohang bo'lishi shubhaisiz. Ularning jonli aloqalari musiqaga xos intonatsion asosi adabiyot bilan yaqinligi, uning ritmik uyushqoqligi she'riyat va raqs san'atiga o'xshashligida, asarlarning mutanosib tuzilishi arxitektura shakllariga muvofiqligida ko'rindi. Yana shuni ta'kidlash joizki, ko'pincha adabiyot, tasviriy san'at, haykaltaroshlik asarlari musiqiy asarlar yaratilishi uchun badiiy asos sifatida xizmat qiladi.

Musiqa hamisha musiqiy obrazlar orqali ochib beriladigan u yoki bu mazmunga ega bo'ladi. Bular tabiat manzaralari, ijtimoiy hayotdagi hodisa va vaziyatlar, insonning ichki ma'naviy olami. Musiqa kishining hissiyotlari, kayfiyatlarini ifodalashga qodir. Shu bilan birga uning tabiat manzaralarini tasvirlash, harakat obrazlarini gavdalantirish, hayotning samimiy ovozlari (qushlarining sayrashi, momaqaldiroqning guldirashi)ga taqlid qilishga ham layoqati bor.

Biror-bir musiqa asarining mazmunini «o'qiy olish», uni tushunib yetish, hamda qanday tuzilganligini «ko'rish» uchun avvalo musiqa tilini bilish, musiqiy fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish lozim.

«Musiqa tili» degani bu musiqiy ifodalilik va tasvirlilikning vositalardan tashkil topgan tizim demakdir. Bular tovush balandligi, cho'zim, metr, ritm, interval, akkord, lad, tonallik, kuy kabi vositalardir. Musiqiy tilning vositalari musiqaning tarkibiy elementlari hisoblanadi. Musiqa elementlari va ularning o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'llim musiqa nazariyasiga oid fanlarda bayon qilingan.

San'atshunoslikning bir sohasi musiqashunoslikdir. U o'z navbatida quyidagi bilim sohalarini qamrab oladi: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqiy etnografiya, musiqiy tanqid, musiqiy akustika, musiqiy psixologiya va boshqa sohalar. Musiqa nazariyasi ilmiy va o'quv fanlarning majmuasi bo'lib, musiqaning elementlar nazariyasi, garmoniya, musiqiy shakl, polifoniya, solfedjio, cholg'ulashtirish kabi fanlarni o'z ichiga oladi va musiqani nazariy nuqtayi nazardan o'rganadi. Mazkur fanlarning umumiy vazifasi – musiqani idrok etish, uni tushunish, uning tabiatini, imkoniyatlari va tinglovchilarga ta'sir qilish mexanizmini anglashga yordam berishdir. Ushbu fanlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ular musiqa sirlarini nafaqat o'z musiqiy ehtiyojlari uchun, balki kerakli bilim va ko'nikmalarini kelajakdagi o'quvchilari ongiga singdirish uchun o'zlashtirishi zarur.

Musiqa haqidagi ta'llim tizimining boshlang'ich qismi – Musiqa elementlar nazariyasi – umuman musiqaning asosiy elementlari va

ayniqsa, kuy va uning sirlarini o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Olinadigan bilimlarni umumlashtirish maqsadida har bir musiqa elementi haqidagi ma’lumot darslikning ayrim boblari ga kiritilganligiga qaramay, o‘quvchi shuni yodda tutishi kerakki, musiqa elementlari faqat bir-biri bilan bog‘liqligidagina o‘zining ifodali xususiyatlарини namoyon qilishi mumkin.

Musiqa elementar nazariyasi kursi o‘quvchilarga nazariy fan-larning keyingi kurslarini o‘rganish uchun mustahkam zamin yaratib beradi va mustaqil musiqiy fikrlay olish ko‘nikmaning rivojlanishiga asos soladi. Bunga tarixiy nuqtayi nazardan yoritilgan lad, ritm, kuy, xromatizm kabi mavzular imkon tug‘diradi.

Bu asosiy vazifalardan tashqari mazkur fan kursi o‘quvchilarga boshqa musiqiy fanlar (cholg‘u va vokal ijrochiligi, xor dirijyorligi, musiqa o‘qitish metodikasi) bo‘yicha o‘tiladigan musiqiy asarlar matnini ongli o‘zlashtirishda yordam beradi. Nihoyat, musiqa elementar nazariyasi boshqa fanlar bilan baravar o‘quvchilarning umumiyligi musiqiy va madaniy saviyasini o‘sishiga ko‘maklashadi.

Garmoniya fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilar rang-barang ohangdoshliklarni qo‘llab, musiqiy fikr rivojlanishini ko‘rsata olishni o‘rganadi. Garmoniya fani o‘qituvchisining vazifasi – o‘quvchilarga mazkur fanning asosiy qonuniyatlarini haqida bilimlar berish, yozma ishlар оrqli amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va musiqada garmoniyaning o‘zi ifodaviy vositalardan biri ekanligi haqida tushuncha berishdan iborat.

Garmoniya kursida diatonikakkordlar, shuningdek xilma-xil septakkordlar, ularni qo‘llash o‘rganiladi. Garmoniya kursi badiiy ijodning asosida yotgan asosiy oddiy garmonik vositalarni nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish jarayoniga bag‘ishlangan. Garmonik vositalar, hattoki oddiyakkordlarni qo‘llash imkoniyatlari ning ko‘pligini ko‘rsatish uchun har taraflama ko‘rib chiqiladi.

O‘quv qo‘llanmaning har bir mavzusida garmonik misollar, shuningdek o‘zbek va xorijiy musiqiy asarlar parchalari keltiriladi va bilimlarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar bilan yakunlanadi.

Mualiflar o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda mashhur musiqa-shunoslar V. Vaxromeyev, I. Cposobin, I. Dubovskiy, Yu. Tyulin, O. Azimova va boshqalarning ilmiy-nazariy ishlарidan foydalandilar.

Ushbu o‘quv qo‘llanma musiqa kollejlari va boshqa musiqa bilim yurtlarida qo‘llanilishi mumkin.

## I BOB. MUSIQIY TOVUSH. MUSIQIY TIZIM. TEMPERATSIYA. NOTA YOZUVI

### 1-§. «Tovush» tushunchasi

«Tovush» tushunchasi qator turli hodisalarni o‘z ichiga ola-di. Tovush *manbasi* sifatida biror egiluvchan jism xizmat qili-shi mumkin. Ma’lumki, jismning *tebranishi* havoda to‘lqinsimon tebranishlar yuzaga kelishiga sababchidir. Bu xildagi tebranishlar *tovush to‘lqinlari* deb ataladi. Tovush to‘lqinlarining eshitish or-ganiga ta’sir qiluvchi harakati eshitish nervi orqali bosh miyaga o‘tib, tovush sezgisini vujudga keltiradi.

### 2-§. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari

Biz yashayotgan olam turli tovushlarga to‘ladir. Misol uchun: guvillagan, taqillagan, shitirlagan, g‘ichirlagan va boshqa shunga o‘xshash tovushlarning barchasi real voqelikdagi tovushlardir. Bu-larni *shovqinli<sup>1</sup> tovushlar* deb atashadi. Kuylayotgan qo‘sinqching ovozi va musiqa asboblari – rubob, nay, chang, skripka, fortepyano, goboy, truba va boshqa cholg‘u asboblaridan taraladigan tovushlar *musiqiy tovushlar* deb nom oldi.

Barcha tovushlar baland va past yoki uzoq va qisqa vaqt yang-rashi, shu bilan birga o‘ziga yarasha rang-barangligi bilan farqla-nadi. Shovqinli bilan musiqiy tovushlar o‘rtasidagi farqi shundaki, har bir musiqiy tovush aniq belgilangan balandlikka ega bo‘ladi. Shovqinli tovushlar esa bunday xususiyatga ega emas.

Musiqaning asosiy vositasi, ya’ni ifodalilik vositasi – musiqiy tovushlardir. Lekin zamonaviy musiqada shovqinli tovushlar ham keng qo‘llaniladi.

Musiqiy tovush, I. Sposobin fikricha, o‘ziga xos xususiyatlar-ga ega bo‘lib, musiqiy madaniyatning asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan muayyan tovushlar tizimining bir par-chasidir. Tovushlar tizimi musiqiy fikrni ifodalash va badiiy obraz-larni gavdalantirish uchun xizmat qiladi.

**Har bir musiqiy tovushning xarakteri to‘rtta asosiy xususiyatlar bilan aniqlanadi. Ular *balandlik, qattiqlik, tembr va cho‘zim*.**

Tovushning *balandligi* tebranayotgan jismning *tebranish tezligiga* bog‘liq. Tebranish qanchalik tez bo‘lsa, tovush shunchalik baland eshitiladi, va aksincha.

<sup>1</sup> Masalan: doira, nog‘ora, baraban, tarelka, qoshiqlar tovushlari.

Demak, tovushlar balandligi bo'yicha baland, o'rtaligida past tovushlarga ajratiladi. Baland tovushlar «nafis», «muloyim», «jarangli», «billur» kabi so'zlar bilan ta'riflanishi mumkin. Vatandoshimiz mashhur ayol opera ijrochisi Muyassar Razzoqova va dunyoga mashhur ayol opera ijrochisi italiyalik Monserrat Kabalye baland ovoz egalaridir. Xor asarlardagi soprano ovozi partiyasi asosan o'z ichiga baland tovushlarni qamrab oladi. Skripka, fleyta, nay cholg'ular ham baland tovushlarni taratadi.

Past tovushlar — «yo'g'on», «qo'polroq» «chuqur», «mayin» kabi so'zlar bilan ko'proq ta'riflanadi. Atoqli maqom ijrochisi Munojat Yo'lchiyeva past ovozning sohibasi. Dunyoga mashhur bo'lgan rus opera ijrochisi Fyodor Shalyapin ham erkaklar ovozlaridan eng past, ya'ni bas ovozda kuylardi. Musiqa asboblaridan truba, kontrobas, fagot kabilar past tovushlarga ega.

O'rtaligida tovushlar xor ovozlari alt bilan tenor, cholg'ulardan violinchel, klarnet, valtorna, rubob, dutorga xarakterlidir. Ularga nisbatan «yumshoq», «qalin», «odam ovoziday» so'zlarni qo'llash mumkin. Tenor ovozi egalari — yurtdoshimiz mashhur opera ijrochisi Ismoil Jalilov, jahondagi eng atoqli «tenor»lar — Plachido Domingo, Xose Carreras, Luchchano Pavarotti, Andrea Bachelli kabi xonandalardir.

Tovushning *qattiqligi* jismning tebranish kengligi (amplituda-si)dan kelib chiqadi. Tebranish kengligi qancha keng bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi, va aksincha. Qattiqlikning darajasi (jaranglash kuchi) *dinamika*<sup>1</sup> so'z bilan ataladi.

Tovushning *cho'zimi* jismning tebranishi davom etishiiga bog'liqdir. Real vaqt soniya, daqiqa, soat va hokazolar bilan o'chanadi. Musiqadagi vaqt muayyan tovush cho'zimi bilan o'chanadi (II bobni ko'ring). Musiqada har bir tovush o'z cho'zimi bo'yicha undan oldingi va keyingi tovushlar bilan muayyan darajada aniq uyuhtiriladi, vaqt bilan belgilanadigan munosabatga kirishadi. Mana shundan kelib chiqib, musiqaga xos bo'lgan aniq uyuhtirilgan vaqtga bog'liq tuzilish (struktura) vujudga keladi.

Tovushning *tembri* deb uning *rang-barangligiga* deyiladi. Gap shundaki, har qanday tovush, ayniqsa musiqiy tovush, murakkab tarkibga ega. Tovush manbai (jism) butunligicha tebranib, asosiy tebranish tezligini, ya'ni eng yaxshi eshitiladigan past balandlikdag'i tovushni hosil qiladi. Bu tovushga asosiy ton deb aytildi. Bi-

<sup>1</sup> *Dinamika* (yunoncha – *dinamicos*) – kuchga ega.

roq, shu bilan bir vaqtning o‘zida jismning umumiy uzunligidan teng yarmi, uch qismdan bir, to‘rtadan bir, beshdan bir va h.k. qismlari ham tebranadi. Har bir qismning tebranish tezligi o‘ziga mos tovushni yaratadi. Bunday ikkinchi, uchinchi darajali tovushlarning balandligi asosiy tovushdan ko‘ra ikki, uch marta balandroq eshitiladi. Chunki, jismning uzunligi qancha qisqa bo‘lsa, shunchalik uning tebranish tezligi oshadi va hosil bo‘lgan tovushning balandligi yuqorilashadi. Ushbu qo‘s Shimcha, tarkibiy tonlar *oberton*<sup>1</sup> yoki garmoniklar deb ataladi (3-misolga qarang). Asosiy ton jarangida obertonlarning qattiqlik bo‘yicha o‘zaro nisbati, ularning bor yoki yo‘qligi tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o‘xshamasligini ta’kidlaydi. Masa-lan: qo‘ng‘iroqchani ko‘rmay turib, uning jarangini shaqildoq jarangidan ajrata olamiz yoki onajonimizning ovoz tembri ko‘p ovozlar ichida bizga «o‘zgacha» bo‘lib eshitiladi.

Mazkur to‘rtta sifat har bir tovushda, shuningdek, musiqiy fikr va obrazlar ifodalaydigan qator tovushlar birikmasida albat-ta namoyon bo‘ladi.

### 3-§. Musiqiy tizim. Tovushqator. Pog‘onalar

*Musiqiy tizim* deb milliy va tarixiy o‘ziga xosligidan kelib chiqqan muayyan bir musiqiy madaniyatda tatbiq qilingan **tovushlar oraliq‘idagi o‘zaro nisbatlarning uyg‘unligiga aytildi**. Bosh-qacha aytganda, barcha musiqiy tovushlar majmui *musiqiy tizimni* hosil qiladi. *Tizim tovushlarining o‘z balandligiga qarab yuqorilama yoki pastlama tartibda ketma-ket joylashishiga musiqiy tizimning tovushqatori*, tizimning tovushiga esa **pog‘ona** deyiladi. Pog‘onalarni tovushqatordagi joylashuv tartibiga ko‘ra rim raqamlari bilan belgi-lanadi: birinchi pog‘ona — I, ikkinchisi — II, keyingilari — III, IV, V va hokazo. **Pog‘onalardan asosiyлari** bo‘lib *yettitasi* hisobla-nadi va har bittasiga mustaqil nom bilan lotincha alifboning har-fi biriktirilgan:

Pog‘onaning nomi	do	re	mi	fa	sol	lya	si
Harfiy belgisi	C	D	E	F	G	A	H

<sup>1</sup> *Oberton* – yuqori ton demakdir.


Ut que ant la - xis  
 re so na re fib ris  
 mi ra ge sto rum  
 fa mu li tu o rum  
 sol ve po lu ti  
 la bi i re a tum  
 Sanc te Jo han nes.

Tovushlarning harfiy belgilari antik dunyo davridayoq qo'llanilgan, nomlari esa (si tovushdan tashqari) XI asrda italiyalik musiqa nazariyotchisi rohib Gvido d'Aretss (992—1050-yillar) tomonidan qo'shiqchilik amaliyatiga kiritildi. Notalarни o'qish jarayonini yengillashtirish maqsadida olim o'sha davrda ma'lum bo'lgan avliyo Ioann (ashulachilarning homiysi)ga atalgan diniy gimndan foydalandi. Gimnning har bir misrasi oltita pog'onali tovushqator (o'sha paytdagi kasbiy musiqada hukmronlik qilgan tovushqator) — *geksaxordning* ketma-ket har bir tovushidan boshlab kuylanardi. Bundan buyon, *geksaxordning* har bir pog'onasi gimnning muvo-fiq misrasidagi boshlang'ich so'z bog'ini bilan ataladigan bo'ldi: I pog'ona — Ut, II — Re, III — Mi, IV — Fa, V — Sol, VI — Lya.

Tovushqatorning VII pog'onasi esa XVI asrning oxiridagina yangi o'zgargan musiqiy tizimga flandriyalik Ansel tomonidan kiritiladi va mazkur gimnning so'nggi so'zlari — Sancte Johannes — boshlang'ich harflaridan tuzilgan Si bo'g'in unga nom qilib beriladi.

Musiqa san'ati tarixida bir necha musiqiy tizim (soz) rivojlangan. Ularning shakllanishiga musiqiy tafakkurning tadriji sababchidir. Ilk musiqiy tizimlar miloddan avvalgi asrlarda Yaqin Sharq mamlakatlari

— Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyoda paydo bo‘lgan. Shubhasiz, tizimlarning shakllanishi sozlashni talab qiladigan musiqiy cholg‘u asboblar rivojlanishiga bog‘liq. Cholg‘ularni sozlashda tabiiy tovush-qatorning birinchi obertonlaridan foydalanilgan. Avval — oktava (tovushqatorning birorta pog‘onasidan 8- pog‘onasigacha bo‘lgan oraliq; 8 ta pog‘ona), kvinta (5 ta pog‘ona), kvarta (4 ta pog‘ona), keyingi paytlarda — tersiya (3 ta pog‘ona)ga asoslangan tizimlar.



### *3-misol. Tabiiy soz yoki obertonlar qatori*

Masalan, qadimgi musiqiy tizimlaridan biri — pentatonika<sup>1</sup> kvinta intervaliga<sup>2</sup> asoslangan. Pentatonika tovushqatorini tashkil etadigan tovushlar (masalan, do, re, mi, sol, lya) kvintalar qatori (do — sol — re — lya — mi)dan kelib chiqadi.

Pifagor sozi deb ataladigan musiqiy tizim tovushqatori ham akustika jihatidan sof kvintalar asosida tuzilgan edi. Bu soz bir ovozlik (melodik tafakkur) keng rivojlangan davrda hukmronlik qilgan edi.

Uyg‘onish davrida yangi garmonik tafakkur shakllana boshlaydi. Rivojlanayotgan xor ko‘povozliligi uchun italiyalik musiqa nazariyorchi Jozeffo Sarlino (1517—1590-y.y.) yangi tizimni nazariy asoslab beradi. Bu tizimda akustika jihatidan sof tersiyaga ahamiyat berilgan. Mazkur tizim *sof* yoki *tabiiy soz* deb nom oladi. Vaqt o‘tgach, sof sozning kamchiliklari (masalan, birorta intervalning har xil pog‘onalarda turlicha yangrashi, ko‘p ovozlikda keskin noohangdoshliklarga olib kelardi) asta-sekin keyingi musiqiy tizimning paydo bo‘lishini majburlaydi.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshida zamonaviy bir tekis *temperatsiyalangan*<sup>3</sup> soz vujudga keladi. Ushbu soz nemis organchi

<sup>1</sup> *Pentatonika* (yunoncha πέντε — besh va *ton* — tovush) — oktava chegarasida gi besh pog‘onali tizim.

<sup>2</sup> *Interval* (lotincha — *intervalum*) — oraliq, ikki tovush oralig‘i. Kvinta intervali — 5 ta pog‘onani qamrab oladigan interval.

<sup>3</sup> *Temperatsiya* (lotincha — *temperatio*) — to‘g‘ri nisbatlar, bir tekislik.

Andreas Verkmeyster tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, tovushlar *engaronizmi*<sup>1</sup> muammosini yechadi. Endi sof sozdagi ziddiyatlar bartaraf qilinib, balandlik bo‘yicha yaqin joylashgan tovushlarning jarangi tekislanadi, ya’ni ikkita qo‘shni pog‘ona bitta balandlikka ega bo‘lishi mumkinligi katta ahamiyat kasb etadi. Musiqada yangi mazmun va obrazlarni gavdalantirishda turli-tuman tonalliklar, murakkabakkordlar, modulatsiyadan foydalanish, cholg‘u asboblarining rivojlanishi, ularning ifodaviy va ijrochilik imkoniyatlari kengayishiga yo‘l ochiladi. Lekin, bu sozning ham kemtik tomonlari mavjud. Aynan tovushlar engarmonizmi tufayli tovushlarning o‘zaro intilish kuchi pasaygan. Shuning uchun, bir ovozlik kuylarining ohangi o‘z ifodaviyligida biroz so‘ngan.

#### 4-§. Oktavali tizim. Diapazon. Registr

Zamonaviy musiqa tizimi va uning tovushqatori odam qulog‘i eshita oladigan 88 ta tovushdan iborat. Bularning hammasini fortepyano yoki royal («cholg‘ular qiroli»)da chalib eshitish mumkin. Fortepyano *klaviaturasi*<sup>2</sup> oq (52 ta) va qora (36 ta) klavishlarga ajratilgan. Uning chap tomonida balandligi past tovushlar, o‘rtasida o‘rta balandlik tovushlar, o‘ng tomonida baland tovushlar joylashadi.

Yuqorida aytildi, tovushqatorning atigi yettita, asosiy pog‘onasi nom olgan va ular klaviaturaning faqat oq klavishlariga muvofiq:

Demak, butun klaviaturaning 52 ta asosiy pog‘onasi yettita nom bilan aytib chiqiladi: *do, re, mi, fa, sol, la, si, do, re, mi, fa, sol, la, si, do, re, mi* ..... va hokazo. Bunday holat tabiyi soz tovushqatori bilan bog‘liqidir. Har qanday tovushdan boshlab (uni asosiy ton qilib olsak) yuqoriga qarab sanaganda, tovushqatoridagi sakkizinchi pog‘onasi uning birinchi obertonini bo‘lib chiqadi. Asosiy ton bilan birinchi obertonining jarangi esa akustika jihatidan butunlay uyg‘unlashib ketadi. Shunday ekan, har sakkizinchi pog‘ona birinchi pog‘onaning boshqa balandlikdagi takrori bo‘lib, uning nomi bilan ataladigan bo‘ldi.



<sup>1</sup> Engarmonizm (yunoncha *en* – ichidagi, *harmoniya* – ohangdoshlik).

<sup>2</sup> Klaviatura (lotincha) – kalit; muayyan tartibda joylasgan klavishlar tizimi.

**Yaqin masofada joylashgan ikkita bir xil nomga ega bo‘lgan tovushlar oralig‘i oktava deyiladi**, masalan, *do* dan *do* gacha yoki *fa* dan *fa* gacha va hokazo.

Butun tovushqatorni *do* tovushdan keyingi *do* gacha hosil bo‘lgan oktavalarga bo‘lish qabul qilingan. Har bir oktava quyidagicha nomlanadi (pastki tovushlardan boshlab sanaladi): *subkontroktava* (uchta tovushdan iborat), *kontroktava*, *katta oktava*, *kichik oktava*, *birinchi oktava*, *ikkinchi oktava*, *uchinchi oktava*, *to‘rtinchi oktava* va *beshinchi oktava* (bitta tovushdan iborat). Shunday qilib, musiqa tizimidagi tovushqator 7 ta to‘liq va 2 ta to‘liqsiz oktavalardan iborat. Klaviaturada oktavalalar joylashishi 5-misolda ko‘rsatilgan.


Harfiy belgilashda oktavalarni ajrata olish uchun katta va kichik harflardan foydalaniladi. Subkontroktava, kontroktava va katta oktavaning tovushlari katta harflar bilan, kichik oktavadan beshinchi oktavagacha tovushlar kichik harflar bilan yoziladi. Faqat birinchi oktava tovushlarini belgilaydigan harflar ustiga qo‘srimcha qilib «1» raqami yoziladi. Masalan: birinchi oktavaning *re* tovushi — **d<sup>1</sup>**, *la* — **a<sup>1</sup>**; ikkinchi oktavaning raqami — «2»: **d<sup>2</sup>**, **g<sup>2</sup>**; uchinchi oktava — «3», *to‘rtinchi* — «4», beshinchi — «5» raqami bilan belgilanadi. Kontroktavaning ham raqam ko‘rsatkichi — «1», subkontroktavaning — «2». Biroq, bu oktavalar raqamlari harflarining ostiga yoziladi, masalan: **A<sub>1</sub>**, **B<sub>1</sub>**, **E<sub>1</sub>**, **A<sub>2</sub>**, **H<sub>2</sub>**.

Birorta musiqa asbobi yoki ashulachi ovozining **eng pastki tovushidan eng yuqori tovushigacha tovushqatorning umumiy hajmiga diapazon<sup>1</sup>** deb aytildi. Hamma asboblardan faqat fortepyano (royal va organ) diapazoni musiqiy tizimning butun tovushqatorini o‘zida mujassamlashtiradi. Boshqa musiqiy asboblarning diapazoni esa musiqiy tovushqatorning biror-bir qisminigina jammaydi. Diapazon deb musiqiy asarning, yoki asardagi vokal yoxud cholg‘u partiyasining tovushlari hajmiga ham aytildi.

Butun diapazonning davomida cholg‘u asbob yoki ashulachining ovozi yangrashi bir xil emas. Ko‘p hollarda ularning yangrashi diapazonning birorta bo‘lagida ifodaliroq, ravshan, erkin oqadigan bo‘lsa, boshqasida keskin, chinqiroq yoki past, xira, zo‘raki bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, diapazon o‘z ichida ovozning yangrashi sifati — tembri bilan farqlanadigan uchta, ya’ni past, o‘rta va yuqori bo‘lakka ajraladi. Ularga **registr<sup>2</sup>** deyiladi. Demak, **registr uch xil bo‘lib, diapazonning bir bo‘lagidir**.

<sup>1</sup> *Diapazon* (yunoncha – *dia pason*) – barcha torlar ustidan.

<sup>2</sup> *Registr* (lotincha – *registrum*) – ro‘yxat.



5-misol. Klaviatura.

Shuni aytib o'tish kerakki, har xil ovozlar yoki asboblarning bir xildagi registrlari ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi. Masa-lan, bas ovozning yuqori registrdagи tovushlari alt ovozining pastki registri bo'lib hisoblanadi, fleytaning pastki registri klarnetning o'rta registriga muvofiqdir.


### **5-§. Temperatsiyalangan soz. Hosila pog'onalar. Alteratsiya belgilari. Tovushlar engarmonizmi**

Yevropa musiqasining tarixiy taraqqiyotida joriy musiqa madaniyati, tafakkurining ifodachisi bo'lib, bir necha musiqiy soz xizmat qilib o'tgan. Chunonchi, pentatonika tizimi (oktava bilan chegaralangan 5 pog'onali tovushqator), qadim Yunoniston ladlari tizimi (7 ta pog'ona), Pifagor sozi, tabiiy soz, geksaxordlar tizi-mi (6 ta pog'ona) va boshqalar. XVIII asr I yarmida yevropa mu-siqa amaliyotida 12 ta pog'onali bir tekis temperatsiyalangan soz mustahkam o'rnashadi. Bu sozning «yashashga huquqini» I.S.Bax amaliy faoliyati orqali tasdiqladi. Uning «Das wohltemperierte Klavir» («Yaxshi temperatsiyalangan klavir» (1722-y., 1744-y.)) nomli asari barcha tonalliklarda yozilgan 48 ta prelyudiya bilan fugadan iborat bo'lib, yaqinda shakllangan sozni tatbiq qilishda musiqa tarixidagi birinchi badiiy tajribadir.

**Oktavasi balandlik bo'yicha teng nisbatda bo'lgan 12 ta tovushdan iborat musiqiy tizim bir tekis temperatsiyalangan soz** deb yuritiladi.

Xullas, ushbu sozning oktavasi 12 ta teng qismga bo'linadi. Uning tovushlari bir-biridan eng kichik oraliq — **yarim ton** bilan ajralib turadi. Shunday qilib, bitta oktava 12 ta tovush (yoki boshqacha aytganda 12 pog'ona, yoki 12 klavisha) va 12 yarim tonli oraliqdan tarkib topadi.

( $0,5$  ton +  $0,5$  ton = 1 butun ton).



Oktavaning 12 ta pog'onasidan 7 tasi (oq klavishlar) asosiylari-dir. Qolgan 5 ta pog'onasi (qora klavishlar) **hosila pog'onalar** deb

aytiladi. Albatta, tovushqatordagi har pog‘onasi yangi mustaqil bir tovushdir. Lekin, tarixan shunday odat bo‘lib qolganki, ular yaqin joylashgan asosiy pog‘onadan hosil bo‘lgan deb hisoblanadi. **Hosila pog‘ona — bu asosiy pog‘onaning balandligini ko‘tarish yoki pasaytirish yo‘li bilan hosil bo‘lgan pog‘onadir.** Uning nomi ham asosiy pog‘onaning nomidan kelib chiqadi.

Pog‘onaning balandligini ko‘tarish va pasaytirish jarayoniga **alteratsiya**<sup>1</sup> deyiladi. Pog‘onaning alteratsiyasi maxsus belgilar — alteratsiya belgilari yordamida amalga oshiriladi. **Diez** — # — asosiy pog‘onani yarim tonga ko‘taradi (klaviaturada oq klavishga eng yaqin joylashgan o‘ng tomonidagi klavisha), **dubl diez** — x — ikkita yarim tonga (1 tonga) ko‘taradi. **Bemol** — ♭ — asosiy pog‘onani yarim tonga pasaytiradi (klaviaturada oq klavishga eng yaqin joylashgan chap tomonidagi klavisha), **dubl bemol** — ♯ — ikkita yarim tonga (1 tonga) pasaytiradi.

**Bekar** — ↳ — diez va bemol ta’sirini bekor qiladi.

Harfiy belgilashda alteratsiya qilingan pog‘onaning harfiy ishorasiga **diez** — **is**, **dubl diez** — **isis**, **bemol** — **es**, **dubl bemol** — **eses** so‘z bog‘inlari qo‘shib o‘qiladi va yoziladi.

Masalan, **f + is = fis** — fa-diez;

**d + es = des** — re-bemol;

**c + isis = cisis** — do-dubl diez;

**g + eses = geses** — sol-dubl bemol.

Istisno tariqasida: **mi-bemolning harfiy belgisi ees emas es qilib, la-bemol — aes o‘rniga as, si-bemol — hes o‘rniga b** yoziladi.

#### Alteratsiyalangan pog‘onalarning harfiy ishoralari jadvali

Alteratsiya belgisi	harfiy ishorasi	c	d	e	f	g	a	h
#	is	cis	dis	eis	fis	gis	ais	his
x	isis	cisis	disis	eisis	fisis	gisis	asis	hisis
♭	es	ces	des	es	fes	ges	as	b
♯	eses	ceses	deses	eses	feses	geses	ases	bb, (bes), (heses)

Bir tekis temperatsiyalangan sozda oktavadagi barcha yarim tonlarning teng ekanligi tufayli turlicha nomlanadigan tovushlarning balandlik bo‘yicha tekislaniishi (aynan o‘xhashligi)ga eri-

<sup>1</sup> Alteratsiya (lonincha — *Alteratio*) — o‘zgartirish ma’nosini bildiradi.

shiladi. Masalan, tovushqatorning har qanday pog‘onasidan bir xil yangraydigan, ya’ni pog‘ona va tonlarning bir xil miqdordagi oraliqlarni tuzish, butun asarni, unga ziyon yetkazmagan holda, boshqa balandlikka o’tkazib ijro etish, turli cholg‘u asboblaridan

tashkil topgan ansamblar yaratish imkoniyati tug‘iladi.

**Balandligi bir xil, ammo nomlanishi va yozilishi har xil bo‘lgan pog‘onalar tengligiga tovushlar engarmonizmi** deyiladi.

Masalan, *cis* bilan *des* tovushlar bir xil balandlikka va bitta klavishga ega bo‘ladi; *f* tovushga *eis* va *geses* tovushlar balandligi teng keladi.

8-misol. Engarmonik teng pog‘onalar

## 6-§. Nota yozuvi. Kalitlar

Ko‘p asrlar mobaynida musiqa asarlarini qog‘ozga aniq tushirish uchun qulay ko‘rgazmali yozuv tizimini topishga harakat qilingan edi. Musiqiy matnni qog‘ozga tushirishda tovushning balandlik va cho‘zim xususiyatlarini bitta belgi bilan ifodalash zarur edi. Bunday belgi *nota*<sup>1</sup> degan nom oldi. Nota yozuvining ilk tri qadim Yunoniston san’atida paydo bo‘lgan harfiy notatsiyadir (notalar tizimi).

IX asrda g‘arbiy Yevropa musiqa nazariyotida tovushlarning nisbiy balandligini va kuy harakati yo‘nalishini *nevma* belgilari yordamida grafik aks ettirishga urinishlar qilingan edi. Biroq ular tovush balandligi o‘zgarishini taxminan ko‘rsata olar edi. Nevma yozuvi faqatgina *vocal musiqa* asarlarini qog‘ozga tushirish uchun qo‘llanilardi.


O‘rta asrlar davrida ilm, yozuv, bilimlar «madaniyat o‘chog‘i» deb hisoblangan monastirlarda to‘plangan edi. X asr oxirida Korbi nomli fransuz monastir rohiblari tomonidan musiqiy yozuvga nevmalarni kesib o‘tadigan gorizontal qizil chiziq kiritildi. Uning ustiga yozilgan nevmalar kichik oktavaning *fa* tovushi deb

<sup>1</sup> *Nota* (lotincha – *nota*) – yozuv belgisi, belgi. Tovushning grafik ishorasi.

hisoblanar edi. Keyinchalik unga yana bitta – sariq rangli chiziq qo'shildi va qizil chiziqdan yuqoriroq joylashib, birinchi oktava-ning *do* tovushini bildirardi.

Musiqa nazariyasining haqiqiy islohotchisi, zamonaviy nota yozuvining asoschisi Gvido d'Aretstso (XI asr) geksaxordlar tizimi, pog'onalarni nomlashdan tashqari, to'rt chiziqli nota yo'lini ham barqaror qildi. Kelgusida nota yo'lining chiziqlarini ko'paytirish va kamaytirish kabi harakatlar qilindi, amмо bu urinishlar muvaffaqiyatga uchramadi. Nihoyat, XIV asrda besh chiziqli nota yo'li barpo etilib, hozirgacha eng qulay nota yo'li sifatida qo'llanilmoxda. Bunga sabab — beshta chiziqqa (qo'shimcha chiziqlarsiz) ashulachi ovozining barcha o'rta balandli tovushlarini (*tessitura*<sup>1</sup>) yozib joylashtirish mumkinligi hamda nota o'qishda mo'ljal qilib olingan o'rta chiziqnning tez va osonlik bilan topilishidir.

**Nota yo'li deb nota, alteratsiya belgilari, pauzalar joylashadi-gan beshta gorizontal parallel chiziqlar tizimiga aytiladi.** Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi.



9-misol.


Odatda nota yo'li boshida beshta chiziqni birlashtiradigan vertikal ***boshlang'ich chiziq*** qo'yiladi. Notalar nota yo'lining chiziqlari ustiga va ular oralig'iga yoziladi. Asosiy chiziqlardan tashqari qisqa ***qo'shimcha chiziqlar*** ham ishlatilishi mumkin. Ular nota yo'lining tepasidan yozilsa, pastdan yuqoriga tomon, yoki nota yo'lining pastidan yozilsa, yuqoridan pastga tomon sanaladi.

***Boshlang'ich chiziqning turlari.*** Ko'p hollarda musiqiy asar matni bir vaqtning o'zida ikkita, uchta va undan ortiq nota yo'lida bayon etiladi. Shunda, barcha nota yo'llari umumiy boshlang'ich chiziq bilan birlashtiriladi. Unga qo'shilib yana ***akkolada***<sup>2</sup> deyiladigan qavs ham yoziladi. *Figurali akkolada* fortepyano, organ, arfa, bayan

<sup>1</sup> *Tessitura* (italiyancha – *tessitura*) – mato. Ovozdagi ustunlik qiluvchi registr.

<sup>2</sup> *Akkolada* (fransuzcha – *accolade*) – quchoqlamoq, qavs bilan birlashtirmoq.

uchun yozilgan asarlar nota matnida, *to'g'ri akkolada* ansambl, xor yoki orkestr uchun yozilgan asarlar nota matnida qo'llaniladi.




10-misol.

Alteratsiya belgilari nota yo'lida qo'llanishi bo'yicha ikki turga ajratiladi. **Tasodify alteratsiya belgilari** nota yoniga o'ng tomonidan (16-, 17- misollarga qarang), **kalit alteratsiya belgilari** asarning har qatoriga kalitdan so'ng qo'yiladi (15-, 22-misollarga qarang).

Bir ovozning tessiturasidagi tovushlarni notalashtirish jarayonida yozuv qiyinchiliklarisiz bitta nota yo'lida yozilishi mumkin edi. Boshqa ovozning tessiturasini notaga tushirish uchun ko'p sonli qo'shimcha chiziqlardan foydalanishga majbur qilardi. Bunda tashqari, qo'shimcha chiziqlarga yozilgan notalarni o'qish jarayoni ham osonlikcha o'tmaydi.

Ushbu masalani bartaraf etish uchun bir qator **kalitlar** ishga solindi. Kalitlardan har biri alohida bir ovoz uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, soprano, alt, tenor, bas va boshqa kalitlar vujudga keldi. Bu kalitlar **Do kalitlari** deb ataladi. Negaki, ular birinchi oktava *do* tovushning nota yo'lidi joylashuvini ko'rsatadi. Baland ovozlar uchun kalit nota yo'lining pastrog'ida, past ovozlar uchun esa yuqoriqrog'ida yozilib, qo'shimcha chiziqlarga muhtojlikni hal qilardi. *Kalitning muhim bir vazifasi — unga biriktiligan tovushning notasini nota yo'lidi joylashuvini ko'rsatib turishdir.* (Hozirgi kunda *Do* kalitlaridan faqat alt bilan tenor kalitlari ayrim cholg'u asboblari uchun qo'llaniladi.)




11-misol. Do kalitlari tizimi.

Cholg'u musiqasi rivojlanishi natijasida nota yo'li katta diapazondagi asarlar tovushqatorini o'z ichiga sig'dirolmay qol-

gach, yangi kalitlar, ya’ni ***Sol*** bilan ***Fa kalitlari*** ishlatila boshlandi.

***Skripka kaliti*** birinchi oktavaning ***sol*** tovush nota yo‘lidagi ikkinchi chiziqqa, ***bas kaliti*** kichik oktavaning ***fa*** tovush to‘rtinchi chiziqqa yozilishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy nota yozuvida ***skripka (Sol)*** va ***bas (Fa) kalitlari kalitlar tizimini*** tashkil etadi. Bu tizim ikkita nota yo‘lini bitta qatorga birlashtirib, musiqiy tizimning butun tovushqatorini qamrab oladigan imkonga qodir bo‘ldi (5-misolga qarang). Skripka bilan bas kalitlari asosiy kalitlarga aylanib qoldi. Kalitlar tizimi birligi yana shu bilan ta‘kidlanadiki, birinchi oktavali ***do*** tovush notasi, musiqiy tovushqatorning markazi sifatida, nota yo‘llari o‘rtasida faraz qilinadigan chiziqda joylashadi. Undan qarama-qarshi tomonlarga qarab ketma-ket joylashgan notalar esa bir-birining ko‘zguli aksidir. Kalitlarning yozilishida ham ularning o‘zaro aksi ko‘rinadi.



12-misol. Kalitlarning va notalar joylashuvlarining ko‘zguli aksi.

## 7-§. Tovush cho‘zimlari. Cho‘zimlarni uzaytiruvchi belgilar. Pauzalar

Nota tovushning yozuv belgisidir. Notaning nota yo‘lida joylashuvi (kalitning turi inobatga olingan holda) tovushning aniq balandligini ko‘rsatadi. Notaning grafik ko‘rinishi esa tovushning cho‘zimi haqida xabar beradi.

Notaning o‘zi oval shaklga ega. Bo‘yalmagan oval ***eng katta cho‘zim*** deb hisoblanadigan cho‘zimning belgisidir.

Unga ***butun cho‘zimdagি nota*** deyiladi — ***o***

Butun cho‘zimning teng yarmi (1/2) — ***↓↑ yarimtalik cho‘zimdir.***  
Uning notasi — chizig‘i, ya’ni ***shtili*** bor bo‘yalmagan oval.

Eslatma: shtillar notaning o‘ng tomonidan yuqoriga, chap tomonidan pastga qarab yozilishi lozim.

Yarimtalik cho'zimning teng yarmi (1/2) yoxud butun cho'zimning choragi (1/4) —  **choraktalik cho'zimdir.** Chorak notasi — shtili bor bo'yalgan oval.

Choraktalik cho'zimning teng yarmi (1/2), yoki yarimtalik cho'zimning choragi (1/4), yoki butun cho'zimning sakkizdan bir qismi (1/8) —  **sakkiztalik cho'zim yoki nimchorakdir.**

Notaning grafik ko'rinishi — bo'yalgan ovalga shtil bilan bayroqcha (dumcha) qo'shilgan.

Eslatma: bayroqchalar har doim shtilning o'ng tomonidan yoziladi.

Sakkiztalik cho'zimning teng yarmi (1/2), yoki chorakning to'rtadan bir qismi (1/4), yoki yarimtalik cho'zimning sakkizdan bir qismi (1/8), yoki butun cho'zimning o'n oltidan bir qismi (1/16) —

**o'n oltitalik cho'zimdir.** Uning notasi —   bo'yalgan ovalga shtil bilan ikkita bayroqcha qo'shilgan.

O'n oltitalik cho'zim, o'z navbatida, ikkita **o'ttiz ikkitalik** cho'zimdan iboratdir.

Notasi —  — bo'yalgan ovalga shtil bilan uchta bayroqcha qo'shilgan. Undan maydaroq cho'zim — oltmishto'rttalik — to'rtta bayroqchaga ega.

Cho'zimlar soni	Tovush cho'zimlarining notali ishorasi					
1 ta	•	♩	♪	♪	♪	♪
2 ta	♩	♩	♪	♪	♪	♪
4 ta	♩	♪	♪	♪	♪	
8 ta	♪	♪	♪			
16 ta	♪	♪				
32 ta	♪					

13-misol. Cho'zimlarning asosiy bo'linish jadvali.

**Cho'zimlarning asosiy bo'linishi** deganda, **har qanday cho'zimning ikkita teng qismga bo'linishi** nazarda tutiladi. Shu tariqada, butun cho'zim ikkita yarimtalik cho'zimdan, yarimtalik — ikkita

chorakdan, chorak — ikkita nimchorakdan iborat va hokazo. Yoki sakkizta nimchorakning umumiy cho'zimi butun cho'zimga teng keladi; to'rtta nimchorak bitta yarimalik cho'zimni hosil qiladi. (Taqqoslang: real vaqtda 1 kun cho'zimi 24 soatdan iborat, 1 soat cho'zimi 60 daqiqadan iborat, 1 daqiqa 60 soniyaga teng keladi, 1 soatning cho'zimi 3600 soniya bilan barobar.)

Nota **shtillarining yozilishi** notaning nota yo'lidagi joylashuvidan kelib chiqadi. Uchinchi (o'rta) chiziqdiga joylashgan notaning shtili pastga ham, yuqoriga ham yozilishi mumkin. O'rta chiziqdan pastroq joylashgan notalarning shtillari yuqoriga qarab, o'rta chiziqdan teparoq joylashgan notalarning shtillari pastga qarab yoziladi.



*14-misol.*

Bayroqchali notalar asosan xonanda ovozi (vokal) partiyasida qo'llaniladi. Shunda, quyidagi shartga rioxha qilish lozim: so'zning har bo'g'iniga to'g'ri keladigan nota boshqa notalardan alohida yoziladi; agar so'z bo'g'iniga bir necha bayroqchali notalar to'g'ri kelsa, ular to'g'ri chiziq — qovurg'acha bilan bir guruuhga birlashtiriladi.

Nota yo'lida ikki mustaqil ovozni yozish ham mumkin. Ovozlarni ajratish uchun yuqori ovoz shtillari yuqoriga, pastki ovoz shtillari pastga qaratilgan bo'ladi (15-misolga qarang).

### OYOMAJON ROM BO'LDI

*Shermat Yormatov* musiqasi

*Quddus Muhammadiy* she'ri

**Solist**

Oy-mo-ma-jon rombo'l-di, rom bo'l - di, Os- mon-gum-baz  
 tom bo'l-di, tom bo'l - di, Os-mon-gum-baz to - mi - ga  
 lo-chin bo'lib qo'na - miz Yo-rug'yul-duz yu - zi - ga, Muh-ri-miz-ni  
 Oy us - ti - ga  
 qo' - ya - miz. O'z - be - kis-ton bay - ro - g'in a.....

*15-misol.*

Cholg‘u musiqa asarlarida mayda cho‘zimli notalar asosan guruhlarga birlashtirilgan holda yoziladi (16-misolga qarang). Shunisi ham borki, guruhni tashkil etadigan notalar aksariyati uchinchi chiziqidan pastroq joylashgan bo‘lsa, ularning shtillari yuqoriga qaratiladi va aksincha (17-misolga qarang).

*V.Motsart. Fortepiano sonatasi A-dur,  
III qism. Turkcha marsh.*

**Allegretto**

16-misol.

17-misol.

Nota yozuvida asosiy cho‘zimlarni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar ham tez-tez qo‘llaniladi. Bularga nota yoniga (hamisha o‘ng tomonidan) qo‘yiladigan nuqta, yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi notalarni birlashtiruvchi liga<sup>1</sup>, nota tepasidan yoki ostidan qo‘yiladigan fermata kiradi.

$\bullet = \frac{3}{2} (\bullet + \bullet)$ ; Nuqta — tovush cho‘zimini teng yarmiga uzaytiradi.

$\bullet = \frac{3}{4} (\bullet + \bullet)$ ; Butun cho‘zim nuqtasi bilan o‘z ichiga uchta yarimtalik cho‘zimni oladi.


$\bullet = \frac{3}{8} (\bullet + \bullet)$ ; Nuqtali yarimtalik cho‘zim uchta chorakning umumiy cho‘zimiga teng bo‘ladi.

$\bullet = \frac{3}{16} (\bullet + \bullet)$ ; Nuqtali choraktalik cho‘zim uchta nimchorakning umumiy cho‘zimiga teng bo‘ladi va hokazo.

18-misol

<sup>1</sup> *Liga* (eski italiyancha – *liga*) – aloqa, bog‘liqlik.

**Liga** — bog'lab turgan notalar cho'zimlarining umumiy miqdo-riga teng cho'zimni hosil qiladi. Masalan: butun bilan yarimtalik liga orqali qo'shilishi natijasida uchta yarimtalikning umumiy miqdoriga teng cho'zim hosil bo'ladi; nimchorak yarimtalik bilan liga orqali qo'shilganda beshta nimchorakka teng cho'zim hosil bo'ladi.



19-rasm

**Fermata** — tovush cho'zimini cheklanmagan vaqtga uzaytiradi. Bunday tovushning uzunligi asarning xarakteri hamda ijrochining dididan kelib chiqadi.



20-misol.

**Pauza**<sup>1</sup> deb musiqiy asardagi bitta, ikkita yoki barcha **ovozi**-lar yangrashining muayyan vaqtga to'xtalishiga va uning belgisiga aytiladi.

Pauza cho'zimlari xuddi tovush cho'zimlaridek o'lchanadi hamda faqat nuqta yordamida uzaytiriladi.


	butun cho'zimdag'i pauza
	yarimtalik pauza
	choraktalik pauza
	nimchorak pauza
	o'n oltitalik pauza
	o'ttiz ikkitalik pauza

21-misol.

### 8-§. Nota yozuvini qisqartirish belgilari

Nota yozuvini soddalashtirish va qisqartirish uchun bir necha maxsus belgililar qo'llaniladi.


1. Musiqa asarining ma'lum qismida qo'shimcha chiziqlarini kamaytirish maqsadida *bir oktava yuqori yoki pastga ko'chirish belgisi* qo'yiladi.



22-misol.

<sup>1</sup> Pauza (lotincha – *pausa*) – to'xtalish, tugatish.

2. *Repriza*<sup>1</sup> — qaytarish belgisi — asarning ma'lum bir qismini yoki uning o'zini boshdan oxirigacha qayta ijro etish uchun qo'yildi:



**O'zbek xalq qo'shig'i "O'zgancha"**

♩ = 82

En di sen-dek, jo - no, jo nonqay - da - dir, yor ey!

Ko' rib gul yu - zing - ni bog'-da ban - da - dir.

23-misol.

3. *Volta* — asardagi qaytariladigan qismning oxirida o'zgaradigan taktlari ustiga qo'yildigan kvadrat qavssdir. Birinchi voltadagi taktlar — asar parchasi birinchi marta ijro etilishi uchun, ikkinchi voltadagi taktlar — asar parchasining takroriy ijrosi uchun ko'rsatiladi.

A.Mansurov. "Quyosh bilan suhbat"

Na na na na na na na

1. Na na na na na na na na

2. Na na na na na na na na!

24-misol.

4. *Da capo al Fine* — ya'ni «boshdan to oxiri (Fine) so'zigacha» — uch qismli shaklda yozilgan asarda ikkinchi qismidan so'ng, birinchi qismni notama-nota takrorlashni talab qiladi; shunda, uchinchi qismning nota matni yozilmaydi.

5. *Segno* — (senio) takt ustiga qo'yildigan belgi — asarda qaytarish boshlanadigan yoki tamom bo'ladigan joyini ko'rsatuvchi belgidir §

<sup>1</sup> *Repriza* (fransuzcha — *reprise*) — qaytadan boshlamoq.

## CHUMOLI

*R.Ishoqov she'ri*

**Sho'x, quvnoq**

*Alisher Rasulov musiqasi*

**§**

25-misol.

*Dal segno al capo — ya'ni «senio belgisidan to oxirigacha» qayta ijro etish demakdir.*

*Da capo al Segno poi Coda — ya'ni «boshdan to senio belgisigacha qayta ijro etish, so'ngra xotima (koda) ga o'tilsin» demakdir.*

6. ·· — biron-bir taktni bir necha marta ketma-ket qaytarishda ishlatiladigan belgi.

7. *Tremolo* — ikki tovush yoki tovushlar yig'indisi tez, tekis va ko'p marta almashib takrorlanishiga aytildi.

*yozilishi ijro etilishi                                  yozilishi ijro etilishi*

26-misol.

8. *Con oktava* — muayyan tovushni ikki oktavada juftlab ijro etish. Nota ustiga 8 raqami yozilganda ko'rsatilgan tovush yuqori oktavadagi tovush, nota tagiga 8 raqami yozilganda tovush pastki oktavadagi tovush bilan birga ijro etiladi.

*yozilishi                                  ijro etilishi*

26-a-misol.

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Nota yozushi, nota, nota yo'li, kalit, tovushlarning asosiy cho'zimlari, cho'zimlarning asosiy bo'linishi, pauza kabi tushunchalariga ta'rif bering.
2. Har xil cho'zimlardagi nota va pauzalarni yozing.
3. Cho'zim uzaytiruvchi belgilarni qo'llab nota va pauzalarni yozing.
4. Musiqiy adabiyotda nota yozuvini qisqartirish belgilarini toping.

## II BOB. METR. RITM. TEMP

### 1-§. Metr. Takt. O'lchov

Musiqani tinglayotganimizda biz, beixtiyor yoki ongli ravishda, bir maromda boshimizni chayqash, qo'limizni silkitish yoki oyog'imiz bilan yerni tepkilashni boshlaysiz. Bunday harakatlaraga bizlarni musiqaning pulsatsiyasi undaydi. *Pulsatsiya — bu bir tekis urib turadigan zarblardan iborat jarayondir* (xuddi tomirning bir tekis urishiga o'xshaydi).

Musiqada pulsatsiya jarayonidagi zarblarga ***hissa*** deyiladi. Hissa vaqtga bog'liq bo'lgan hisoblash birligidir. Uning qisqa-uzunligi tovush cho'zimlari bilan o'lchanadi. Masalan, 27-misoldagi kuyning hissalari sakkiztaliklarga teng.

D.Ober. *Ayol vakil*

Allegro

Tomir urishi

27-misol.

28-misolda har bir hissaning cho'zimi chorak bilan barobar.

Alla marcia e molto marcato

E. Grig. "Per Gunt" suitasi  
"Tog' qiroli g'orida"

28-misol.

29-misolda har bir hissa yarimalik cho'zim bilan o'lchanadi.

*M.Glinka. "Ivan Susanin"*



29-misol.


Yurakdag'i bir maromda urib turadigan zarblar pulsatsiya jarayonini tashkil etadi. Musiqada esa **hissalarning bir tekis kelishi metr**<sup>1</sup> deyiladigan jarayonni hosil qiladi.

Hammaga ma'lumki, har bir so'zda urg'u berilgan va urg'udan xoli bo'lgan bo'g'inlar mavjud. So'zlar ketma-ketligida urg'uli va urg'usiz so'z bo'g'inlarining qay vaqtda kelishi ahamiyatga ega emas. She'r tuzilishida, aksincha, bunga katta e'tibor berilib, urg'uli va urg'usiz so'z bo'g'inlarini muayyan bir tartibga keltirish talab qilinadi. Bu tarzdagi tartib metr deb ataladi.

Kuy yangrashida ham ayrim hissalar urg'usi bilan, ya'ni qat-tiqlik xususiyati bilan ajralib turadi. Musiqada urg'uning o'zini **aksent**<sup>2</sup> (>), aksentga ega hissani **kuchli**, aksent tushmaydigan hissani **kuchsiz hissa** deb ataydi. Shundan kelib chiqadiki, musiqiy **metr** — bu kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekis almashinib kelişidir.

Aksentning roli, umuman olganda, birorta tovushning qat-tiqligini, boshqa tovushlardan ko'ra, orttirib ko'rsatishdir. Kuchli hissaga tushgan aksent uning qattiqligi va eng og'ir hissالigini yana bir bor ta'kidlaydi. Metrning yuzaga kelishida qo'llaniladigan ana shunday aksent **metrik aksent** deb ataladi. Muntazam ravishda keladigan aksent harakatlarni tartibga soladigan xususiyatga egadir. Metrik aksent osongina va samimi ravishda idrok qilinadigan raqs, marsh, ommaviy va om-mabop qo'shiq janrlari, klassik mu-siqa asarlariga xosdir.

Odatda, kuchli hissa bir necha kuchsiz hissalardan so'ng qaytariladi (30-misol).



30-misol.

<sup>1</sup> Metr (yunoncha – *metron*) – me'yor, o'lchov.

<sup>2</sup> Aksent (lotincha – *accentus*: *ad* – birorta narsaga yaqinligini bildiradigan old qo'shimcha, *cantus* – ashula aytish).

Agar kuchli hissa bitta kuchsiz hissadan keyin qaytarilsa — **ikki hissali metr**, ikkita kuchsiz hissalardan so'ng qaytarilsa — **uch hissali metr** hosil bo'ladi va hokazo.

Ikkita kuchli hissaning oralig‘iga **takt** deyiladi. Takt metrning o'lchov birligi hisoblanib, hamisha kuchli hissadan boshlanadi. Nota yozuvida taktlar nota yo'lini ko'ndalangiga kesib o'tadigan **takt chizig'i** bilan chegaralanadi. Takt chizig‘idan so'ng yoziladigan birinchi nota yoki pauzani kuchli hissa deb bilmog'i lozim. Demak, metr haqida gap borganda, keng ma'nodagi «ikki hissali metr» o'rniga metrning o'lchov birligi nuqtayi nazaridan «ikki hissali takt», «uch hissali takt» deb aytish ham mumkin.

Har bir taktni tashkil qiladigan hissalar miqdori va ularning cho'zimi nota yozuvida kasrsimon raqam bilan ifodalanadi. Unga **o'lchov** deb nom berilgan. O'lchovning ustki raqami takt (metr)dagi hissalar sonini, pastki raqami bitta hissaning qanday cho'zimda ifodalanganligini bildiradi. Masalan: 2/4 o'lchov har takt ikkita hissadan iborat va har hissasi chorak cho'zimiga teng bo'lishini aniqlaydi. O'lchov asarning faqat birinchi qatorida kalit va kalit belgilaridan so'ng qo'yiladi. Kuchli hissadan boshlanadigan takt to'liq taktdir. Ba'zi asarlar **to'liqsiz taktdan**, ya'ni **kuchsiz hissadan boshlanuvchi taktoldidan** boshlanadi. Bunday asarlarning oxirgi takti ham to'liqsiz bo'lib, taktoldini to'ldiradi.

*Alla. O'zbek xalq qo'shig'i*

The musical score consists of three staves of music in 2/4 time, treble clef, and a key signature of one sharp. The lyrics are as follows:

Al-la ay - tay, jo-nim  
Al-la ay - tay, jo-nim

bo-lam, qu-loq sol - gin, al - la.  
bo-lam, shi-rin qo' - zim, al - la.

Shi - rin al - lam ting - lab as - ta  
Sen qu - von-chim, if - ti - xo - rim,

ux - lab qol - gin al - la.  
ko' - rar ko' - zim, al - la.

*31-misol.*

## 2-§. Metr turlari. Oddiy metrlar. Oddiy taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi

Metr turlarini takt ichidagi kuchli hissalarning soniga qarab ajratadi. *Bitta kuchli hissaga ega takt oddiy metrning ko'rsatkichidir. Ikkita, uchta va undan ortiq kuchli hissani o'z ichiga olgan takt murakkab metrning o'lchov birligidir.*

Metr turlari uning ikki hissali va uch hissali hamda ularning turlicha qo'shilishlari asosida barpo bo'ladi.

**Oddiy metr (yoki oddiy takt) deb bitta kuchli hissani o'z ichiga olgan, ikki yoki uch hissadan tashkil topgan metrga deyiladi.**

Oddiy metrlar ikki hissali va uch hissali metrlarga ajraladi va quyidagi o'lchovlarda o'z ifodasini topadi:

*ikki hissali o'lchovlar — 2/2, 2/4, kamdan-kam 2/8, 2/16.*

*2/2 o'lchov alla breve deyiladi va o'rniga ₋ belgi qo'llaniladi.*

*uch hissali o'lchovlar — 3/2, 3/4, 3/8, kamdan kam 3/16.*

Nota yozuvini o'qish jarayonini osonlashtirish maqsadida taktdagi mayda (bayroqchali) cho'zimlarni takt hissalariga muvofiqlashtirib, alohida guruhlarga birlashtirish zarur bo'ldi. Oddiy taktda bir xildagi cho'zimlarni bitta guruhga birlashtirish tez-tez uchrab turadigan holatdir (17-, 28-misol.ga qarang).

Shunday qilib, oddiy o'lchovli taktlarda bitta, yoki takt hissali soniga qaraganda, ikkita yoxud uchta cho'zimlar guruhi hosil bo'lishi mumkin.

Pauzalar nota cho'zimlaredek hissalariga bo'ysunib guruhlanadi.

## 3-§. Murakkab metrlar. Murakkab taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi

**Murakkab metr** oddiy metrlarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi.

Murakkab taktdagi kuchli hissalarning soni uni tashkil etuvchi oddiy metrlar sonidan kelib chiqadi. Masalan:  $3/4+3/4=6/4$  — bu demakdir, oltita chorakdan iborat taktda ikki aksentli hissa mavjud. Bilamizki, to'liq takt faqat kuchli hissadan boshlanadi. Shunday ekan, keltirilgan misoldagi aksentli hissalaridan birinchi eng kuchli hissadir. Ikkinchisi unga nisbatan sal kuchsizroq bo'ladi. Shuning uchun u **nisbatan kuchli hissa** deb ataladi.

Murakkab metrlar uch xil bo'ladi: ***bir turdag***, ***aralash*** va ***o'zgara  
ruvchan metrlar***.

**Bir turdag** murakkab metrlar, o'z navbatida, ikki hissali va uch hissali metrlarga ajraladi.

**Murakkab ikki hissali metrlar** oddiy ikki hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan to'rt hissali metr (2 hissa + 2 hissa) ko'p qo'llaniladi — 4/4, 4/2, 4/8. 4/4 o'chovi C belgi bilan ham belgilanishi mumkin (28-misolga qarang).

4/4=2/4+2/4



33-misol.

**Murakkab uch hissali metrlar** oddiy uch hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan olti hissali (3+3) va to'qqiz hissali (3+3+3) metrlar keng tarqalgan: 6/4, 6/8; 9/4, 9/8.

6/4=3/4+3/4.



34-misol.

Murakkab metrda yozilgan misollar musiqa adabiyotida ko'p uchraydi.

**Aralash metrlar** ikki va uch hissali metrlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Ulardan besh hissali metrlar (3+2 yoki 2+3) ko'proq uchrab turadi: 5/4=2/4+3/4, 5/4=3/4+2/4; 5/8



35-misol.

J=96

*O'zbek xalq qo'shig'i "Gajjagim"*



36-misol.

J=84

*O'zbek xalq qo'shig'i "Holayli"*



37-misol.

Yetti hissali metrlar (2+2+3; 2+3+2; 3+2+2) kamdan kam uchraydi:  $7/4=2/4+2/4+3/4$ ,  $7/4=2/4+3/4+2/4$ ,  $7/4=3/4+2/4+2/4$ ;  $7/8=3/8+4/8$ .

$\text{J}=96$

*O'zbek xalq qo'shig'i "Mug'ulcha"*

(A) Xo - ma muj - gok ko'z qa - ro -  
- si - dan yo - zib ro - zu di - lim,

38-misol.

$\text{J}=108$

*O'zbek xalq qo'shig'i "Bilaguzuk"*

Soy bo' - yi - da - (yo) tur - gan yi - git  
39-misol.

**O'zgaruvchan metr** musiqa asari davomida o'zgarib turadigan metrga aytildi. O'zgaruvchan metr tekis va notekis almashinadi. Tekis, ya'ni vaqtı-vaqtı bilan almashinadigan metrning o'lchovlari kalit yonida ketma-ket joylashgan ikkita kasr raqam bilan ifodalanadi.

*Latish xalq qo'shig'i*

*mf*

*f* *mf*

40-misol.

Notekis almashinadigan metrning o'lchovlari har bir o'zgarish yuz berganda takt boshida qo'yiladi.

**Moderato**  $\text{J}=92$

*Toshkent maqomi "Gulyor Shahnoz" III qism "Chavandoz"*

Zeboning - ni ke - tur-gil,e,  
shakarlab to'ti gifto-ra

41-misol.

Murakkab taktda cho‘zimlarning guruhanishida uni tashkil qiladigan oddiy o‘lchovlar alohida guruhcha tarzda bir-biridan ravshan ayrilishi zarur. Oddiy o‘lchovli guruhchalarda, yuqorida aytiganidek, mayda cho‘zimlarni guruhlash qoidalariga rioya qilish lozim.

#### 4-§. Ritm. Sinkopa. Cho‘zimlarning erkin ravishda bo‘linishi

**Ritm<sup>1</sup>** — bu metr asosida uyushtirilgan tovush cho‘zimlarining izchilligi.

«Ritm» so‘zi tartibga solingan, to‘g‘ri uyushtirilgan harakatni bildiradi. Bunday harakatni tashkillashtirish vositasi sifatida metrik aksentlari xizmat qiladi. Demak, metr ritmning asosidir.

Masalan: 27-misolda keltirilgan kuyning ritm, metr va metrik aksentlarining o‘zaro ta’siri quyidagicha sxematik tasvirda ko‘rsatilgan:



42-misol.

Ritmik harakat jarayonida tayanch rolini metrik aksentlardan tashqari **ritmik aksentlar** ham bajo keltirishi mumkin. Ritmik aksentlar takt cho‘zimlari orasida eng katta cho‘zimli tovushda paydo bo‘ladi. Chunki davomli tovushlar og‘ir, aksenti bor, tayanch tovush sifatida his etiladi. Mayda cho‘zimdagi tovushlar esa qisqa, yengil bo‘lib katta cho‘zimli tovushlarga qarab intiladi.

Takt kuchli hissasidagi tovushning cho‘zimi kattaroq bo‘lishi samimiy holatdir. Bu degani, metr (kuchli hissa) va ritm (katta cho‘zim) aksentlari bir-biriga to‘g‘ri keladi.

**Metrik va ritmik aksentlarning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi sinkopani hosil qiladi.**

Sinkopaning yaqqol alomatlari — 1) kuchsiz hissada olingan tovushning yangrashi keyingi kuchli hissada ham davom etilishi; 2) kuchli hissaga pauzaning to‘g‘ri kelishi; 3) kuchsiz hissalarga ataylab aksent berilishi.

Sinkopalar o‘rnashgan joyi bo‘yicha taktaro, takt ichida va hissa ichidagi sinkopalarga ajratiladi.

<sup>1</sup> Ritm (grekcha – ρυθμός) – oqim.

Taktaro sinkopa — bir taktning kuchsiz hissasida yozilgan nota ikkinchi bir taktning kuchli hissasidagi xuddi shunday nota bilan liga yordamida bog'lanadi:

$\text{J}=152$

*O'zbek xalq qo'shig'i "Olma anor"*

Ol - ma a - no ring - ga bal - li.

43-misol.

Takt ichidagi sinkopa — taktning kuchsiz va kuchli hissalarda gi notalar liga bilan bog'lanadi yoki ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan bitta umumiy cho'zimdagi nota bilan yoziladi:

**Andantino**  $\text{J}=69$

1.

*O'zbek xalq qo'shig'i "Do'st menga ishonma"*

Tor qa - fas - da ze - rik - dik

44-misol.

$\text{J}=80-84$

1.

*O'zbek xalq qo'shig'i "Cho'yandi"*

Yor de - dim a - do bo'l - di - m(a)

45-misol.

Hissa ichidagi sinkopa — hissaning kuchli qismi cho'zimi bo'yicha kuchsiz qismidan qisqaroq bo'ladi:

**Andante**  $\text{J}=116$

*O'zbek xalq qo'shig'i "Chamannor"*

Xo'b yi - git - san yo - ring yo'-q(a)

46-misol.

Kechikib qoluvchi sinkopa — taktning kuchli hissasida pauza qo'yiladi

$\text{J}=196$

*O'zbek xalq qo'shig'i "Qari navo"*

47-misol.

Kuchsiz hissalarga ataylab aksent berilishi — asarning janri yoki mazmuniga bog'liq bo'ladi.

*N.Rimskiy-Korsakov.  
"Shahrizoda" III qism*

Pochissimo più mosso

48-misol.

Musiqada **asosiy cho'zimlarining ikkita teng maydaroq cho'zimga bo'linishi cho'zimlarning asosiy bo'linishi** deb aytildi.

**Asosiy cho'zimlarning istalgan (ikkitaga emas) teng qismlarga bo'linishi erkin bo'linishidir.**

Qaysidir asosiy cho'zimning uchta teng maydaroq cho'zimga bo'linishi natijasida triol hosil bo'ladi.

49-misol.

Adagio sostenuto

sempre *pp* a senza sordini

*L.Betxoven. Sonata op.27, №2  
("Oydin sonata")*

50-misol.

To'rtta qismga bo'linadigan cho'zim beshta teng qismga bo'lin-sa — ***kvintol***, oltitaga — ***seksol***, yettitaga — ***septol*** hosil bo'ladi.

51-misol.

Sakkizta qismga bo'linadigan cho'zim to'qqizta teng qismga bo'linsa — ***novemol***, o'ntaga — ***detsimol*** paydo bo'ladi.

52-misol.

Nuqtasi bor cho'zimlar asosan uchta teng maydarоq cho'zimlar-га bo'linadi. Agar nuqtali cho'zim ikkita teng qismga bo'linsa — ***duol***, to'rttaga — ***kvartol*** hosil bo'ladi.

53-misol.

***Bir tekis ritm*** — bir xil cho'zimlardan iborat ritm shakli.

Juda tez

P.Chaykovskiy. "Bolalar albomi"

54-misol.

55-misol.

**Punktirli ritm<sup>1</sup>** — nuqtali cho‘zimlarni o‘z ichiga olgan ritm shakli.

S.Prokofyev.  
"Romeo va Julietta"



**Sinkopali ritm** — sinkopasi mavjud ritmik shakl (48-misolga qarang).

Ritm musiqaning asosiy ifodali vositalaridan biri bo‘lib (kuy va garmoniya bilan baravar), uning jonli sur’atidir. Ritmning ifodaliligi turli xarakterdagi harakatlar bilan bog‘liq. Tantanali yurish, jizzaki raqs, xotirjamlik yoki ehtirosli hayajonli holati ahamiyatli darajada ritm yordamida yaratiladi. Ritm metr bilan birligida har qanday kуuning janr xususiyatlarini aniqlaydi. Shuning uchun valsni polkadan, marshni alla kuyidan ajrata olish qiyin ish emas.

### 5-§. Temp. Metronom

**Temp** — musiqa harakatining tezligidir. Temp bir daqiqada metr hissalarini pulsatsiyasi tezligi bilan o‘lchanadi. Eskicha musiqada (XVII asrgacha) tempni aniqlaydigan maxsus belgilardan foydalanimas edi. O‘scha zamon musiqa amaliyoti uchun odatiy holat bo‘lib qolgan tovushning yangrash uzunligini unga biriktirilgan nota cho‘zimi bildirib turardi. Ijro etish tezligi shu notalar orqali o‘rnatilar edi. XVII asrdan boshlab, cholg‘u musiqa rivojlanishi va uning obrazlar doirasi kengayishi bilan bog‘liq holda tempni so‘zlar orqali belgilash amalga oshgan. Tempga oid atamalar asosan italyan tilida yozilib, asrning boshida ko‘rsatiladi. Ba’zi kompozitorlar (masalan, R.Shuman, K.Debyussi, G.Maler, A.Shyonberg, M.Ravel va boshqalar) asarlarining tempini o‘z ona tilida belgilaydi.

Asosiy templar vazmin (og‘ir), o‘rtacha va tez templarga ajratiladi. Lekin bir-biriga yaqin templar o‘rtasida aniq chegara yo‘q.

Vazmin templar:	O‘rtacha templar:	Tez templar:
<i>Adagio</i> — og‘ir	<i>Andante</i> — osoyishta	<i>Allegro</i> — tez
<i>Grave</i> — juda og‘ir	<i>Moderato</i> — o‘rtacha	<i>Vivo, Vivace</i> — jonliroq
<i>Largo</i> — keng	<i>Sostenuto</i> — salobatli	<i>Veloce</i> — tez, yugurib
<i>Lento</i> — cho‘zib	<i>Allegretto</i> — jonlanib	<i>Presto</i> — juda tez

<sup>1</sup> Punkt (lotinchcha — *punktum*) — nuqta.

*Asosiy temp atamalaridan hosil bo‘lgan atamalar asosiy tempni yoki tezlashtiradi: Prestissimo, Vivacissimo, Andantino — Presto, Vivo, Andante* dan tezroq, yoki susaytiradi: *Allegretto — Allegro* dan sustroq, *Largetto — Largo* dan tezroq.

Asosiy templardan chetlashilganda harakat yo‘nalmasini aniqlovchi ayrim qo‘shimcha atamalardan ham foydalaniladi:

*molto* — juda

*con moto* — harakat bilan

*non troppo* — unchalik tez emas

*assai* — nihoyat

*non tanto* — u qadar sekin emas

*sempre* — doimo

*meno mosso* — kamroq harakat bilan

*piu mosso* — ko‘proq harakat bilan

Musiqqa asarlari ijrosi yanada ta’sirchan va ifodali bo‘lishi uchun umumiy harakatni sekin-asta tezlatish va susaytirish uchun atamlar qo‘llaniladi. Bular nota matnida quyidagi atamalar bilan yoziladi:

**tezlashtirish uchun:**

*accelerando, stringendo* — yanada tezlatib

*animando* — ruhlanib

*stretto* — ixchamlashtirib

**susaytirish uchun:**

*ritenuto* — saqlanibroq

*ritardando* — kechikibroq

*rallentando* — sekinlatib

*allargando* — kengaytirib

Bu atamalar qisqartirilgan tarzda berilishi mumkin: *acc., rit.*, va hokazo.

Gohida ularni yoniga *poco* — bora-bora, yoki *poco a poco* — oz-ozdan.

Dastlabki tempga qaytish *Tempo I* yoki *a tempo, l’istesso tempo* kabi atamalar bilan ko‘rsatiladi.

Ba’zida temp atamasiga ijroning xarakterini aniqlaydigan so‘zlar qo‘shiladi:

*santabile* — kuychan

*con spirito* — ruhlanib

*mesto* — g‘amgin

*dolce* — nafis

Temp atamalari harakat tezligi to‘g‘risida taxminiy tasavvur beradi. Tempni yanada aniqroq bilib olish uchun **metronom** degan asbobdan foydalaniladi. Metronom 1816-yil venalik mexanik Iogann Nepomuk Melsel tomonidan ixtiro qilinib, XIX asr ikkinchi choragida keng qo‘llanila boshladi. Ilk bor asar tempini metronom ko‘rsatkichlari bilan ifodalash odatga L.Betxoven va M.I.Glinka tomonidan yo‘l qo‘yilgan. Ba’zi bir nota matn boshida «M.M.» belgisi yoziladi. Bu asarning tempi «Melsel metronomi» bo‘yicha aniqlanishi maqsadga muvofiq demakdir.

Metronom bu — ko‘chma posangi kiygizilgan mexanik mayatnikdir. Uning vazifasi bir daqiqada talab qilingan zarblarni bir tekis ravishda sanab turishdir. Mayatnikning zarblari metr hissalari pulsatsiyasiga muvofiqdir. Masalan, asar boshida nota yo‘li ustida kabi yozuv berilsa, bu demak mayatnik bir daqiqada 60 ta zarba qiladi  $\text{♩} = 60$ . Uning har bir zarbasi esa bitta choraktalik hissaga teng keladi. Mayatnikning tebranish tezligi ko‘chma posangi yordami bilan to‘g‘rilanib turadi.

Ijrochi tomonidan muallif ko‘rsatgan tempning birmuncha o‘zgartirilishi har bir ijrochining badiiy didiga bog‘liqdir. Odatda tempni birmuncha o‘zgartirish ijroning badiiy tomoniga ta’sir qilmaydi. Chunki ijrochilik mahorati musiqiy obrazni ochib berishga qaratilgan bo‘ladi.

Musiqada tempning ahamiyati g‘oyat katta. U musiqaning ifodali vositalaridan biridir. Har qanday obraz yoki psixologik holat ularning xarakteriga muvofiq tempida to‘liq ochilib gavdalanadi. Masalan, vazmin templarda osoyishtalik yoki qayg‘u, tantanavor yoki ruhan ko‘tarinki holatlar aks etiladi. Tez tempda avvalom turli xil harakatlar, hayajonli holat yoki dramatik to‘qnashuvlar gavdalanadi. O‘rta templar har xil xarakterdagи musiqani yaratishga imkoniyat beradi. Vazmin tempdan keyin o‘rta temp harakatchanlik, tez tempdan so‘ng esa — tinchlanish ko‘rsatilishi siyatida idrok qilinadi. Shunday qilib, *temp kontrastlik yaratishdagi muhim vositadir*.

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Metr, takt, o‘lchov, hissa, aksent, taktoldi, oddiy metr, murakkab metr, aralash metr, o‘zgaruvchan metr, ritm, sinkopa, cho‘zimlarning asosiy va erkin bo‘linishi, triol, kvintol, sekstol, septol, duol, kvartol, bir tekis ritm, punktirli ritm, sinkopali ritm kabi tushunchalarning har birini bat afsil yoritib bering.

2. Oddiy, murakkab, aralash, o'zgaruvchan metrlarga musiqiy adabi-yotdan misol topib, ularni dirijorlik uslubida hisoblab ko'rsating.

3. Chap qo'lda metr pulsini, o'ng qolda bir tekis ritm, punktirli, sinkopali ritm misollarini urib chiqing.

4. Asosiy cho'zimlarni triol, kvintol, sekstol, septollarga hamda nuqtali cho'zimlarni duol, kvartollarga bo'lib, nota bilan yozing.

5. Turli xil ritmnini qo'llab bir necha kuy iboralarini bastalab, notaga tushirib chaling.

### III BOB. LAD. TONALLIK

#### 1-§. Lad. Turg'unlik va noturg'unlik

Musiqiy tovushlarning o'zaro ta'siri va bir-biriga mosligi kuyning ijro etilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, tovushlarning birlashishib tartibga solinishi, bir-biri bilan «chiqisha olishi» muqarrardir. Faqatgina ularning muayyan uyuşhtirilganligi asarining mazmunini, fikrini ifoda qila olishga yo'l qo'yadi. Musiqiy fikrning rivojlanishida tovushlar o'z ahamiyat darajasi bilan ajralib turadi. Kuy yangrashida odam qulog'i ilgari intiladigan, kelgusi harakatga undaydigan, **noturg'unlik** holatini yaratadigan tovushlarni va o'ziga tortib turadigan, harakatni to'xtatadigan, tayanch, **turg'unlik** holatini yuzaga keltiradigan tovushlarni farqlab oladi.

Moderato =84

O'zbek xalq qo'shig'i "Qora sochim"

57-misol.

Misol qilib keltirilgan «Qora sochim» qo'shig'ida *re (d)* tovush tinchlanish, harakatsizlik tuyg'usini yaratadi. Kuyning qolgan tovushlari, aksincha, keyingi harakatni, buning ustiga, *re* tovushi

tomoniga intilgan harakatni talab qiladi. Shuning uchun *re* tovushi boshqa tovushlarni o'ziga tortib turganligi bilan *turg'un tovush* deb ataladi. Unga intiluvchi tovushlar esa *noturg'un tovushlardir*. Noturg'un tovushlarning intiluvchanligi turg'un tovushga, ya'ni asos «rol»ini o'ynayotgan tonga kelib to'xtaydi. Bu asosiy tonga *tonika* deyiladi.

Tovushlarning bunday har xil «rol»lari, albatta, ularning kuy shaklidagi joylashuvi (musiqiy iboraning boshida, yoki o'rtasida, yoki yakunida o'rashishi), metrik holati (kuchli yoki kuchsiz his-saga to'g'ri kelishi) bilan ham chambarchas bog'liq. Biroq, eng muhim — musiqaning zaruriy xususiyati o'rnila, tovushlarning o'zaro munosabatlari katta ahamiyat kasb etadi.

**Tovushlarning tonikaga nisbatan munosabatlari bilan aniqlanadigan o'zaro aloqalari tizimiga *lad*<sup>1</sup> deyiladi.** Laddagi har bir tovushning roli va harakatining xarakteri uning *lad funksiya*<sup>2</sup> sini aniqlaydi. Tovushlarning munosabatlari esa lad munosabatlari yoki funksional munosabatlar deyiladi. Laddagi tovushlarning soni, o'rtalaridagi tonlar miqdori, funksional munosabatlari har xil shaklda ifodalanishi mumkinligi musiqada turli tizimlarning vujudga kelishiga asos bo'ladi (masalan, pentatonika, diatonika, qadim yunoniston ladlari tizimi, geksaxordlar tizimi, major-minor tizimi va boshqalar).

Muayyan lad tizimiga tegishli tovushlar *pog'ona*, pog'onalarning balandlik bo'yicha ketma-ket joylashuvi *ladning tovushqatori* deyiladi. Shu joyda ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun quyidagini eslatish zarurdir: butun musiqiy tovushqatorning pog'onalari faqat nota nomiga ega edi — *do, re, mi* va hokazo. Laddagi pog'onalarga nota nomlaridan tashqari har biri bajaradigan funk-siyasini aytib turuvchi maxsus nom hamda tartib nomeri beriladi. Pog'onalarning nomeri rim raqamlar bilan belgilanib, tovushqatoragi navbat o'rnini ko'rsatib turadi: birinchi pog'ona, tonika — I, ikkinchisi — II, keyingilari — III, IV, V va hokazo.

57- va 39-misollardagi kuylarning tovushqatori bir xil, tovushlar oraliqlari ham o'zgarmagan.

<sup>1</sup> *Lad* (lotincha — *modus*, frans. va ingl. — *mode*) — totuvlik, inoqlik, hamjihatlik, ittifoq; rus tilidagi «lad» so'zining ma'nosi grekcha δογονία so'zi ma'nosiga teng keladi (musiqiy estetik ma'noda garmoniyani bildiradi); qulqqa yoqimli eshitiladigan tovushlarning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvi.

<sup>2</sup> *Funksiya* (lotincha — *functio*) — bajarish, amalga oshirish; munosabatlar tizimidagi birorta narsa (kimsa)ning faoliyati, vazifasi, roli.

Lekin, «Qora sochim»dagi tonika — ***re***, «Mog‘ulcha»ning tonikasi — ***sol***. Birinchi misolda *mi-bemol* tovushi II pog‘ona, ikkinchi misolda u VI pog‘ona roliga ega; VI pog‘onaning *sol* tonikaga tortilishidan ko‘ra II pog‘onaning *re* tonikaga intilishi kuchliroqdir. Chunki, noturg‘un tovushdan turg‘un tovushgacha orasi qancha kam (tor, kichik) bo‘lsa, shunchalik uning tortilish kuchi ham ortib boradi. *Mi-bemol* dan *sol* gacha oraliq 2 ton, *re* gacha esa — 0,5 tonga teng. Demak, ladning ta’rifidan kelib chiqqan holda, tovushqatorning qaysi bir pog‘onasi tonika qilib olinganligiga qarab, noturg‘un tovushlarning roli, vazifasi, harakati, umuman gapirganda funksiyasi hamda o‘zaro munosabatlari o‘zgarar ekan va turli xil lad hosil bo‘ladi, degan fikr yana bir bor ta’kidlanadi.

Lad tovushqatori pog‘onalari orasidagi ton va yarimtonlar miqdori va, ayniqsa, ularning tonika bilan o‘rtasidagi tonlar miqdori kuy-ohangining turli emotsiyaligida tasir qiladi. Ladning u yoki bu emotsiyaligida rangi (yorug‘, osoyishta yoki mayus, qayg‘uli) avvalom tonika bilan III pog‘ona o‘rtasidagi tonlar miqdori bilan aniqlanadi. Shunga muvofiq ladlarning xilma-xilligi ikkita asosiy turga turkumlanadi: **tonikadan III pog‘onagacha 2 ton bo‘lsa majorli ladlar, tonikadan III pog‘onagacha 1,5 ton bo‘lsa minorli ladlar** deb ataladi.

Harfiy belgilash tizimida major «***dur***», minor «***moll***» so‘zlar bilan belgilanadi. Ushbu so‘zlarning tub ma’nosи ***dur*** — qattiq, ***moll*** — yumshoq degani.

Lad tovushqatori turli hajmga ega bo‘lishi mumkin. U oktava-ga teng, yoki undan keng yoxud kichikroq bo‘ladi.

*Oktava va undan keng hajmdagi lad tovushqatorlari* ikkita turga bo‘linadi:


1. **Melodic (mono‘dik) ladlar** — bitta tonikaga ega. Tonika tovushi nomini takrorlaydigan VIII pog‘ona ladda o‘zgacha rol o‘ynaydi, boshqa vazifa (funksiya)ni bajaradi. Bu ladlar ashulali bir ovozlilik rivojlanganda shakllanib chiqdi. Ularning tabia-

*"Qora sochim" tovushqatori*



T

*"Mog‘ulcha" tovushqatori*



58-misol.

<sup>1</sup> Mono – (yunoncha μόνος) –bir, bitta.

ti vokal musiqasi bilan bog'liq va pog'onalarning funksiyalari (tonika bilan munosabatlari) kuyning faqat gorizontal harakatida namoyon bo'ladi (IV bobga qarang).

**2. Oktavali ladlar** — tovushqator va pog'onalar funksiyalari barcha oktavalarda takrorlanadi. Bu ladlar ko'povozlilik rivojlangan paytlarda vujudga keldi. Ularning tabiatini cholg'u musiqasi (ansambl, orkestr musiqasi) bilan bog'liq va pog'onalarning funksiyalari ham gorizontal, ham vertikal holatda namoyon bo'ladi.

Ovozlarning vertikal bo'yicha moslashishini talab qiladigan ko'p ovozlilikning rivojlanishi (60-misolga qarang) asta-sekin yangi lad tizimi shakllanishiga olib keladi. Amaliyotda vertikal bo'yicha hosil bo'lgan ohangdoshliklardan eng xarakterlilari saralab olinib mustahkamlanardi. Bu ohangdoshliklar bora-bora mustaqil lad funksiyalariga ega bo'ladi. Xullas, lad endi nafaqat tovushlar aloqalari tizimi, balki muayyan tarzda uyushtirilgan ohangdoshlik (garmoniya)lar aloqalari tizimi sifatida ham shakllana boshladи. Alohida olingan lad tovushi tonika bilan o'z melodik (gorizontal harakatdagi) munosabatlarini albatta saqlab qolgan. Ammo shu bilan birga, u tarkibiy tovush sifatida ohangdoshlik funksiyasiga ham bo'ysunadi.


*J.Benshua. Fransuzcha qo'shiq. Rondo. XV asr.*

59-misol.

Bunday ladlarda tonika rolini qulqoqa yoqimli eshitiladigan uch tovushdan iborat ohangdoshlik bajaradi. Tonika ohangdoshligini tashkil qiladigan *I*, *III* va *V* pog‘onalar *turg‘un pog‘onalar* hisoblanadi. Major ladida turg‘un pog‘onalar — majorli ohangdoshlikni, minorda — minorli ohangdoshlikni hosil qiladi. Qolgan noturg‘un tovushlar ham, o‘z navbatida, noturg‘un ohangdoshlikka yig‘iladi:

Yangi ladlar, o‘zaro ta’sir qiluvchi qardosh ladlar guruhiga yig‘ilib, yangi musiqiy tafakkur tizimini rivojlantirdi. Uning nomi — ***major-minor ladlari garmonik tizimi***. Ushbu garmonik tizim ohangdoshlikning ichidagi tovushlar munosabatlarini hamda ohangdoshliklarning o‘zaro aloqalarini uyushtirilgan holga keltiradi. Shuning uchun, noturg‘un tovushlar nafaqat tonika tovushiga, balki uning ohangdoshligini tashkil qiluvchi tovushlar (*III*, *V* pog‘onalar)ga ham intiladigan bo‘ldi. ***Noturg‘un tovushning turg‘un tovushga intilishi tovushning tortilishi deb*** aytildi. ***Noturg‘un tovushning intilishi bo‘yicha turg‘un tovushga o‘tishi tovushning yechilishi deb*** aytildi.

Ladning noturg‘un pog‘onalari tortilish tizimiga bo‘ysunib, quyidagicha yechiladi:



*61-misol.*

VII pog‘ona faqat yuqoriga tortilib, I pog‘ona, tonikaga yechiladi.

VI pog‘ona faqat pastga tortilib, V pog‘onaga yechiladi.

II va IV pog‘onalar ikki tomonga qo‘shti turg‘un tovushlariga yechilishi mumkin. Biroq II pog‘onaning tonikaga yechilishi, IV pog‘onaning III pog‘onaga yechilishi tabiiyroqdir. Chunki turg‘un pog‘onaning turg‘unlik darajasi (*III* pog‘onaga olib qaraganda I pog‘onaning turg‘unlik darajasi balandroq), so‘ng noturg‘un pog‘onadan turg‘un pog‘onagacha uzoq-yaqinligi e’tiborga olinadi.

## 2-§. Oktavali lad pog'onalaring maxsus nomi. Major va minor turlari. Tetraxordlar

Oktavali major va minor ladlarning tovushqatori va pog'onalaring funksiyalari barcha oktavalarda o'zgarmas ekan, demak, tovushqatorning VIII pog'onasini ham tonika deb bilish lozim. Yuqorida aytilganidek, lad tovushqatorining pog'onalari tartib nomeridan tashqari maxsus nomga ham egadir:

- I      pog'ona — ***tonika ( T; t )***
- II     pog'ona — ***pasayuvchi yetakchi tovush***
- III    pog'ona — ***yuqorigi medianta<sup>1</sup>***
- IV    pog'ona — ***subdominanta<sup>2</sup> ( S; s )***
- V    pog'ona — ***dominanta<sup>3</sup> ( D )***
- VI    pog'ona — ***pastki medianta***
- VII   pog'ona — ***ko'tariluvchi yetakchi tovush***

Lad tovushlari funksiyalarini yaqqol namoyon qiladigan jihat — tovushlarning sekundali va akustik qardoshlikka asoslangan kvarta-kvintali aloqalaridir (IX—X asrlarda ko'p ovozlilikning ilk namunalari — *parallel organumda* bosh ovozidagi kuyining harakati qo'shimcha ikkinchi ovoz bilan kvarta yoki kvinta oralig'ida takrorlanar edi. Bunday holdagi parallel takrorlar akustika qonuniyatlariga asoslangan).

*qo'shimcha ovoz*

*bosh ovoz*

*62-misol.*

Lad funksiyalarini aniqlashda tovushlarning Tonikaga nisbatan kvarta-kvintali aloqalari eng muhim deb hisoblanadi. Bunday aloqalar faqat Tonika bilan Subdominanta va Tonika bilan Dominanta o'rtaasida hosil bo'ladi.

*63-misol.*

<sup>1</sup> *Medianta* (lotincha — *medians*) — o'rtada turadigan.


<sup>2</sup> *Subdominanta* (lotincha *sub* — ostida va *dominanta*) — pastki dominanta.

<sup>3</sup> *Dominanta* ( lotincha — *dominans* ) — hukmronlik (ustunlik) qiluvchi.

Shuning uchun T, S va D ladning asosiy (bosh) pog‘onalari deb hisoblanadi.

Mediantalar — III pog‘ona tonika va dominanta o‘rtasida, VI pog‘ona tonika va subdominanta o‘rtasida joylashgan pog‘onalar.

Yetakchi pog‘onalar — VII pog‘ona yuqoriga qarab, II pog‘ona pastga qarab tonikaga intiladigan pog‘onalar.




Major va minor ladlarning tarixiy rivojlanishi ularning doimiy o‘zaro ta’sirida, bir-biriga yaqinlashish harakatida o‘tgan. Natijada, musiqa amaliyotida asta-sekin ladlarning uch xili shakllanib chiqdi. Bular *tabiiy, garmonik va melodik turlaridir*. (Bundan bu-yon ladlarga tabiiy major, garmonik major, melodik major, tabiiy minor, garmonik minor, melodik minor deb aytildi.) Ushbu turlarning bir-biridan farqi pog‘onalar orasidagi masofalar bilan bog‘liq.

**Tabiiy major va minor** tovushqatorlarining pog‘onalari *diatonik*<sup>1</sup> yarim ton yoki bir tonlik masofa bo‘yicha joylashadi va, albat-ta, ladlar ton va yarim tonlar ketma-ketliklari bilan farqlanadi. **Ladning tonikasidan keyingi tonikasigacha tovushqator bo‘yicha harakatga gamma** deyiladi. Gamma oktava hajmida bo‘lib, 8 ta pog‘onadan iborat.

**Tabiiy major gammasi** quyidagi struktura (tuzilish) bo‘yicha tuziladi:

**1ton — 1ton — 0,5ton — 1ton — 1ton — 1ton — 0,5ton**



Major gammasi ikkita bir xil tuzilgan — 1ton — 1ton — 0,5ton, — demak yangrashi bo‘yicha ham bir xil tetraxord<sup>2</sup>dan iborat.

<sup>1</sup> Diatonik yarim ton va bir ton – ikkita qo‘sni pog‘ona orasida hosil bo‘lgan yarim ton yoki bir ton.

<sup>2</sup> Tetraxord (grekcha τετρά –to‘rt, χοοδή – tor).

**Tetraxord** — kvarta hajmidagi 4 ta pog‘onali tovushqatordir. Pastki tetraxord I pog‘onadan, yuqoridagi tetraxord V pog‘onadan boshlab tuziladi. Tetraxordlar orasidagi masofa 1 tonga teng bo‘ladi.

**Tabiiy minor gammasing** strukturasi (tuzilishi) quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

**1ton — 0,5ton — 1ton — 1ton — 0,5ton — 1ton — 1ton.**

*tabiiy minorning tuzilishi*

I    II    0.5    III    IV    V    0.5    VI    VII    I

66-misol.

Minorning tetraxordlari har xil tuziladi:  
pastki tetraxord — **1ton — 0,5ton — 1ton**,  
yuqoridagi tetraxord — **0,5ton — 1ton — 1ton**.

Major va minorning garmonik bilan melodik turlari tabiiy turdagi ayrim noturg‘un pog‘onalar *xromatik<sup>1</sup> yarim tonga* o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, *sol* tovush xromatik yarim tonga ko‘tarilib, *sol-diez* tovushga aylanadi; *lya* tovush xromatik yarim tonga pasayib, *lya-bemolga* aylanadi. Alteratsiyalangan pog‘onalar ladning asosiy pog‘onalar o‘rniga variant sifatida ishlataladi. Amмо ular bajaradigan lad funksiyasini hech ham o‘zgartirmaydi. Faqatgina mazkur pog‘onalarning tortilish darajasi kuchayadi, xolos. Shuning uchun major va minorning garmonik bilan melodik turlari ham diatonik ladlar deb hisoblanadi.

**Garmonik majorda VI pog‘ona yarim tonga pasayadi.** Uning yaqqol belgisi — xromatik yarim tonga pasaygan VI pog‘onadan VII pog‘onagacha hosil bo‘lgan oraliqning 1,5 tonga teng kelishidir.

Uning yuqorigi tetraxordi — **0,5ton — 1,5ton — 0,5ton** lar izchilligida ifodalanadi:

*garmonik majorning tuzilishi*

I    II    III    0.5    IV    1    V    0.5    VI    1.5    VII    0.5    I

67-misol.

<sup>1</sup> Xromatik yarim ton yoki bir ton (grekcha χοώμα) – rang, bo‘yoq. Xromatik yarim ton birorta asosiy pog‘ona va uning yarim tonga o‘zgargan ko‘rinishi orasida hosil bo‘ladi.

**Garmonik minorda VII pog'ona yarim tonga ko'tariladi.** Uning yaqqol belgisi — VI pog'onadan xromatik yarim tonga ko'tarilgan VII pog'onagacha hosil bo'lган oraliqning 1,5 tonga teng kelishidir.

Uning yuqorigi tetraxordi **0,5ton — 1,5ton — 0,5ton** lar izchil-ligida ifodalananadi:

*garmonik minorning tuzilishi*

I    II    0.5    III    1    IV    1    V    0.5    VI    1.5    VII    0.5    I

68-misol.

Shunday qilib, garmonik major va garmonik minorda yuqorigi tetraxordlarning tuzilishi va ohangi bir xildir.

Major bilan minorning garmonik gammalari yuqoriga ham, pastga ham bir xil tuziladi.

*Melodik major gammasingin faqat pasayuvchi harakatida VII va VI pog'onalar yarim tonga pasayadi.* Gammaning ko'tariluvchi harakati esa tabiiy major gammaning o'zidir.

*melodik majorning tuzilishi*

I    II    1    III    0.5    IV    1    V    1    VI    1    VII    0.5    I    VII    1    VI    0.5    V    1    IV    1    III    1    II    1    I

69-misol.

Uning yuqoridagi tetraxordining *pastga tomon* tuzilishi — **1ton — 1ton — 0,5ton** — tabiiy minorning yuqorigi tetraxordi tuzili-shiga o'xshaydi.

*Melodik minor gammasingin faqat ko'tariluvchi harakatida VI va VII pog'onalar yarim tonga ko'tariladi.* Gammaning pasayuv-chi harakati esa tabiiy minor gammaning o'zidir.

Uning yuqoridagi tetraxodining **yuqoriga tomon** tuzilishi — **1ton — 1ton — 0,5ton** — tabiiy majorning yuqorigi tetraxordi tuzilishi bilan bir xil bo'ladi.

*melodik minorning tuzilishi*

I    II    0.5    III    1    IV    1    V    1    VI    1    VII    0.5    I    VII    1    VI    0.5    V    1    IV    1    III    1    II    1    I

70-misol.

Misollardan ko‘rinadiki, melodik major va melodik minorda yuqorigi tetraxordlarning tuzilishi va ohangi bir xil bo‘ladi.

*J.Bize. "Karmen"*

**Andante molto moderato**

***pp***

Уж ес - ли раз от - вет зло - ве - ший кар - ты  
да - ли, на - прас - но их ме - шать, и то, что нам о -  
ни вга - да - ны по - ка - за - ли, вновьста - нут пов - то - рять!

71-misol.

### 3-§. Tonallik. Kvinta davrasи

Lad tushunchasi turg‘un va noturg‘un tovush-pog‘onalar o‘rtasidagi munosabatlar, tovushqatorning tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotni ochib beradi, xolos. Ladning o‘zi real tovushlarda, muayyan balandlikda gavdalanadi. Lad tonikasi 12 pog‘onali musiqiy tizimning birorta tovushida joylashsa, o‘sha tovush ***ladning balandligini***, ya’ni ***tonalligini*** aniqlaydi. Musiqiy tizimning har bir tovushidan bitta major va bitta minor lad tuzish mumkin, shunda tonalliklarning soni kamida 24 ta bo‘ladi (I.S.Baxning «Yaxshi temperatsiyalangan klaviri»ni eslang). Bunga qo’shilib, tovushlar engarmonizmi tamoyili ham tatbiq etilsa, tonalliklar soni yana-da ortib boradi.

Demak, musiqa asari qaysi tonallikda yozilganligini bilish uchun, lad turini va tonikasining tovushini aniqlash lozim. Masa-lan lad majorli bo‘lsa, tonikasi — lya-bemol tovushga joylashgan bo‘lsa — izlangan tonallik ***lya-bemol major (As-dur)*** bo‘ladi; lad — minor, tonikasi — mi, izlangan tonallik — ***mi-minor (e-moll)***. Harfiy belgilash tizimi bo‘yicha major tonalliklari katta harf bilan, minor tonalliklari kichik harf bilan yoziladi.

Temperatsiyalangan musiqiy tovushqatorning har bir asosiy pog‘onasidan ***major ladi strukturasiga (1ton – ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 1ton – 0,5ton)*** mos bo‘lib tuzilgan tovushqatorlar orasida faqat ***Do-major (C-dur)*** tonalligi asosiy pog‘onalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Qolgan tonalliklar hosila pog‘onalarsiz to‘g‘ri tuzil-

maydi. *Re-majorda* 2 ta hosila pog‘ona mavjud — *fa-diez*, *do-diez*, *Mi-majorda* 4 ta diez — *fa*, *do*, *sol*, *re*, *Fa-majorda* — 1 ta bemol — *si*, *Sol-majorda* — 1 ta diez, *Lya-majorda* — 3 ta diez, *Si-majorda* — 5 ta diez.

<u>Asosiy pog‘onalar</u>	c	d	e	f	g	a	h
Tonalliklar	C-dur	D-dur	E-dur	F-dur	G-dur	A-dur	H-dur
Kalit belgilari	0	2 #	4 #	♭ 1	1 #	3 #	5 #

Hosila pog‘onalarga tegishli alteratsiya belgilari asarning har bir nota yo‘lida kalitdan so‘ng yoziladi. Ularga *kalit belgilari* deyiladi.

Kalit belgilari 7 tadan ortiq yozilmaydi. Chunki asosiy pog‘onalarning soni ham yettita. Kalit yonida hamisha bir turdag‘i belgilar — yoki faqat diezlar, yoki faqat bemollar yoziladi. Bu alo-mati bo‘yicha tonalliklar diezli va bemolli tonalliklarga ajraladi.

Kalit belgilarini har doim qat‘iy o‘rnatilgan tartibda yozish lozim.

*Diezlar qatori* — **fa, do, sol, re, lya, mi, si** (bemollar qatorining teskarisi).

*Bemollar qatori* — **si, mi, lya, re, sol, do, fa** (diezlar qatorining teskarisi).



73-misol.

Masalan, to‘rt diezli tonallikning kalit belgilari — *fa-diez*, *do-diez*, *sol-diez*, *re-diez*; ikki diezli tonallikning belgilari — *fa-diez*, *do-diez*; uch bemolli tonallikning belgilari — *si-bemol*, *mi-bemol*, *lya-bemol*; bir bemolli tonallik belgisi — *si-bemol*.

Ladlarning garmonik va melodik turlarida yoki boshqa bir sabab bilan ro‘y beradigan o‘zgarishlar *tasodifiy alteratsiya belgilari* yordamida ko‘rsatiladi. Bu xildagi belgilar o‘zgaradigan pog‘onaning notasi yoniga, ya’ni undan oldinroq (chap tomonidan) yozilishi lozim. Aytgancha, kalit belgilari diezlar bo‘lsa, tasodifiy belgilar bemol, bekar ham bo‘lishi mumkin va aksincha.

*Minor ladi strukturası (1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton – 0,5ton – 1ton – 1ton)* asosiy pog'onalardan tuzilishi natijasida quyidagi tonalliklar va kalit belgilari hosil bo'ladi:

Asosiy pog'onalar	c	d	e	f	g	a	h
Tonalliklar	c-moll	d-moll	e-moll	f-moll	g-moll	a-moll	h-moll
Kalit belgilari	3 b	1 b	1 #	4 b	2 b	0	2 #

Major va minor tonalliklar belgilari ko'payishi bo'yicha (*do-major* dan o'ng tomonga diezli tonalliklar, chap tomonga bemolli tonalliklar) tartibga solinsa, tonalliklarning kvinta bo'yicha joylashishi tamoyili namoyon bo'ladi: *fa* dan *do* gacha masofa kvinta (5 ta pog'ona q 3,5 ton) ga teng, *do* dan *sol* gacha — kvinta, *sol* dan *re* gacha — kvinta va hokazo.

Asosiy pog'onalar	f	c	g	d	a	e	h
Major tonalliklar	F-dur	C-dur	G-dur	D-dur	A-dur	E-dur	H-dur
Kalit belgilari	1 b	0	1 #	2 #	3 #	4 #	5 #

Asosiy pog'onalar	f	c	g	d	a	e	h
Minor tonalliklar	f-moll	c-moll	g-moll	d-moll	a-moll	e-moll	h-moll
Kalit belgilari	4 b	3 b	2 b	1 b	0	#	2 #


E'tibor bering (!), tonalliklar ketma-ketligi va kalit belgilari tartibi bir xil.

Kvinta bo'yicha joylashgan tonalliklar qatori yettita kalit belgigacha davom ettirilsa, musiqa amaliyotida qo'llaniladigan barcha tonalliklarning «kvinta qatori» hosil qilinadi.

<i>dur</i>	<i>Ces</i>	<i>Ges</i>	<i>Des</i>	<i>As</i>	<i>Es</i>	<i>B</i>	<i>F</i>	<i>C</i>	<i>G</i>	<i>D</i>	<i>A</i>	<i>E</i>	<i>H</i>	<i>Fis</i>	<i>Cis</i>
Kalit belgi-lari	7 b ★	6 b ★	5 b ★	4 b	3 b	2 b	1 b	0	1 #	2 #	3	4 #	5 #	6 #	7 #
<i>moll</i>	<i>as</i>	<i>es</i>	<i>b</i>	<i>f</i>	<i>c</i>	<i>g</i>	<i>d</i>	<i>a</i>	<i>e</i>	<i>h</i>	<i>fis</i>	<i>cis</i>	<i>gis</i>	<i>dis</i>	<i>ais</i>


b ←

**Tonalliklarning kvinta bo'yicha joylashuvi** davra shaklida ham tasvirlanadi. Bunga «*kvinta davrasи*» deb nom berildi



77-misol.

Kvinta davrasidagi qo'shni tonalliklar eng yaqin qardosh tonalliklar deb hisoblanadi. Negaki, ular 6 ta umumiy tovushga ega.



78-misol.


Har bir diezli major tonalligida oxirgi kalit belgisi tovushqatorining VII pog'onasiga muvofiqdir (79-misolga qarang). Diezli minor tonalligida oxirgi kalit belgisi tovushqatorining II pog'onasiga to'g'ri keladi (80-misolga qarang).

Har bir bemolli major tonalligida oxirgi kalit belgisi tovushqatorining IV pog'ona (S)siga muvofiqdir (81-misolga qarang). Bemolli minor tonalligida oxirgi kalit belgisi tovushqatorining VI pog'onasiga to'g'ri keladi (82-misolga qarang).


Diezli major tonalliklari


*turg'un  
pog'onalar*      *noturg'un  
pog'onalar*

*G-dur* 


*D-dur* 

*A-dur* 

*E-dur* 

*H-dur* 

*Fis-dur* 

*Cis-dur* 

79-misol.

Diezli minor tonalliklar

II

*turg'un  
pog'onalar*      *noturg'un  
pog'onalar*


*e-moll*      *h-moll*      *fis-moll*      *cis-moll*      *gis-moll*      *dis-moll*


*80-misol.*


Bemolli major tonalliklari


*IV*


*turg'un  
pog'onalar*      *noturg'un  
pog'onalar*

*F-dur*      

*B-dur*      

*Es-dur*      

*As-dur*      

*Des-dur*      

*Ges-dur*      

*Ces-dur*      

*81-misol.*

## Bemolli minor tonalliklar

*VI                      turg'un  
                          pog'onalar                      noturg'un  
                          pog'onalar*

*d-moll*                      *g-moll*                      *c-moll*                      *f-moll*                      *b-moll*                      *es-moll*                      *as-moll*

*82-misol.*

#### 4-§. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar

Kvinta qatori jadvalidan shunisi ko'rindiki, muayyan kalit belgilar soniga bitta major va bitta minor tonalliklar muvofiq keladi. Masalan, *Fa-major* tonallikka *re-minor* tonallik, *Re-major* *si-minor* muvofiqdir. Kalit belgilari bir xil bo'lgan tonalliklarning tovushqatorlari ham bir xil bo'ladi. Lekin ularning tonika tovushlari boshqa-boshqa pog'onalarga joylashgan. Majorning tonikasi minorning III pog'onasiga, minorning tonikasi majorning VI pog'onasiga to'g'ri keladi. Binobarin, tonikalarning orasi uchta pog'ona va 1,5 tonga baravar. Shunday qilib, bunday tonalliklarning tovushqatorlari bir-biriga nisbatan xuddi parallel tarzda joylashgan bo'ladi.

83-misol.

**Parallel tonalliklar** deb bitta tovushqator va bir xil kalit belgilariga ega major va minor tonalliklarga aytildi.

**Nomdosh tonalliklar** deb umumiy tonika tovushiga ega bo'lgan major va minor tonalliklarga aytildi.

84-misol.

Nomdosh tonalliklar bir-biridan uchta kalit belgiga farq qiladi: major belgilarini bilish uchun minor tonallikdan diezlar ko'payishi tomoniga (o'ngga) uchta belgi (katak) sanaladi, yoki minor belgilarini topish uchun major tonallikdan bemollar ko'payishi tomoniga (chapga) uchta belgi (katak) sanab o'tiladi (73-misolga qarang). Masalan, *Do-majorda* — 0 belgi, undan chap tomoniga

uchta katak sanab o‘tilgandan so‘ng, **do-minor** 3 ta bemoli bilan kelib chiqadi:

*Re-majorda* — 2 ta diez, *re-minorda* — 1 ta bemol;

*Fa-majorda* — 1 ta bemol, *fa-minor* — 4 ta bemol.

**Engarmonik teng tonalliklar** deb balandligi bir xil, ammo yozilishi va nomlanishi turlicha bo‘lgan bitta ladga tegishli tonalliklarga aytildi.

Tonalliklarning engarmonik tengligida diezli tonallik bemolli tonallikka almashinadi va aksinchaligiga, bemolli tonallik diezli tonallikka aylanadi. Engarmonik teng tonalliklarning kalit belgilari hammasi bo‘lib 12 ta belgiga baravar bo‘ladi:

$$6 \flat + 6 \sharp = 12 \text{ta belgi}, 5 \sharp + 7 \flat = 12 \text{ta belgi}.$$

Musiqada tatbiq etilgan engarmonik teng tonalliklardan 6 ta major va 6 ta minor tonalliklardir (76-misolda ular bunday  belgi bilan ko‘rsatilgan):

H-dur = Ces-dur; Fis-dur = Ges-dur; Cis-dur = Des-dur  
gis-moll = as-moll; dis-moll = es-moll; ais-moll = b-moll.

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Turg‘unlik va noturg‘unlik holati, lad, ladning tovushqatori, lad funksiyasi, major va minor ladi, turg‘un va noturg‘un pog‘onalar, tovushning tortilishi va yechilishi, major va minorning tabiiy, garmonik va melodik turlari, gamma, tetraxord, tonallik, kalit belgilari qatori, «kvinta davrasi», parallel tonalliklar, nomdosh tonalliklar, engarmonik teng tonalliklar kabi tushunchalarga ta’rif bering.

2. Har xil tovushlardan tabiiy, garmonik va melodik major va minor gammalarini, turg‘un va noturg‘un pog‘onalarini ajratib, tortilishlarini ko‘rsatib yozing, so‘ng ularni butunligicha va tetraxordlar bo‘yicha chalib chiqing.

3. Majorning garmonik va melodik turlari farqi nimada?

4. Minorning garmonik va melodik turlari farqi nimada?

5. 4-5 ta ohangdor ibora bastalab, ularni tabiiy, garmonik va melodik major va minor ladlarda chaling.

6. O‘qituvchi tomonidan taklif etilgan kuy iborasiga majorning hamma turlarida davomini qo‘sib yozing.

7. Tanish kuylarni har xil tonalliklarda chaling.

## IV BOB. XALQ MUSIQASINING LADLARI

### 1-§. Melodik ladlar

Melodik (monodik) ladlar lad munosabatlarning tarixan ilk shakllaridan biridir. Ular bir ovozli xalq kuy-taronalari va ilk kasb musiqaning assosi sifatida paydo bo‘lib, xalq musiqasi polifoniysi, qat’iy yozuv polifoniysi kabi ko‘p ovozlikda ham o‘z mohiyati ni saqlab qolgach, ulkan tarixiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Zamona viy musiqaning talay asarlari ham monodik ladlar turli shakllari bilan xarakterlanadi.

Melodik ladlarning o‘ziga xosligi quyidagi alomatlarida namoyon bo‘ladi. Ladning har bir toni (pog‘onasi) boshqa tonlar tomonidan takrorlanmaydigan muayyan funksiyasiga ega. Boshqa okta-vada qaytariladigan muayyan bir ton o‘zgacha funksiyani bajaradi. Shunday qilib, lad tovushqatorini tashkil etadigan tonlar soni turlicha bo‘lishi mumkin. Tovushqatorning tuzilishi (pog‘onalar orasidagi miqdori) ham ko‘p xillidir: bitta tovushqator, uni ichida tonikaning joylashuviga ko‘ra, turli xil ladlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi aniq. Shu sababdan, monodik ladlarning ko‘p turligi va o‘zgaruvchanligi kelib chiqadi. Lekin ularni umuman olganda, *tovushqatori turi va funksional munosabatlari* xarakteri bo‘yicha tasniflash mumkin.

Melodik ladlarni tovushqatori bo‘yicha ajratish uchun uning *tuzilishi*, *major yoki minorga tegishligi*, *hajmiga* ahamiyat berish zarur.

Tovushqatorning tuzilishi ikki xilga ajraladi: yarim tonliklardan xoli bo‘lgan — *angemitonli*<sup>1</sup> va yarim tonliklarni o‘z ichiga olgan — *gemitonli* tovushqatorlar.

Ladning turi (yuqorida aytib o‘tilgan) tonika bilan III pog‘onaning oralig‘idagi tonlar miqdoriga bog‘liq. Shu asosida ladlar majorli va minorli ladlarga ajraladi.

Tovushqatorning hajmi deb uning chekka tovushlari o‘rtasidagi oraliqqa aytildi. Masalan, 26-misoldagi qo‘shiq («Chumoli»)ning tovushqatori *mi* dan *do* gacha bo‘lib, seksta (6 ta pog‘onaning lotinchcha nomi) hajmiga ega. Bundan tashqari, tovushqator tarkibi ga kirgan pog‘onalar soni ham ko‘rsatiladi. Masalan, oktava hajmida tovushqator beshta, oltita, to‘rtta pog‘onadan iborat bo‘lishi mumkin.

<sup>1</sup> *Angemitonli* – grekcha *an* – -siz, *hemi* – yarim, *tonos* – ton.

Melodik ladlarda funksional munosabatlari turg'un va noturg'un tonlar o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Modomiki, bu ladlar o'zgaruvchan ekan, tovushqator har qanday tonida tonikaning o'rnashishiga yo'l qo'yadi. O'sha ton tonika sifatida idrok qilinishi uchun, u rimt, intonatsiya jihatidan ta'kidlanishi hamda musiqiy tuzilmaning yakuniga to'g'ri kelishi kerak (23-, 57-mi sollarga qarang).

Melodik ladlarda noturg'un tovushlar o'z funksional ahamiyati bo'yicha teng emasdir. Ular orasida shunday faol tonlar borki, o'zi tonika tomonga qarab intilishi bilan birga o'z atrofida kuy hara-katini yig'ishga qodir bo'ladi. Bunday noturg'un tonlarga *yondosh tayanch ton* deb aytildi. Asarlarning aksariyatida yondosh tayanch toni sifatida ladning V pog'onasi (Dominanta) xizmat qiladi. Masalan, «So'ramaysan» qo'shig'da yondosh tayanch toni *lya* tovushga to'g'ri keladi.

*O'zbek xalq qo'shig'i "So'ramaysan"*

**Moderato**  $\text{♩} = 78$

Ne-chuk be - rah - ma zo - lim - san

gi- rif - to - ring ni so'r - may - san.

85-misol.

Agar kuyda hech qaysi ton na metr jihatidan, na qaytarish yo'li bilan ajratilmasa, demak yondosh tayanch tonlar hosil bo'lmaydi.


Shunday qilib, monodik ladlar funksional munosabatlari nuqtayi nazaridan yondosh tayanch toni mavjud lad va yondosh tayanchisiz ladlarga ajratiladi.

Melodik ladlarning muhim xususiyatlaridan biri — tonikaning bir tondan boshqa bir tonga osongina siljib o'tishi layoqati. Tonikaning tondan tonga siljishi qolgan barcha tonlarning funksional ahamiyatini ham o'zgartiradi. Kuy davomida tonikaning bunday siljishlari bir necha marta ro'y berishi mumkin. Kuy o'z yakuniga kelganda yangi tonika bilan, yoki dastlabki tonikaga qaytishi bilan tugallanadi (ikkinchisiga tonikaning vaqtincha siljishi deyiladi). Agar tonikaning siljishlari tez-tez va qisqa muddatli bo'lsa, bunday ladlarga o'zgaruvchan ladlar deyiladi.

## 2-§. Tabiiy ladlar. Pentatonika. Ikkilanma garmonik major va minor

Turli melodik ladlar orasida barqaror strukturaga ega bo'lgan va musiqa amaliyotida keng tarqalgan *diatonika* va *pentatonika* lad tizimlari ajralib turadi.

**Diatonika** — sof kvinta (3,5 ton) bo'yicha joylashishi mumkin yetti pog'onali tizimdir.




86-misol.

Unga asoslangan ladlar guruhi diatonik yoki tabiiy ladlar tizimi deb aytildi. Bular — grekcha nomlarini saqlab kelgan *ioniy*, *doriy*, *frigiy*, *lidiy*, *miksolidiy*, *eoliy* va *lokriy* ladlardir. Ushbu ladlarning hammasi diatonik ladlarga qo'yilgan talablarga javob beradi:

- oktavalik tamoyili, ya'ni pog'ona o'z funksiyasini barcha oktavalarda saqlashi;
- oktava hajmida yettita turli pog'onanining mavjud bo'lishi;
- balandlik bo'yicha qo'shni pog'onalar oralig'i butun ton yoki yarim tonga baravar bo'lishi. Lad 5 ta butun ton va 2 ta yarim tondan iborat bo'lishi;
- yarim tonliklarning o'rtasidagi oraliq kvartadan kam yoki kvintadan keng bo'lmasligi.

Tabiiy ladlar umumiy bitta tovushqator asosida tuziladi. Amмо har bir lad unga qat'iy biriktirilgan tovushqator strukturasiiga ega.



87-misol.

Ioniy lad strukturasi  
Doriy lad strukturasi

— 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1 — 1 — 0,5.  
— 1 — 0,5 — 1 — 1 — 1 — 0,5 — 1

Frigiy lad strukturasi	<b>— 0,5 — 1 — 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1</b>
Lidiy lad strukturasi	<b>— 1 — 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1 — 0,5</b>
Miksolidiy lad strukturasi	<b>— 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1 — 0,5 — 1</b>
Eoliy lad strukturasi	<b>— 1 — 0,5 — 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1</b>
Lokritiy lad strukturasi	<b>— 0,5 — 1 — 1 — 0,5 — 1 — 1 — 1</b>

Ioniq ladning strukturasi tabiiy major strukturasiga, eoliy lad esa tabiiy minor strukturasiga o'xshaydi. Lekin muhim narsa shundaki, ushbu ladlar pog'onalarining o'zaro aloqalari va tonikaga nisbatan munosabatlari turlichay tuzilgan.

Tabiiy ladlar gammasi ohangi bo'yicha majorli (I pog'onadan III sigacha orasi 2 ton) va minorli (I-III orasi 1,5 ton) ladlarga ajraladi. Majorli ladlar – ioniy, lidiy, miksolidiy Minorli ladlar – zoliy, doriy, frigiy, lokriy.

The diagram illustrates the seven modes of the diatonic system on a single staff. The modes are arranged vertically from top to bottom: ioniy, eoliy, lidiy kvarta (with Roman numeral IV below it), doriy seksta (with Roman numeral VI below it), frigiy sekunda (with Roman numeral II below it), miksolidiy septima (with Roman numeral VII below it), and lokriy kvinta (with Roman numeral V below it). Each mode is represented by a different pattern of note heads and rests, corresponding to its specific pitch and rhythm characteristics.

88-misol.

Majorli tabiiy ladlar bir xil tonikadan tuzilganda bir-biridan bittagina o'zgargan pog'onasi bilan farqlanadi: *lidiy lad ioniy lad dan ko'tarilgan IV pog'onasi bilan, miksolidiy lad esa pasaytirilgan II va VII pog'onalarini bilan farq qiladi*.

Minorli tabiiy ladlar ham xuddi shunday alomatga bo'ysunadi: *doriy lad eoliy laddan ko'tarilgan VI pog'onasi bilan, frigiy lad – pasaygan II pog'onasi bilan, lokriy lad pasaygan V pog'onasi bilan farqlanadi*.

*Ukraina xalq qo'shig'i "Vesnyanka"*



The musical score consists of two staves. The first staff starts with a treble clef, a key signature of one sharp (G major), and a 3/4 time signature. The lyrics are: Ой, вес - на, вес - на, вес - ни - ця, що то - бі, діа - ко, при - сни - ця, ща то - бі, діа - ко, при - сни - ця!. The second staff continues the melody. The text "(lidiy lad)" is written at the end of the score.

89-misol.

*Vokal pyesa "Kaimqulbegi"*

$\text{♩} = 120$

(E) men se - ni xo'b bi - - la-man,  
ko'ng - ling men - ga mo - yil e - mas  
*(miksolidiy lad)*

90-misol.

*O'zbek xalq qo'shig'i "Astagina"*

Jo - non - ga bor - dim shul ke - cha, bir - bir bo - sib as -  
ta - gi - na, Jo - non yo - tur noz uy - qi - da. Sol -  
dim qo' - lim as - ta - gi-na, Sol - dim qo' - lim as - ta - gi-na.  
*(lokriy lad)*

91-misol.

*O'zbek xalq qo'shig'i "Gul uzay"*

$\text{♩} = 120-132$

Gul u - zay o'y - moq, o'y - moq,  
Yosh - lik dav - ri - miz qay - moq,  
Qan-day shi - rin shod - lik bu shod - lik bu - (ya)],  
Mum - kin e - mas - dir to'y - moq.  
*(frigiy lad)*

92-misol.

**J=98**

*T.Sodikov. R.Glier. "Gulsara"*



Hush' ke-lib - siz meh - mo - nim, Ta-nam - da tot - li jo - nim.

Gul - day ku - lib o - chil - gan, Me - ning a - ziz o'r - to - g'im.

Ay - la - na-man, Fay - zi - xon, O'r - gu - la-man, Fay - zi - xon,

Sar - vi - si - mon bo' - ying - dan O'r - gu - la - man, Fay - zi - xon.

(doriy lad)

93-misol.

Pentatonika musiqa tarixida ilk lad tizimlaridan biri bo'lib, dunyo bo'yicha keng tarqalgan. Pentatonika jahoning turli-tuman xalqlar musiqasi zamini sifatida hozirgacha xizmat qilib kelmoqda. Xitoy, Vietnam, Shotlandiya, Rossiyaning Povolje, Tatariston, Bashqoriston, shimoliy Amerika va Afrika kuylari pentatonika ladlariga asoslangan. Bundan tashqari bu kompozitorlik ijodida ham ahamiyatli o'rinda turadi.

**Pentatonika** — pog'onaları kvinta bo'yicha joylashishi mumkin besh pog'onalı tizimdir.



94-misol.

Uning ladrari quyidagi talablarga javob beradi:

- oktavalik tamoyili (diatonika bilan umumiyyidir);
- oktava hajmida beshta pog'ona mavjud bo'lishi;
- qo'shni pog'onalar oralig'i bir ton va bir yarim tonga teng kelishi, lad 3 ta butun ton va 2 ta bir yarim tonlikdan iborat bo'lishi;
- bir yarim tonliklar o'rtasida kvarta yoki kvintali oraliq bo'lishi shart, yarim tonliklar yonma-yon joylashishi mumkin emas.

Fortepyanoning beshta qora klavishdag'i tovushlari pentatonika tovushqatorini hosil qiladi. Uning beshta turidan majorli va minorli pentatonika amaliyatda ko'proq tatbiq etiladi.

95-misol.

Pentatonika birinchi xilining strukturasi — 1 — 1 — 1,5 — 1 — 1,5  
(majorli)

ikkinchı turining —// — — 1 — 1,5 — 1 — 1,5 — 1

uchinchı —// — —// — — 1,5 — 1 — 1,5 — 1 — 1

to'rtinchı —// — —// — — 1 — 1,5 — 1 — 1 — 1,5

beshinchı —// — —// — — 1,5 — 1 — 1 — 1,5 — 1 (minorli)

Majorli va minorli pentatonika birinchi pog'onalarida tabiiy major va minorga muvofiq bo'lgan tonika ohangdoshliklari tuzilishi mumkin, lekin ularni majorli pentatonikada I, III, IV pog'onalar, minorli pentatonikada I, II, V pog'onalar tashkil etadi.

96-misol.

Dunyoda keng tarqalgan xalq ladlari orasida yana bir lad mavjud. U *gemiolika*<sup>1</sup> ladlariga tegishlidir. Unga «*vengrcha lad (gamma)*», *ikkilanma garmonik minor* deb aytildi. Bu xildagi lad vengrlar va lo'lilar xalq musiqasiga xosdir. Bunga yaqin bo'lgan, qardosh ladlar ozarbayjon, arman, arab va boshqa sharq xalqlari musiqasi-da uchraydi.

Minorli «*Vengrcha gamma*» yettila pog'onali oktava hajmidagi tovushqatorga ega. Faqat, tovushqatorning bitta yoki ikkala tetraxordida yonma-yon joylashgan pog'onalar orasida bir yarim tondag'i oraliq (ya'ni orttirilgan sekunda) mavjud bo'ladi. Ushbu alomati bilan mazkur lad minorning garmonik turini eslatadi. Lekin bu ladlarning tabiatи turlicha: «*vengrcha gamma*» *melodik* (monodik) laddir va uning ikkita orttirilgan sekundasi xalqning o'ziga xos milliy koloritini ta'kidlash uchun ataylab ko'rsatiladi. Garmonik minor *garmonik*

<sup>1</sup> *Gemiolika* (grekcha ομιόλιος) – bir yarimli.

*tizimga* tegishlidir. Va shu tizimning qoidalaridan kelib chiqib, XIX asrgacha kompozitorlik ijodiyotda garmonik minorda yozilgan asarlar orttirilgan sekundaga melodik harakatdan xalos bo'lgan. Chunki ularning VII pog'onasi I pog'onaga, VI pog'onasi V pog'onaga tortilib yechilishi shartli edi.

«Vengrcha gamma» *orttirilgan sekundali minor ladlari* guruhiga mansubdir. Ushbu ladlarda VII yoki IV, yoki ikkalasi birgalikda yarim tonga ko'tariladi. «Vengrcha lad» ikkita orttirilgan sekundaga ega bo'ladi.

«Vengrcha gamma» va undan hosil qilingan majorli xili (II va VI pog'onalari pasaytirilgan holda keladi), turli kompozitorlar sharqiy obrazlarni tasvirlashda bu ladlardan foydalanganligi туфayli musiqa nazariyasida ***ikkilanma garmonik major va minor*** deb ataladigan bo'ldi.

98-misol.

S.Raxmaninov. "Sharq raqsi"

Andante cantabile

99-misol.

J.Bize. "Karmen"

100-misol.

### 3-§. Sun'iy ladlar

Bir tekis temperatsiyalangan soz na xalq musiqasida, na kompozitorlar ijodida uchramagan yangi lad tizimlari paydo bo'lishiga imkoniyat yaratdi. Ba'zi o'ziga xos badiiy masalalarni hal qilish uchun maxsus ladlar o'ylab chiqarilgan edi. Ularga *sun'iy ladlar* deyiladi.

Sun'iy lad tuzish umumiy tamoyili oktava hajmidagi 12 pog'onali tovushqatorni 2 ta, 3 ta, 4 ta, 6 ta teng qismga bo'lishga asoslangan. So'ng har bir qismdan saralab olingan muayyan tovushlar bitta tovushqatorga yig'iladi. Masalan, 12 pog'onali tovushqator 6 ta teng qismga bo'lindi. Har bir qismdan pastki tovush ajratib olindi. Hosil bo'lgan tovushqator butun tonlardan iborat bo'lganligi uchun **butun tonli gamma** deb nomlangan.

Ushbu gammani M.I.Glinka «Ruslan va Lyudmila» operasida pakana Chernomor obrazini yaratish uchun birinchi bo'lib ishlab chiqargan. Keyinroq butun tonli gamma P.I.Chaykovskiy («Piki xonumi» operadagi grafinya sharpasi), N.A.Rimskiy-Korsakov («Qor qiz» operadagi Leshiy obrazi, «Sadko» operasi), A.Dargomo'jskiy («Tosh mehmon» operasi) tomonidan qo'llanilgan.

N.A.Rimskiy-Korsakov yoqtirgan dengiz manzaralarini tasvirlashda ko'pincha **kamaytirilgan gammadan** foydalangan. Bu gamma quyidagicha hosil qilingan: 12 pog'onali tovushqator 4 ta teng qismga bo'lingandan so'ng, har bir qismning birinchi va uchinchi tovushi saralab olindi. Natijada ton — yarim tonli gamma paydo bo'ldi.

101-misol.

Fransuz kompozitori Olive Messian yana bir necha shunday «lad»larni nazariy jihatdan ishlab chiqargan va o'z kompozitorlik amaliyotiga ularni keng tatbiq qilgan.

#### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**


1. Diatonika va pentatonika, ioniy, doriy, frigiyl, lidiy, miksolidiy, eoliy, lokriy ladlar, «vengrcha gamma», ikkilanma garmonik major va minor ladlar kabi tushunchalarni ta'riflab bering.

2. Diatonika va pentatonika ladlari qaysi talablarga javob berishi kerak?
3. Tabiiy ladlar har birining tuzilishi (strukturasi)ni aytib, turli tovushlardan tuzib chaling.
4. Major va minorli pentatonika ladlari tuzilishini aytib, turli tovushlardan tuzib chaling.
5. Har xil tovushlardan ikkilanma garmonik major va minor gammalarini tuzib chaling.
6. Musiqiy adabiyotda xalq musiqasi ladlaridan foydalanilgan misollar topib ko'rsating.
7. Taklif etilgan kuyni har xil ladlarda chalib ko'ring.
8. Har xil ladlarda bir necha qisqa kuy badiha (improvizatsiya) qilib chalib ko'ring.

## V BOB. INTERVALLAR

### 1-§. Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori

**Interval ikki tovushning balandlik bo'yicha uyg'unlashuvidir.** Interval tovushlar birin-ketin chalinsa **melodik interval** (gorizontal harakat), bir vaqtning o'zida chalinsa **garmonik interval** (vertikal) ni hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi interval *asosi*, yuqori tovushi esa interval *cho'qqisi* deyiladi.



Intervallar pastdan yuqoriga qarab o'qiladi, faqat pasayuvchi melodik interval uning yo'naliishi aytilib, pastga qarab o'qiladi. Masalan, pasayuvchi interval *mi—do* (misoldagi 2-takt).

Interval tor yoki keng bo'lishi mumkin. Uning katta-kichikligi pog'onalar va tonlar bilan o'lchanadi. Interval qamrab olgan pog'onalar soni (interval hajmi)ga **pog'onalar miqdori**, ya'ni son miqdori intervalning asosidan cho'qqisigacha ton va yarim tonlar yig'indisiga esa **tonlar miqdori**, ya'ni sifat miqdori deyiladi.

Masalan:

Intervallar o‘z hajmi bo‘yicha ikkita guruhga ajraladi:

1) oktava oralig‘ida hosil bo‘lgan ***oddiy intervallar***;

2) oktavadan keng bo‘lgan ***tarkibli intervallar***.

Intervalning nomi uning pog‘onalar miqdoridan kelib chiqib, lotin tilida tartibli sonlar bilan aytildi. Bundan tashqari intervalni qisqa qilib yozish uchun nomiga muvofiq raqam bilan ham belgilanadi.

### ***Oddiy interval turlari:***

*Prima* — prima-birinchi—1—bitta pog‘ona ikki marta qaytarilgan yoki unison<sup>1</sup>

*Sekunda* — seconda — ikkinchi — 2 — ikkita pog‘ona.

*Tersiya* — tertia — uchinchi — 3 — uchta pog‘ona.

*Kvarta* — quarta — to‘rtinchi — 4 — to‘rtta pog‘ona.

*Kvinta* — quinta — beshinchi — 5 — beshta pog‘ona.

*Seksta* — sexta — oltinchi — 6 — oltita pog‘ona.

*Septima* — septima — yettinchi — 7 — yettita pog‘ona.

*Oktava* — octava — sakkizinchi — 8 — sakkizta pog‘ona.

***Tarkibli intervallar:*** oktava + oddiy intervaldan iborat:

*Nona* — nona — to‘qqizinchi — 9 — to‘qqizta pog‘ona, oktava oralab sekunda

*Detsima* — decima — o‘ninchи — 10 — o‘nta pog‘ona, oktava oralab tersiya

*Undetsima* — undecima — o‘n birinchi — 11 — o‘n bitta pog‘ona —/— kvarta

*Duodetsima* — duodecima — o‘n ikkinchi — 12 — o‘n ikkita pog‘ona —/— kvinta

*Tersdetsima* — tertia-decima — o‘n uchinchi — 13 — o‘n uchta pog‘ona —/— seksta

*Kvartdetsima* — quarta-decima — o‘n to‘rtinchi — 14 — o‘n to‘rtta pog‘ona —/— septima

*Kvintdetsima* — quinta-decima — o‘n beshinchi — 15— o‘n beshta pog‘ona —/— oktava

### **2-§. Diatonik intervallar**

Diatonik ladlar pog‘onalari o‘rtasida hosil bo‘lgan intervallar ***diatonik intervallar*** deyiladi.

Musiqiy tovushqatorning har ikki asosiy pog‘onalari o‘rtasida butun ton yoki yarim ton borligi haqida yuqorida aytib o‘tilgan.

<sup>1</sup> *Unison* (italiyancha — *unisono*: *unus* — bitta, *sonus* — tovush) — ikkita ovozning bitta tovushda qo‘shilishi.

Shuning uchun ikkita intervalning pog'onalar miqdori bir xil bo'lsa ham tonlar yig'indisi bo'yicha, ya'ni jarangi bo'yicha, bir-biriga o'xshamasligi mumkin. Masalan, intervallar *mi* — *sol* va *fa* — *lya* uchta pog'onani qamrab oladi, bular tersiyalardir. Birinchi tersiyada — 1,5 ton, ikkinchisida — 2 ton. Birinchi tersiya ikkinchidan kichikroq yoki ikkinchisi birinchidan kattaroq deb aytish mumkin.

Demak, intervalni aniqroq atash uchun yana bir qancha ravshanlantiradigan atamalar kerak ekan. Ular intervalning tonlar miqdoridan kelib chiqib, uning sifatidan darak beradi. Interval si-fati *sof* (s. bilan belgilanadi), *katta* (kat.), *kichik* (kich.), *orttirilgan* (ort.), *kamaytirilgan* (kam.) kabi so'zlar yordamida ifodalanadi.

*Sof intervallar* guruhiiga prima, kvarta, kvinta va oktava hamda undetsima, duodetsima va kvintdetsima kiradi. Ushbu intervallarning «sof»ligi ilgaridan obertonlar tovushqatoridagi prima, oktava, kvinta va kvarta intervallariga akustika jihatidan muvofiq bo'lib kelgan. Hozirgi temperatsiyalangan sozda faqat prima bilan oktavaning haqiqiy sofligi saqlanib qoldi.

*Katta va kichik intervallar* bu — sekunda, tersiya, seksta va septima hamda nona, detsima, tersdetsima va kvartdetsima.

*Orttirilgan va kamaytirilgan intervallar* sof va katta-kichiklardan hosil bo'ladi. Istisno tariqasida, sof prima kamaytirilmaydi.

Orttirilgan va kamaytirilgan intervallardan faqat orttirilgan kvarta (ort.4) bilan kamaytirilgan kvinta (kam.5), ya'ni **uchtonlik-lar** va ularga muvofiq tarkibli intervallar diatonik intervallar qatoriga kiradi. Qolganlari *xromatik intervallardir* (bobning 3-§).

Oddiy diatonik intervallarning tonlar miqdori ko'payishi bo'yicha ketma-ket joylashuvi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

pog'onalar miqdori	tonlar miqdori	intervallar nomi	misollar
bitta	0	sof prima	
ikkita	1/2	kichik sekunda	
	1	katta sekunda	

uchta	1 1/2	kichik tersiya	
	2	katta tersiya	
to'rtta	2 1/2	sof kvarta	
	3	orttirilgan kvarta	
beshta	3	kamaytirilgan kvinta	
	3 1/2	sof kvinta	
oltita	4	kichik seksta	
	4 1/2	katta seksta	
yettita	5	kichik septima	
	5 1/2	katta septima	
sakkizta	6	sof oktava	

Oddiy diatonik intervallarning barcha (14 ta)siga **asosiy intervallar** ham deb aytiladi. Bunga sabab, ushbu intervallar boshqa intervallarga qaraganda tarixan ilgariroq paydo bo'lib, musiqiy amaliyotda ustunlik qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

Asosiy intervallarni musiqiy tovushqatorning asosiy yoki hosila pog'onalaridan yuqoriga va pastga tuzish mumkin.


106-misol.

Tarkibli intervalning oddiy intervalga muvofiqligini tez topish yo'li: tersdetsima — 13 demakdir; 13 pog'onadan oktavaning 7 ta

pog‘onasini ayrish natijasida oddiy intervalning 6 ta pog‘onasi qoladi. Bu — seksta. Shunday qilib, tersdetsima bu — oktava oralab sekstadir.

Undetsima — 11.  $11-7=4$  — kvarta. Kvintdetsima — 15.  $15-7=8$  — oktava.

Tarkibli intervalning ton miqdori quyidagicha hisoblanadi: oktavaning 6 toniga oddiy intervalning tonlari qo‘shiladi.



Tarkibli intervallar hammasi bo‘lib 13 ta.

Diatonik intervallar o‘z garmonik yangrashi sifati bo‘yicha **konsonans**<sup>1</sup> (ohangdosh) va **dissonans**<sup>2</sup> (noohangdosh) intervallarga ajratiladi.

Fiziologiya nuqtayi nazaridan konsonans yumshoq sado, dissonans o’tkir, g‘azablantiradigan, xavotirli sado bo‘lib his etiladi. Psixologik jihatdan konsonans mantiqiy tayanch, intilishi yo‘qligi, tinchlik ma’nosida ifodalanadi, dissonans esa shiddat va konsonans tomonga qaratilganlik ifodasi, harakatning omili tarzida tasavvur etiladi.

Yevropa ko‘p ovozlik musiqasi lad tizimlarida shiddatning pasayishi dissonansning konsonansga ravon o‘tishi (yechilishi) da namoyon bo‘lib, mammun bo‘lish tuyg‘usini yaratadi va aynan shunisi bilan muhim estetik omilga aylanadi. Shiddatli dissonans va yumshoq konsonansning almashinib kelishi xuddi musiqaning «uyg‘un nafas olishi»ni hosil qiladi. Zamonaviy musiqada dissonans intervalini konsonansga o‘tkazish (yechish) majburiy emas.

Musiqa nazariyasida **dissonans** bo‘lib **sekunda, septima va uchtonliklar** (ort.4, kam.5) hisoblanadi (bularga muvofiq tarkibli intervallar ham nazarda tutiladi).

*Keskin dissonanslar* deb kichik sekunda (kich.2-0.5t), katta septima (kat.7-4.5t) va uchtonliklar (ort.4, kam.5) nazarda tutiladi.

<sup>1</sup> Konsonans (lotincha — *consonantia*) — uyg‘un sado.

<sup>2</sup> Dissonans (lotincha — *dissonantia*) — uyg‘unsiz sado.

*Yumshoq dissonanslar* — katta sekunda (kat.2-1t), kichik septima (kich.7-5t.)

**Konsonanslarga** qolganlari — *prima, oktava, kvarta, kvinta, tersiya, sekstalar* mansub.

*Qattiq konsonanslar* — *sof intervallar*:

prima bilan oktava nihoyat mukammal konsonanslar,

kvarta bilan kvinta mukammal konsonanslar deb hisoblanadi.

*Yumshoq konsonanslar* — tersiya va seksta — nomukammal konsonanslar.

### 3-§. Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonizmi

**Xromatik interval** deb diatonikaning asosiy intervallaridan hosil bo‘lgan **orttirilgan va kamaytirilgan intervallarga** deyiladi.



108-misol.

Diatonik intervalning (oddiy, tarkibli) bitta yoki ikkala pog‘onasi xromatik yarim tonga ko‘tarilishi yoki pasayishi xromatik intervalni vujudga keltiradi.

+ 0,5 ton –	+ 0,5 ton –
kam. ←→ Sof	←→ ort.

109-misol.

Sof intervallar yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan, yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan interval hosil bo‘ladi.

Kichik intervalning yarim tonga qisqarishi natijasida kamaytirilgan, katta intervalning yarim tonga kengayishi natijasida orttirilgan interval tuziladi. Agar katta interval butun tonga qisqaradi-gan bo‘lsa, kamaytirilgan interval hosil bo‘ladi, va aksincha kichik interval butun tonga kengaysa, orttirilgan interval paydo bo‘ladi.

+ 0,5 ton –	+ 0,5 ton –	+ 0,5 ton –	+ 0,5 ton –	+ 0,5 ton –
2 kam. ←→ kam.	←→ kich.	←→ kat.	←→ ort.	←→ 2ort.

110-misol.

Musiqada ikki marta kamaytirilgan va ikki marta orttirilgan intervallar ham uchraydi.

Xromatik interval tonlar miqdori bo'yicha albatta birorta asosiy intervalga teng keladi. **Tonlar miqdori bir xil bo'lgan intervallarning eshitilishi ham bir bo'ladi.** Bunday intervallarga *engarmonik teng intervallar deyiladi*. Engarmonik teng intervallarning pog'onalar miqdori ham bir xil, ham har xil bo'lishi mumkin.

2.5 t    2.5 t    2.5 t  
ort.3 = s. 4 = s. 4  
*111-misol.*

#### 4-§. Intervallarning aylanishi

**Intervalning aylanishi** — bu uning asosi bilan cho'qqisi joylarini almashtirish maqsadida pastki tovushini yuqoriga, yuqorigi tovushini pastga bir yoki bir necha oktavaga ko'chirishdir (ikkala harakat bir vaqtida bajarilishi ham mumkin). Natijada dastlabki *intervalning aylanmasi* deb aytildigani yangi interval hosil bo'ladi.

*112-misol.*


Misoldan ko'rinaridiki, oddiy intervallar aylanganda oddiy va tarkibli interval hosil qilishi mumkin. Tarkibli intervallar ham aylanishi natijasida oddiy va tarkibli intervalga aylanadi.

Intervallarning turli aylanish variantlari negizida oddiy intervallar aylanishining asosiy qonuniyatları yotadi:

1) oddiy interval bilan aylanmasining umumiy hajmi oktava-ga teng;

2) ikkala intervalning tonlar miqdori yig'indisi oktavaning 6 toniga baravar:  $2,5 \text{ ton} + 3,5 \text{ ton} = 6 \text{ ton}$ ;  $6 \text{ ton} - 4,5 \text{ ton} = 1,5 \text{ ton}$ ;

3) ikkala intervalning pog'onalar miqdori jami 9 raqamni beradi;



113-misol.

4) sof interval sof intervalga aylanadi, katta interval kichikka, kichik — kattaga, orttirilgan — kamaytirilganga, kamaytirilgan — orttirilganga.

sof. ↔ sof.
kich. ↔ kat.
kam. ↔ ort.

114-misol.

115-misol.

### 5-§. Tabiiy major va minor intervallari

Tabiiy major va tabiiy minor pog'onalarida faqat diatonik intervallar, ya'ni sof, katta, kichik va uchtonliklar (ort.4, kam.5) hosil bo'ladi. Yettita pog'onaning har birida prima, sekunda, tersiya va hokazo oddiy intervallarni tuzish mumkin. Biroq har xil pog'onalardan tuzilgan bir turdag'i interval (masalan, tersiya) larning sifati (katta, kichik) turlicha bo'ladi.

**Tabiiy majorda** sof prima barcha pog'onalarda tuziladi.

Sekundalar — **2 ta kichik — III va VII** pog'onalarda tuziladi,

5 ta katta — qolgan pog'onalarida tuziladi.

Tersiyalar — **3 ta katta — I, IV, V** ladning asosiy pog'onalarda,

4 ta kichik — qolgan pog'onalarda tuziladi.

pog'onalar	sekunda	tersiya	kvarta	kvinta	seksta	septima	pog'onalar
C-dur							a-moll
I							III
II							IV
III							V
IV							VI
V							VII
VI							I
VII							II

116-misol.

Kvartalar — **1 ta orttirilgan** — IV pog'onada,

6 ta sof — qolgan pog'onalarda tuziladi.

Kvintalar — **1 ta kamaytirilgan** — VII pog'onada,

6 ta sof — qolgan pog'onalarda tuziladi.

Sekstalar — **3 ta kichik** — III, VI, VII pog'onalarda,

4 ta katta — qolgan pog'onalarda tuziladi.

Septimalar — **2 ta katta** — I, IV pog'onada,

5 ta kichik — qolgan pog'onalarida tuziladi.

Oktavalar — barcha pog'onalarda tuziladi.

Major pog'ona	Intervallar sifati				
	katta	kichik	sof	orttirilgan	kamaytirilgan
I	2, 3, 6, 7	-	4, 5		
II	2, 6	3, 7	4, 5		
III	-	2, 3, 6, 7	4, 5		
IV	2, 3, 6, 7	-	5	4	
V	2, 3, 6	7	4, 5		
VI	2	3, 6, 7	4, 5		
VII	-	2, 3, 6, 7	4		5

**Tabiiy minorda** mazkur intervallar ikki pog‘ona yuqoriroq jöylashadi. Masalan, orttirilgan kvarta majorning VI pog‘onasida joylashgan, minorda esa u VI pog‘onada tuziladi.

Tabiiy minorda sof prima barcha pog‘onalarda tuziladi.

Sekundalar — 2 ta kichik — V va II pog‘onalarda tuziladi,  
5 ta katta — qolgan pog‘onalarida tuziladi.

Tersiyalar — 3 ta katta — III, VI, VII ladning asosiy  
pog‘onalarida,

4 ta kichik — qolgan pog‘onalarda tuziladi.

Kvartalar — 1 ta orttirilgan — VI pog‘onada,  
6 ta sof — qolgan pog‘onalarda tuziladi.

Kvintalar — 1 ta kamaytirilgan — II pog‘onada,  
6 ta sof — qolgan pog‘onalarda tuziladi.

Sekstalar — 3 ta kichik — V, I, II pog‘onalarda,  
4 ta katta — qolgan pog‘onalarda tuziladi.

Septimalar — 2 ta katta — III, VI pog‘onada,  
5 ta kichik — qolgan pog‘onalarida tuziladi.

Oktavalar — barcha pog‘onalarda tuziladi.

Minor pog‘ona	Intervallar sifati				
	katta	kichik	sof	orttirilgan	kamaytirilgan
I	2	3, 6, 7	4, 5		
II	-	2, 3, 6, 7	4		5
III	2, 3, 6, 7	-	4, 5		
IV	2, 6,	3, 7	4, 5		
V	-	2, 3, 6, 7	4, 5		
VI	2, 3, 6, 7	-	5	4	
VII	2, 3, 6,	7	4, 5		

### 6-§. Xarakterli intervallar

**Garmonik major va garmonik minor** pog‘onalarida hosil bo‘ladigan intervallar ham diatonik intervallardir. Ladlarning ushbu turida ularga xos bo‘lgan alteratsiyalangan pog‘onasi bilan bog‘liq intervallarning sifati biroz o‘zgaradi. Alteratsiyalangan pog‘onalar intervalning asosi yoki cho‘qqisi bo‘lib qo‘llaniladi.

*Garmonik majorda* pasaytirilgan VI pog‘onadan boshlab yuqoriga quyidagi intervallar tuziladi:

**orttirilganlar — sekunda, kvinta, kvarta (uchtonlik);**

**kattalar — tersiya, seksta, septima.**

Pasaytirilgan VI pog'ona interval cho'qqisi sifatida olinganda ko'rsatilgan intervallarning aylanmalari hosil bo'ladi:

V pog'onadan — kichik sekunda;

IV kichik tersiya;

**III kamaytirilgan kvarta;**

II kamaytirilgan kvinta (uchtonlik);

I kichik seksta;

VII kamaytirilgan septima.

**Garmonik minorda** ko'tarilgan VII pog'onadan boshlab yuqorida quyidagi intervallar tuziladi:

**kamaytirilganlar — kvarta, septima**, kvinta (uchtonlik);

kichiklar — sekunda, tersiya, seksta.

Ko'tarilgan VII pog'ona interval cho'qqisi sifatida olinganda ko'rsatilgan intervallarning aylanmalari hosil bo'ladi:

**VI orttirilgan sekunda;**

V katta tersiya;

IV orttirilgan kvarta (uchtonlik);

**III orttirilgan kvinta;**

II katta seksta;

I katta septima;

Garmonik minor va garmonik major pog'onalarida tuzilgan intervallar taqqoslama jadvali:

	(c-moll)	(C-dur)
I		
II		
III		
IV		
V		
VI		
VII		

118-misol.

Garmonik major va minorda uchtonliklarning yana bittadan juftligi paydo bo'ladi. Endi orttirilgan kvarta (ort.4) IV va VI pog'onalarda, kamaytirilgan kvinta (kam.5) VII va II pog'onalarda tuziladigan bo'ldi.

Major va minorning garmonik turlarida alteratsiyalangan pog'onalalar orqali bir qator yangi, tabiiy major va minorda uchramaydigan intervallar hosil bo'ldi. Bular orttirilgan sekunda (ort.2) va uning hamda orttirilgan kvinta (ort.5) va uning aylanmasi kamaytirilgan kvarta (kam.4). Mazkur to'rtta interval **xarakterli intervallar** deb ataladi va diatonik intervallar safiga kiradi.

Orttirilgan sekunda (ort.2) garmonik majorda ham, garmonik minorda ham VI va VII pog'onalalar o'rtasida, uning aylanmasi kamaytirilgan septima (kam.7) VII va VI pog'onalalar o'rtasida tuziladi.

Orttirilgan kvinta (ort.5) va uning aylanmasi kamaytirilgan kvarta (kam.4) garmonik major va minorning III pog'onasi va alteratsiyalangan pog'ona bilan bog'liq: majorda — III pog'onasi va pasaytirilgan VI pog'onalalar, minorda — III va ko'tarilgan VII pog'onalalar.

119-misol.

## 7-§. Intervallarning yechilishi

Lad pog'onalari o'z funksiyasi bo'yicha turg'un va noturg'un pog'onalarga ajraladi. Intervallar ham, ularni tashkil qiladigan pog'onalalar lad funksiyalaridan kelib chiqib, turg'un va noturg'un intervallarga ajraladi. Intervalning turg'unligi yoki noturg'unligi uning lad xususiyatini aniqlaydi.

Turg'un intervalning asosi bilan cho'qqi hamisha ladning turg'un pog'onalardir. Yangrashi bo'yicha ular faqat konsonans ohangini yaratadi.

Noturg'un intervalning bitta yoki ikkala tovushi ladning noturg'un pog'onasiga joylashadi. Noturgun interval yangrashi bo'yicha ham konsonans, ham dissonans bo'lishi mumkin.

Masalan: *re-minorda* interval *mi—lya* — sof kvartadir, eshitili-shi bo'yicha — konsonans, lad xususiyati bo'yicha — noturg'un interval, negaki, *mi* tovush II noturg'un pog'onadir.

Dissonans ohangli intervallarga sekunda, septima va uchtonliklardan tashqari xromatik intervallar ham kiradi. Ba'zi orttirilgan va kamaytirilgan intervallar o'zining akustik yangrashi bilan konsonansdek eshitiladi. Ammo lad jihatidan ularga noturg'un intervali tarzida qaraladi.

Lad pog'onalariga o'xshab noturg'un intervallar turg'un intervallarga o'tishga intiladi. *Noturg'un intervalning yechilishi* deb *uning turg'un intervalga o'tishiga aytildi*. *Dissonans ohangli intervalning yechilishi* deb *uning konsonansga o'tishiga aytildi*.

Intervallarning yechilishi ladning noturg'un pog'onalar turg'unlarga tortilishi tamoyiliga asoslanadi. Shuning uchun ham, biror intervalni to'g'ri yechish uchun dastlab uning qaysi tonallikda ekanligini, so'ng uni tashkil etadigan pog'onalar lad funksiyasi aniqlash lozim.

*Intervalning yechilish jarayonida noturg'un pog'ona o'z tortilishi bo'yicha qo'shni turg'un pog'onaga o'tadi, turg'unlar esa o'z joyida qoladi.*

**Orttirilgan intervallar yechilganda** o'zidan keng intervalga (o'zidan *tashqariga* — pastki tovush pastga, yuqorigi tovush yuqoriga) o'tadi. **Kamaytirilgan intervallar** esa o'zidan tor intervalga (*ichkariga* — pastki tovush yuqoriga, yuqorigi — pastga) o'tadi.

**Karakterli intervallar yechilishi:** orttirilgan sekunda har doim sof kvartaga, kamaytirilgan septima — sof kvintaga, orttirilgan kvinta — katta sekstaga, kamaytirilgan kvarta — kichik tersiyaga yechiladi.

C-dur garmonik 1,5 t      2,5 t      4,5 t      3,5 t      2 t      1,5 t      4 t      4,5 t

VI                                 VII                                 III                                 VI

c-moll garmonik 1,5 t      2,5 t      4,5 t      3,5 t      2 t      1,5 t      4 t      4,5 t

VI                                 VII                                 VII                                 III                                 VI

120-misol.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Diatonik interval, xarakterli intervallar, turg'un va noturg'un interval, konsonans va dissonans interval, intervallarning yechilishi tu-shunchalarga izoh bering.
2. Har bir oddiy diatonik interval ladning qaysi pog'onasida tuzi-lishini aytib, uni taklif etilgan tonalliklarda tuzing va chaling.
3. Berilgan tonalliklarda hamma oddiy va tarkibli diatonik interval-larni ladning har pog'onasida tuzing.
4. Xarakterli intervallar tuzilishi va yechilishini aytинг.
5. Tonalliklarda xarakterli intervallarni yechilishi bilan tuzing va chaling.
6. Taklif etilgan kuylarning intervallarini aniqlab chaling.
7. Berilgan tovushdan xarakterli intervallarni yechilishi bilan tu-zing, tonalligini aniqlang va chaling.
8. Xarakterli interval qo'llanilgan bo'lib, 2–3 ta kuycha yaratib cha-ling.

## **VI BOB. AKKORDLAR**

### **1-§. Akkord. Akkord turlari**

Ikkita va undan ortiq tovushning bir vaqtagi qo'shilmasi ohangdoshlikni hosil qiladi. Bu tariqada, garmonik interval ham ohangdoshlik sifatida hisoblanishi tayin. Ko'p ovozlilik musiqasi-da turli xil ohangdoshliklarning hosil bo'lishi samimiydir. Bun-day yo'l bilan yuzaga kelgan ohangdoshliklar turlicha tuzilishga ega bo'lishi mumkin.

*I.S.Bax (Contrapunctus 6)*

121-misol.

*Akkord*<sup>1</sup> deb hisoblanadigan ohangdoshliklar muayyan tuzi-lishga ega bo'lib, mustaqil yaxlit tovushlar birligi sifatida qabul qilinadi. Akkordning tuzilishi uni tashkil qiladigan tovushlar so-ni va ular o'rtasidagi intervallarga bog'liq bo'ladi. Bu holda ikki-, uch-, to'rtta va hokazo tovushdan iborat tersiya, kvarta intervali bo'yicha tuzilganakkordlar haqida gapiriladi.

<sup>1</sup> *Akkord* (lotincha – *accordae*) – moslashtiryapman, kelishtiryapman.

**Adagio molto**

122-misol.

**Andante doloroso**


E.Grig. "Per Gunt"

123-misol.

Klassik musiqa amaliyoti tovushlari tersiya bo'yicha joylashganakkordni ohangdoshliklar orasida eng barqaror shakl sifatda ajratib oldi. Buning ustiga akustika faniakkordning tersiya bo'yicha tuzilishi (strukturasi) sababini obertonlar qatoridagi pastdan 6—7 ta ton izchilligida ko'radi.

**Akkord** — bu tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan uchta va undan ortiq tovushdan iborat ohangdoshlik.

Akkordni tashkil qiladigan har bir tovush o'z nomiga ega. Akkordning pastki tovushi *asosiy ton yoki primasi*, unga nisbatan tersiya intervalni tashkil qiladigan ton — **tersiyasi**, asosiy ton dan kvintani tashkil qiladigan tovush



124-misol.

— **kvintasi**, septimani esa — **septimasi** deb ataladi. Ushbu tonlar o'z nomiga muvofiq arab raqamlar bilan belgilanadi: akkordning asosiy toni — 1, tersiyasi — 3, kvintasi — 5, septimasi — 7.

Akkord asosiy tonidan boshlab yuqoriga qarab tuzilsa, unga **akkordning asosiy ko'rinishi** deyiladi. Agar akkordning eng pastki tovushi sifatida boshqa biror toni joylashsa, uning aylanmasi hosil bo'ladi.

Akkordlar o'z tarkibidagi tersiya intervallar soni va chekka tovushlari hajmiga qarab ajratiladi. Masalan, *chekka tovushlari oralig'i kvintaga teng bo'lgan ikkita tersiyadan iborat akkord (terskvintakkord)* yoki **uchtovushlik** deyiladi. *Chekka tovushlari oralig'i septimaga teng*

*bo'lgan uchta tersiyadan iboratakkord septakkord* deyiladi. Chekka tovushlari oralig'i nonaga teng *bo'lgan to'rtta tersiyadan iboratakkord nonakkord* deyiladi.

125-misol.

Har birakkord turi o'z navbatida uni tashkil qiladigan tersiyalarning sifati bo'yicha ajratiladi.

## 2-§. Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari

**Uchtovushlik — tersiya bo'yicha joylashgan uchta tovushdan iboratakkorddir.** Uchtovushlikning chekka tovushlari kvintani hosil qiladi.

Belgilanishi —  $\frac{5}{3}$ .

Katta va kichik tersiyalar kombinatsiyalari uchtovushlikning to'rtta turini yaratadi.

Ikkitasi *konsonans* ohangiga ega bo'lib, **har xil tersiyalardan** iborat va chekka tovushlari **sof kvintani** hosil qiladi:

1) **major** yoki *katta* uchtovushlikning pastki tersiyasi katta (2 ton), yuqorigisi kichik (1,5 ton) bo'ladi: **Dur**  $\frac{5}{3} = \text{kat.3} + \text{kich.3}$ ;

2) **minor** yoki *kichik* uchtovushlikning pastki tersiyasi kichik (1,5 ton), yuqorigi katta (2 ton) bo'ladi: **moll**  $\frac{5}{3} = \text{kich.3} + \text{kat.3}$ ;

Uchtovushlikning yana ikkita turi *dissonans* ohangiga ega bo'lib, ikkita **bir xil tersiyalardan** iborat va chekka tovushlari bit-tasida **orttirilgan**, ikkinchisida **kamaytirilgan kvintani** hosil qiladi;

3) **orttirilgan** uchtovushlik ikkita katta tersiyadan tashkil topadi. Chekka tovushlar oralig'i orttirilgan kvinta (ort.5=4 ton) ga teng: **Ort.**  $\frac{5}{3} = \text{kat.3} + \text{kat.3}$ ;

4) **kamaytirilgan** uchtovushlik ikkita kichik tersiyadan tashkil topadi. Chekka tovushlar oralig'i kamaytirilgan kvinta (kam.5=2 ton)ga teng: **Kam.**  $\frac{5}{3} = \text{kich.3} + \text{kich.3}$ .

126-misol.

Har qanday uchtovushlik ikkita *aylanmaga* ega.

Birinchi aylanmasi **sekstakkord** deyiladi. U prima tovushi yuqoriga ko'chirilishi natijasida hosil bo'lib, **tersiya tovushidan boshlab tuziladi**.

Sekstakkordning nomi pastki tovushidan yuqorigi primasi gacha hosil bo'lgan seksta intervaliga bog'liq. Belgilanishi —  $\frac{6}{4}$ .

Uni tashkil qiladigan intervallar: pastda tersiya, yuqorida kvar-ta joylashadi. Major va minor sekstakkordlarining kvartasi sof, ort-tirilganning kvartasi kamaytirilgan va kamaytirilganning — ort-tirilgan bo'ladi.

**Dur<sub>6</sub>** = kich.3 + sof.4;

**Moll<sub>6</sub>** = kat.3 + sof.4;

**Ort.<sub>6</sub>** = kat.3 + kam.4;

**Kam.<sub>6</sub>** = kich.3 + ort.4.

*dur                      moll*

Kat.<sub>6</sub>            kich.<sub>6</sub>            ort.<sub>6</sub>            kam.<sub>6</sub>

127-misol.

Ikkinchı aylanmasi **kvartsekstakkord** deyiladi. U prima bilan tersiyasi yuqoriga ko'chirilishi natijasida hosil bo'lib, **kvinta tovushidan boshlab tuziladi**.

Kvartsekstakkordning nomi pastki tovushidan yuqorigi primasi va tersiyasigacha hosil bo'lgan kvarta bilan seksta intervallaridan kelib chiqadi. Belgilanishi —  $\frac{6}{4}$ . Uni tashkil qiladigan intervallar — pastda kvarta, yuqorida tersiya joylashadi.

**Dur<sup>6</sup><sub>4</sub>** = sof.4 + kat.3;

**Moll<sup>6</sup><sub>4</sub>** = sof.4 + kich.3;

**Ort.<sup>6</sup><sub>4</sub>** = kam.4 + kat.3;

**Kam.<sup>6</sup><sub>4</sub>** = ort.4 + kich. 3.

*dur                      moll*

Kat.<sup>6</sup><sub>4</sub>            kich.<sup>6</sup><sub>4</sub>            ort.<sup>6</sup><sub>4</sub>            kam.<sup>6</sup><sub>4</sub>

128-misol.

	Uchtovushlik- $\frac{5}{3}$	Sekstakkord - $\frac{6}{6}$	Kvartsekstakkord- $\frac{6}{4}$
Pastki tovushi	Prima(1)	Tersiya(3)	Kvinta(5)
Intervalli tarkibi	Tersiya + tersiya	Tersiya + kvarta	Kvarta + tersiya

### 3-§. Major va minor uchtovushliklari

Garmonik tizimda oktavali ladlar pog'onalarida tuziladiganakkordlar alohida ahamiyatga ega bo'ladi (III bob, 1-§). Biror ladning muayyan bir pog'onasiningakkordi deb uning prima tovushi ko'rsatilgan pog'onaga joylashib, qolgan tovushlari esa shu lad tovushqatoriga tegishli bo'lganakkordga deyiladi. Masalan: *Do majoragi VI pog'ona uchtovushligi* —akkord *lya* — *do* — *mi-minorli uchtovushlik*; *IV pog'ona uchtovushligi* —akkord *fa* — *lya* — *do-majorli uchtovushlik*;

*do minorning VI pog'ona uchtovushligi* —akkord *lya-bemol* — *do* — *mi-bemol* majorli uchtovushlik; *IV pog'ona uchtovushligi* —akkord *fa* — *lya-bemol* — *do-minorli uchtovushlik*.

Misoldan ko'rindiki, muayyan pog'onada tuziladiganakkord turi ladning turi va tovushqatoriga bog'liq ekan.

Lad pog'onasida tuzilganakkord quyidagicha belgilanadi: rimraqami — pog'onani, arabraqamlari —akkord turi va aylanmasini ifodalaydi (VII<sub>6</sub>, II<sup>5</sup><sub>3</sub>).

Tabiiy major pog'onalarida quyidagi uchtovushliklar joylashadi:

<i>dur</i>	<i>moll</i>	<i>moll</i>	<i>dur</i>	<i>dur</i>	<i>moll</i>	<i>kam</i>
I	II	III	IV	V	VI	VII
T	S	D				

*130-misol.*

*Tabiiy major ladi uchta majorli* (I, IV, V pog'onalar uchtovushliklari), *uchta minorli* (II, III, VI) va *bitta kamaytirilgan* (VII) uchtovushlikka ega.

I, IV, V pog'onalar uchtovushliklari *tonika*, *subdominanta* va *dominanta* pog'onalaridan tuzilib, **asosiy uchtovushliklar** deb ataladi. Ular ladning garmonik asosidir.

Qolgan uchtovushliklar **yondosh uchtovushliklar** deyiladi va ladda ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

III va VI pog'onaakkordlari *yuqori* va *pastki medianta* uchtovushliklari, II va VII pog'onaakkordlari *yuqori* va *pastki yetakchi* uchtovushliklari deb ataladi.

Yondosh uchtovushliklar umumiy tovushlar soni bo'yicha subdominanta va dominantaga tegishli bo'lib, guruhchalarga ajratiladi. II va VI pog'onaakkordlari subdominanta uchtovushligi bilan ikkitadan umumiy tovushga ega bo'lib, subdominanta guruhini

tashkil etadi. III va VII pog‘onaakkordlari esa dominanta guruhiga kiradi.

Har qanday uchtovushlik sekstakkord va kvartsekstakkord aylanmalariga egadir.

*C-dur*

131-misol.

Majorning kamaytirilgan uchtovushligidan tashqari boshqa uchtovushliklari konsonansdir. Tonika uchtovushligidan tashqari boshqa uchtovushliklar noturg‘undir. *Noturg‘unakkordning tonikaga o‘tishi yechilishning umumiy qoidalariga bo‘ysunadi, ya’ni turg‘un pog‘onalar o‘z joyida qolib, noturg‘unlar tortilishi bo‘yicha qo‘shti turg‘un pog‘onalarga o‘tadi.*

*C-dur*

132-misol.

Tabiiy minor pog‘onalarida quyidagi uchtovushliklar joylashadi:


<i>moll</i>	<i>kam</i>	<i>dur</i>	<i>moll</i>	<i>moll</i>	<i>dur</i>	<i>dur</i>
I	II	III	IV	V	VI	VII
<i>t</i>			<i>s</i>	<i>d</i>		

133-misol.

*Tabiiy minor ladi uchta minorli* (I, IV, V pog‘onalar uchtovushliklari), **uchta majorli** (III, VI, VII) va **bitta kamaytirilgan** (II) uchtovushlikka ega.

Minorningakkordlar funksiyalari majorakkordlariga muvofiqdir.

*Garmonik minorda* ko‘tarilgan VII pog‘ona dominanta guruhi-dagiakkordlariga ta’sir qiladi: III pog‘onadan orttirilgan uchtovushlik, D uchtovushligi majorli uchtovushlik, VII pog‘ona uchtovushligi kamaytirilgan uchtovushlik bo‘lib tuziladi.



Klassik major-minor garmonik tizimida minorning asosan garmonik turi qo'llaniladi. Shuning uchun minordagi dominantaga hamisha majorli uchtovushlik sifatida, VII pog'ona uchtovushligi kamaytirilgan holda ishlataladi, III pog'onadagi orttirilgan uchtovushlik amaliyotda kamdan kam uchraydi.

#### 4-§. Septakkord. Uning turlari va aylanmalari

**Septakkord** — tersiya bo'yicha joylashgan to'rtta tovushdan iborat akkorddir. Septakkordning chekka tovushlari septima intervalini hosil qiladi. Shuning uchun barcha septakkordlar disonans akkord deb hisoblanadi. Belgilanishi — 7.

Septakkordlar, uchtovushliklardek tarkibiy intervallari turi bo'yicha farqlanadi. Chekka tovushlar septimasi sifatiga qarab **katta, kichik, orttirilgan** va **kamaytirilgan septakkord turlari** ajratiladi. Septakkordlarning aniq nomi ularning asosida joylashgan uchtovushlik turi va chekka tovushlar o'rtaisdagi septimasi sifatidan hosil bo'ladi. Masalan, majorli uchtovushlik va katta septimadan tuzilgan akkord *katta majorli septakkord* deyiladi; minorli uchtovushlik bilan katta septima — *katta minorli septakkordni* tashkil etadi; majorli uchtovushlik va kichik septima — *kichik majorli septakkordni* tuzadi va hokazo.

Klassik musiqada keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan septakkordlar bu — kichik majorli, kichik minorli, kichik va kamaytirilgan septakkordlardir.

**Kichik majorli septakkord** majorli uchtovushlik va kichik septimadan iborat.

**Kichik minorli septakkord** minorli uchtovushlik va kichik septimadan iborat.

**Kichik septakkord** kamaytirilgan uchtovushlik va kichik septimadan iborat.

**Kamaytirilgan septakkord** kamaytirilgan uchtovushlik va kamaytirilgan septimadan iborat.

Septakkord uchta aylanmaga ega. Har aylanmaning nomi pastki tovushidan primasi va septimasigacha hosil bo‘ladigan intervallardan kelib chiqadi.

Birinchi aylanmasi **kvintsekstakkor**: pastki tovushi — tersiyasi, intervallar ustma-ust joylashgan tartibi — tersiya + tersiya + sekunda.

Ikkinci aylanmasi **tertskvartakkord**: pastki tovushi — kvintasi, intervalli tarkibi — tersiya + sekunda + tersiya.

Uchinchi aylanmasi **sekundakkord**: pastki tovushi — septima, intervalli tarkibi — sekunda + tersiya + tersiya.

139-misol.

	Septakkord	Kvintsekstakkord	Terskvartakkord	Sekundakkord
Pastki tovushi	Prima (1)	Tersiya (3)	Kvinta (5)	Septima (7)
Interval tarkibi (pastdan yuqoriga qarab o‘qiladi)	tersiya tersiya tersiya	sekunda tersiya tersiya	tersiya sekunda tersiya	tersiya tersiya. sekunda

### 5-§. Dominantseptakkord

Musiqada juda keng tarqalgan kichik minorli septakkord **tabiy major va garmonik minorning V pog‘onasida tuziladi**. Bu akkord **dominantseptakkord** deyiladi. Dominantseptakkord laddagi dominanta funksiyasining asosiy ifodalovchisidir. Belgilanishi — **D<sub>7</sub>**, strukturasi, ya’ni uni tashkil qiladigan pog‘onalar — V, VII, II, IV, intervalli tarkibi — **kat.3 + kich.+ kich.3**. Dominantseptakkordning strukturasi obertonlar qatorining 4-, 5-, 6-, 7- tovushlariga mos bo‘lib, o‘zining yangrashi bilan musiqiy tovushlarning akustik xususiyatlarini aks etadi.

141-misol.

Dominantseptakkord dissonansakkorddir. Uning tarkibida yechilishni talab qiladigan ikkita dissonans interval mavjud — kich.7 va kam.5.

*C-dur*

kich.7      kam.5  
142-misol.

*143-rasm.*

Undan tashqari, pastki tovushi — ladding V pog'onasi, ya'ni Dominanta tovushining o'zi tonikaga intiladi, II va VII pog'onalar ham tonika bilan torilib turadi, IV pog'onasi kamaytirilgan

kvintaning cho'qqisi sifatida qoidaga rioya qilib, pastga III pog'ona (tonikaning tersiya tovushi)ga o'tishini talab qiladi. Shuning uchun dominantseptakkord bevosita tonikaakkordiga yechilishi kerak:

**V, VII, II pog'onalar I pog'onaga,**

**IV pog'ona esa III pog'onaga yechiladi.**

Natijada prima tovushi uch marta kelgan, kvintasiz, ya'ni to'liqsiz tonika uchtovushligi hosil bo'ladi.

Dominantseptakkord uchta aylanmaga ega:

1. **Dominantkvintsekstakkord** — ( $D^6_5$ ) — akkordning tersiyasidan (VII) tuziladi, intervalli tarkibi — **kich.3 + kich.3 + kat.2**, primasi juftlanrilgan to'liq tonika uchtovushligiga yechiladi.

2. **Dominanttertskvartakkord** ( $D^4_3$ ) — akkordning kvintasidan (II) tuziladi, intervalli tarkibi — **kich.3 + kat.2 + kat.3**, yoyilgan to'liq tonika uchtovushligiga yechiladi.

3. **Dominantsekundakkord** ( $D_2$ ) — akkordning septimasidan (IV) tuziladi, intervalli tarkibi — **kat.2 T kat.3 T kich.3**, primasi juftlanrilgan tonika sekstakkordiga yechiladi.

Dominantseptakkord aylanmalari tonikaga yechilganda prima tovushi, ya'ni laddagi V pog'ona o'z o'rnida qoladi.

144-misol.

## 6-§. Yetakchi septakkord

Kichik septakkord faqat **tabiiy majorning VII**, ya’ni pastki yetakchi **pog’onasida tuziladi**. Shuning uchun bu akkord **yetakchi septakkord** deyiladi. Yetakchi septakkord ladning dominanta guruhiga mansubdir. Belgilanishi — **DVII<sub>7</sub>**, strukturasi, ya’ni uni tashkil qiladigan pog’onalar — **VII, II, IV, VI**, intervalli tarkibi — **kich.3 + kich.3. + kat.3.**

**Garmonik major va garmonik minorda** esa yetakchi septakkord faqat **kamaytirilgan** holda keladi. Uni kamaytirilgan yetakchi septakkord deb, **kam VII<sub>7</sub>**, belgilab, **uchta kich.3** bo‘yicha tuzadi.

C-dur tabiiy      C-dur garmonik      a-moll garmonik  
kam VII<sub>7</sub>          kam VII<sub>7</sub>          kam VII<sub>7</sub>

145-misol.

Yetakchi septakkordlar tersiyasi juftlantirilgan tonika uchto-vushligiga yechiladi.

C-dur tabiiy      C-dur garmonik      a-moll garmonik  
kam VII<sub>7</sub>          kam VII<sub>7</sub>          kam VII<sub>7</sub>

146-misol.

Yetakchi septakkordning bunday tarzda yechilishi ovozlarning parallel kvintalar bo‘yicha harakatiga yo‘l qo‘ymaslik klassik garmoniya qoidasiga asoslangan. Bu akkord tarkibiga kirgan kvinta intervallari ichkariga yechilishi lozim.

C-dur tabiiy      C-dur garmonik      a-moll garmonik  
kam.5                kam.5                kam.5

147-misol.

Yetakchi septakkordlar ham uchta aylanmaga ega:

1. **Yetakchi kvintsekstakkord** — **VII<sup>6</sup><sub>5</sub>** — akkordning tersiyasidan (II) tuziladi, tersiyasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga (**T<sub>6</sub>**) yechiladi.

2. **Yetakchi terskvartakkord** — **VII<sup>4</sup><sub>3</sub>** — akkordning kvintasidan (IV) tuziladi, tersiyasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga (**T<sub>6</sub>**) yechiladi.

3. **Yetakchi sekundakkord — VII<sub>2</sub>** —akkordning septimasidan (VI) tuziladi, tersiyasi juftlantirilgan tonika kvartsekstakkordiga ( $T^6_4$ ) yechiladi.

C-dur garmonik

kamVII<sub>7</sub> T kamVII<sub>6</sub><sub>5</sub> T<sub>6</sub> kamVII<sub>4</sub><sub>3</sub> T<sub>6</sub> kamVII<sub>2</sub> T<sub>6</sub><sub>4</sub>

148-misol.

Yetakchi septakkordlar dominantseptakkord va uning aylanmali orqali tonikaga yechilishi ham mumkin. VII<sub>7</sub> va D<sub>7</sub> uchta umumiyl tovushga ega. Bu tovushlar VII, II, IV pog'onalarda joylashadi. Akkordlar qo'shilish jarayonida umumiyl tovushlar o'z o'rnida qoladi, VII<sub>7</sub> ning septima tovushi D<sub>7</sub> ning primasiga o'tadi. Natijada VII<sub>7</sub> → D<sub>6</sub><sub>5</sub> ga, VII<sub>6</sub><sub>5</sub> → D<sub>4</sub><sub>3</sub>, VII<sub>4</sub><sub>3</sub> → D<sub>2</sub>, VII<sub>2</sub> → D<sub>7</sub> ga o'tadi.

a-moll garmonik

kamVII<sub>7</sub> D<sub>6</sub><sub>5</sub> kamVII<sub>6</sub><sub>5</sub> D<sub>4</sub><sub>3</sub> kamVII<sub>4</sub><sub>3</sub> D<sub>2</sub> T<sub>6</sub> kamVII<sub>2</sub> D<sub>7</sub>

149-misol.

### 7-§. Subdominantseptakkord


Kichik minorli septakkord **tabiiy majorning II pog'onasida** tuziladi. II pog'ona uchtovushligi yondoshakkord bo'lib, subdominantiga guruhiha kiradi. II pog'onadan tuziladigan septakkord ham subdominantaga tegishli bo'lib, ushbu funksiyasining asosiy septakkordi hisoblanadi. Bu septakkordga **subdominantseptakkord** deyiladi. Belgilanishi — SII<sub>7</sub>, strukturasi, ya'ni uni tashkil qiladigan pog'onalar — II, IV, VI, I, interval tarkibi — kich.3 + kat.3 + kich.3.

**Garmonik major va tabiiy minorning II pog'onasida kichik septakkord** (kamaytirilgan uchtovushligi bilan) ham tuziladi.

Subdominantseptakkord ham uchta aylanmaga ega. Ular dan SII<sub>6</sub><sub>5</sub> ko'proq qo'llaniladi. SII<sub>6</sub><sub>5</sub> IV pog'onadan, SII<sub>4</sub><sub>3</sub>, VI pog'onadan, SII<sub>2</sub> I pog'onadan tuziladi.


Subdominantseptakkordning yechilishi:

1. Dominanta uchtovushligiga o'tishi — xuddi D<sub>7</sub> → Tonikaga yechilgandek bajariladi.



150-misol.

2. Tonika uchtovushligiga — **VII**, tonikaga yechilish qoidalari-ga asoslanib yechiladi. Bunda ham tonikaakkordlari juftlantirilgan tersiya tovushi bilan hosil bo‘ladi.



151-misol.

3. **D<sub>7</sub>**,akkordlari orqali tonikaga yechilishi - **D<sub>7</sub>** bilan **SII<sub>7</sub>**, ikkita umumiy tovushlarga ega. Buakkordlar qo’shilganda umumiy tovushlar o‘z o‘rnida qoladi, qolgan ikkita tovush (VI va I pog‘onalar) bir pog‘ona pastga qo’shni tovushlarga o‘tadi.



152-misol.

**D<sub>7</sub>**, **VII<sub>7</sub>** va **SII<sub>7</sub>**,akkordlar ladning *bosh septakkordlari* deb nom-lanadi. Ma’lumki, septakkordning lad funksiyasi uning negizida joylashgan uchtovushligidan kelib chiqadi, septima tovushi esa bu funksiyaning darajasini yoki kuchaytiradi, yoki bo’shashtiradi. **D<sub>7</sub>** va **VII<sub>7</sub>** asos uchtovushliklari dominanta funksiyasiga, **SII<sub>7</sub>** –sub-dominantaga tegishlidir.

**D<sub>7</sub>** va **VII<sub>7</sub>**, septima tovushlari ladning noturg‘un pog‘onalar (IV va VI) va noturg‘un uchtovushlikka, ya’ni subdominantaga mansub bo‘ladi. **SII<sub>7</sub>** ning septimasi (I pog‘ona) turg‘un pog‘ona bo‘lsa ham, u subdominanta uchtovushligini tashkil qiladigan kvinta tovushi sifatida qabul qilinadi. Shunday ekan, mazkur septakkodlarning septima tovushlari ularning funksiyalarini, ya’ni noturg‘unligini o‘zgartirmay, dissonans ohangini yanada kuchaytiradi.

Boshqa pog‘onalar septakkordlari tarkibida ikkita yoki uchta turg‘un pog‘ona mavjudligiakkordning asos funksiyasini bajaradi.

Shuning uchun **D<sub>7</sub>**, **VII<sub>7</sub>** va **SII<sub>7</sub>**,akkordlar asosiy noturg‘un funksiyalarning yaqqol vakillari bo‘lib, bosh septakkordlar sifatida asarlarda tez-tez qo’llaniladi.

## **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. Ohangdoshlik, akkord, uchtovushlik, septakkord, nonakkord, sekstakkord, kvartsekstakkord, asosiy uchtovushliklar, tonika, subdominanta va dominanta uchtovushliklari, yondosh uchtovushliklar, bifunksionalakkordlar, noturg'unakkordning yechilishi, septakkord turlari, kvintsekstakkord, terskvartakkord, sekundakkord, dominantseptakkord, dominatkvintsekstakkord, dominantterskvartakkord, dominatsekundakkord, kichik yetakchi septakkord, kamaytirilgan yetakchi septakkord, subdominantseptakkord, kichik minorili subdominantseptakkord, kichik subdominantseptakkord tushunchalari ga ta'rif bering.
2. Uchtovushlik turlari farqini ayting.
3. Uchtovushlik aylanmalarining intervalli tarkibini aytib o'ting.
4. Berilgan tovushlardan uchtovushlikning to'rt turini va aylanmalarini tuzing, so'ng chalib bering.
5. Taklif qilingan tonalliklarda asosiy uchtovushliklar bilan aylanmalarini tuzib, S va Dakkordlarini yechib chaling.
6. Tonallikning yondosh uchtovushliklari bilan aylanmalarini tuzib, har birining yechilishini chaling.
7. Turli tonalliklarda quyidagiakkordlar ketma-ketliklarini tuzib chaling:

a) $S^6_4-D_6-T$ ;	b) $T_6-S-D^6_4-T_6$ ;
d) $T^6_4-S_6-D-T^6_4$ ;	e) $T-VI_6-S^6_4-D_6-T$ ;
f) $T_6-IIIS^6_4-VII_6-T_6$ ;	g) $T^6_4-II_6-D-VI^6_4-S-VII_6-D^6_4-T_6$ .
8. Taklif etilgan yoki tanish kuylarga uchtovushliklar bilan aylanmalaridan foydalanib, garmonik jo'rlikni yarating va chalib bering.
9. Berilgan tovushdan septakkordning to'rt turini aylanmalarini bilan tuzing va chaling.
10. Berilgan tonalliklarda dominantseptakkordni aylanmalarini bilan tuzib, yechilishlarini ko'rsatib yozing, so'ng chalib chiqing.
11. Berilgan tovushdan dominantseptakkordni aylanmalarini bilan tuzing, ularni yechib, tonalliklarini aniqlang.
12. Berilgan tonalliklarda yetakchi septakkordni aylanmalarini bilan tuzib, yechilishlarini ko'rsatib yozing, so'ng chalib chiqing.
13. Berilgan tovushdan yetakchi septakkordni aylanmalarini bilan tuzing, ularni bevosita tonikaga va D<sub>7</sub>akkordlari orqali tonikaga yechib, tonalliklarini aniqlang.
14. Berilgan tonalliklarda subdominantseptakkordni aylanmalarini bilan tuzib, yechilishlarini ko'rsatib yozing, so'ng chalib chiqing.
15. Berilgan tovushdan subdominantseptakkordni aylanmalarini bilan tuzing, ularni bevosita tonikaga va D<sub>7</sub>akkordlari orqali tonikaga yechib, tonalliklarini aniqlang.

## VII BOB. XROMATIZM

### 1-§. Xromatizm tushunchasi

Diatonik ladlarning asosiy pog‘onalarini ko‘tarish yoki pasaytirish yo‘li bilan o‘zgartirilishi **xromatizm** deyiladi. Mana shu xilda hosil bo‘lgan yangi xromatik pog‘ona hosila pog‘ona bo‘ladi va shuning uchun yonida alteratsiya belgisi qo‘yilgan asosiy pog‘ona sifatida yoziladi.

Ladning istalgan pog‘onasi xromatik tarzda o‘zgartirilishi mumkin. Majorda IV pog‘onaning pasaytirilishi, minorda VI va VII pog‘onalarning ko‘tarilishi — bu pog‘onalarning xromatik o‘zgarishiga kiradi. Shuning uchun bu o‘zgarishni ifodalovchi belgilari kalit yoniga emas, balki o‘zgaruvchi nota yoniga qo‘yiladi.

Ko‘rsatilgan hollarda xromatik tarzda asosiy pog‘onalar mustaqil o‘zgartiriladi va buning natijasida mustaqil ko‘rinishli ladlar hosil bo‘ladi.

Bundan tashqari, xromatizm tasodifiy, o‘tkinchi, ya’ni tortilishni keskinlashtiruvchi biror pog‘onani vaqtincha o‘zgartiruvchi sifatida ham uchrashi mumkin.

### 2-§. Xromatik gamma. Xromatik gammalarning yozilishi

Xromatik gamma birin-ketin keladigan yarim tonliklardan tarkib topadi. Xromatik gamma mustaqil ko‘rinishli ladlarni hosil qila olmaydi. Uning negizi major yoki minor gammasi hisoblanadi. Xromatik gamma bularning murakkab xilidir. U major yoki minor tabiiy gammalaridagi katta sekundalarning xromatin tovushlar yordami bilan to‘ldirishidan hosil bo‘ladi.

Xromatik gammalarning yozilish qoidasi tonalliklar uyushiqligiga asoslanadi.

Majorda bu qoidalar quyidagi tartibda bo‘ladi: gammaning barcha asosiy pog‘onalar o‘zgarmaydi, katta sekundalar yuqoriga tomon I, II, IV va V pog‘onalarning ko‘tarilishi bilan to‘ldiriladi, pastga tomon VI pog‘onaning ko‘tarilishi o‘rniga VII pog‘ona pasaytiriladi. Pastga tomon harakat qilinganda, katta sekundalar VII, VI, III va II pog‘onalar pasaytirilishi bilan to‘ldiriladi. V pog‘onani pasaytirish o‘rniga IV pog‘ona ko‘tariladi.

Masalan:

C-dur

I      II      III      IV      V      VI      VII      I  
I      VII      VI      V      IV      III      II      I

153-misol.

Yuqoriga tomon harakat qilinganda VII pog'onani pasaytirish va pastga tomon harakat qilinganda IV pog'onani ko'tarish vaqtida o'zgartirilgan barcha pog'ona tovushlari tabiiy yoki major ko'rinishidagi pog'onadosh tonalliklar pog'onalariga teng bo'lmos'i lozim.

Masalan, *lya-diez* va *sol-bemol* tovushlari do majorga pog'onadosh tonalliklarda uchramaydi. Shuning uchun xromatik gamma bo'ylab yuqoriga tomon harakat vaqtida VI pog'ona ko'tarilmasligi va pastga tomon harakat vaqtida V pog'ona pasaytirilmasligi kerak:

*Jonlantirib*

*V.Mozart. "Raggs"*

154-misol.

Minor xromatik gammasining yuqoriga tomon harakatini yozish qoidasi parallel majorga o'xhash bo'ladi. Shuni ham esda saqlash kerakki, minorning I pog'onasi unga parallel bo'lgan majorda VI pog'ona bo'ladi, buning natijasida I pog'ona ko'tarilmaydi, aksincha uning o'rniga II pog'ona pasaytiriladi. Pastga tomon harakat vaqtida, minor xromatik gammasi nomdosh major gammasi singari yoziladi.

Masalan:

a-moll

I      II      III      IV      V      VI      VII      I  
I      VII      VI      V      IV      III      II      I

155-misol.

E.Grig. "Gnomlarning yurishi"  
ijod 54, №3

**Allegro moderato**

156-misol.

Musiqa adabiyotida ayrim vaqtarda xromatik gammalarni ko'rsatilganicha yozish qoidasidan chekinish hollari ham uchraydi. Masalan, tersiyalar bilan xromatik harakat qilingan vaqtda, o'qilishi qulay bo'lishi va tersiyalarni boshqa intervalllar bilan engarmonik tartibda almashtimaslik uchun ana shunday qilinadi.

#### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Qaysi tonalliklarga pog'onadosh tonalliklar deb aytildi?
2. a) Berilgan major tonalliklariga qaysi tonalliklar pog'onadosh bo'ladi? Ularning garmonik aloqasini misollar bilan ko'rsating.  
b) Minor tonalliklarida ham xuddi shu xilda ko'rsating.
3. Xromatizm nima?
4. Xromatik pog'onalar qanday ifodalanadi?
5. a) Xromatizmning qaysi ko'rinishiga alteratsiya deyiladi?  
b) Alteratsiya qilish natijasida qanday intervalllar hosil bo'ladi?
6. Xromatik gamma nima? U qanday tuziladi?
7. Xromatik gammalarning yozilish qoidalari nimaga asoslangan?
8. Major va minor xromatik gammasining yozilish qoidasi qanday bo'ladi?

### VIII BOB. LADDAGI ALTERATSIYA

Noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishi ni keskinlashtiruvchi xromatik o'zgarishlar musiqa nazariyasida alteratsiya deyiladi.

Asosiy pog'onadan katta sekunda oralig'ida turgan pog'ona-larnigina alteratsiya qilish (o'zgartirish) mumkin.

Shunday qilib, majorda quyidagi o'zgarishlar bo'ladi:

II pog'ona ko'tariladi va pasaytiriladi.

IV pog'ona ko'tariladi.

VII pog'ona ko'tariladi.

Minorda esa: II pog'ona pasaytiriladi, IV pog'ona ko'tariladi va pasaytiriladi, VII pog'ona ko'tariladi.

Melodik minorda ko'tarilgan VI pog'ona boshqacha xarakterda bo'ladi. Bu pog'ona tovush qatorning pastga tomon tekis harakati ni tenglashtiradi. Major va minorda alteratsiya sxemasi va misoli:

157-misol.

Pasaytirilgan IV pog'ona ko'pincha engarmonik tarzda ko'tarilgan III pog'ona bilan almashinadi.

158-misol.

Major va minor ladlarida alteratsiya natijasida qator xromatik intervallar hosil bo'la boradi. Bular orasida kamaytirilgan tersiyalar bilan orttirilgan sekstalar ko'proq uchraydi.

Kamaytirilgan 3— sof primaga, orttirilgan 6— sof oktavaga yechiladi. Masalan:

159-misol.

*a-moll*

kam.3

VII ko‘tarilgan pog‘ona    IV pog‘onaning    IV pog‘onaning  
 va II pog‘onaning       pasayishi              ko‘tarilishidan  
 pasayishidan

II pog‘onaning       IV pog‘onaning      VI  
 pasayishi                pasayishi

159-misol (davomi).

### Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Barcha diezli va bemolli major tonalliklariga teng bo‘lgan tonalliklarni aytib bering.
2. Barcha diezli va bemolli minor tonalliklariga pog‘onadosh bo‘lgan tonalliklarni aytib bering.
3. Major xromatik gammalarini pastga va yuqoriga tomon o‘qing (tovushlarni aytib bering).
4. Minorda ham xuddi shu xilda o‘qing.

### Yozma mashqlar:

1. Barcha major va minor tonalliklaridagi noturg‘un tovushlarning alteratsiya sxemalarini yozing.
2. Qo‘llaniladigan barcha tonalliklarda major va minor xromatik gammalarini pastga va yuqoriga tomon yozing.

## IX BOB. OG‘ISHMA. MODULATSIYA. TAQQOSLAMA. TONALLIKLAR POG‘ONADOSHЛИGI

### 1-§. Modulatsiya va og‘ishma tushunchalari

Musiqiy asar qismining biror yangi tonallikka o‘tishi va shu tonallik bilan tugallanishi hollari **modulatsiya** deyiladi.

Musiqiy asar biror yangi tonallikka vaqtincha o‘tsa va yana dastlabki tonallik bilan tugallansa — **og‘ishma** (отклонение) deyiladi.

Og‘ishmalar odatda o‘tkinchi xarakterga ega bo‘ladi, ular musiqiya tarkibida uchraydigan ayrimakkordlar funksiyasini qisqa mudumat ichida ajratib ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Og‘ishmaga misol:

Allegretto

*M.Glinka. "Люблю тебя, милая роза"*

Люб-лю те-бя, мила-я ро - за, ког - да ты, ца-ри-ца цве-тov, ро-сы не стрях-нув е-ще  
 сле-зы, цве-тешь сре-ди злач-ных лу-гов, цве-тешь сре-ди злач-ных лу-гов.

160-misol.

## Modulatsiyaga misol:

**Allegretto**

*A.Dargomijskiy. "O'n olti yosh"*

Mi - mi - nu - lo shest - nad - пятъ лет, no serd - це бы - ло в во - ле. Я  
du - ma - la vesse bе - лый свет, Vесь bе - лый свет наш бор, Po - tok и по - ле.

161-misol.

Yangi tonallikka o'tish, ko'pchilik hollarda tasodify belgi-larning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'ladi, modulatsiya bo'lgan-bo'lmanligini ayrim vaqtarda jo'r bo'luvchiakkordlarga qarab ham belgilash mumkin, chunki tasodify belgilar faqat pastki to-vushlargagina qo'yiladi.

Masalan:

**Bardam va shodiyona**

*R.Shuman. "Ovchi go'shig'i", ijod 68, № 7*

162-misol.

## 2-§. Pog'onadosh tonalliklarga modulatsiya qilish


Modulatsiya musiqada juda keng qo'llaniladi. U ifoda vositasi sifatida chuqur badiiy ahamiyatga ega bo'ladi va musiqaning rang-barang ohanglarda eshitilishiga hamkorlik qiladi. Pog'onadosh tonalliklar tovush tarkibida birlashganlari uchun shu pog'onadosh tonalliklardagi modulatsiyalar yoqimli va ravon bo'ladi. Dominanta va uning parallel tonalligiga qilingan modulatsiyalarini juda ko'p uchratish mumkin. Subdominanta va uning parallel tonalliklariga qilingan modulatsiya, odatda, og'ishmaga o'xshagan bo'ladi.

Pog'onadosh tonalliklarga qilingan modulatsiyaga misollar: a) *mi-bemol* majordan dominanta tonalligiga:

**Andantino**

*V.Motsart. Andantino*

163-misol.



*163-misol (davomi).*

Moderato Tempo di valse

P.Chaykovskiy. "Torli asboblar  
orkestri uchun serenada", II qism

*164-misol.*

b) *sol minordan* minor dominantasi tonalligiga:

V.F.Bax. Allegro

*165-misol.*

d) *sol majordan* parallel tonallikka:

*166-misol.*

e) re minordan parallel tonallikka:

R.Shuman. "Shamol qo'shig'i",  
ijod 68, № 41

Xalq kuyi ruhidə

167-misol.

## X BOB. KUY. KUY HARAKATI TURLARI. SEKVENSIYA

### 1-§. Musiqa asarida kuyning ahamiyati

Tovushlarning bir ovozli shaklda ma'lum lad va metr hamda ritm jihatdan uyushib kelishiga kuy deyiladi.

Musiqiyo mazmun jo'rsiz, yakka kuy orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir ovozli musiqa asarlari tekstli (qo'shiq) va tekstsiz (cholg'u kuylari) holida bo'lishi mumkin. Tekstli kuy mazmuni ancha yorqin va tushunarli bo'ladi. Bunga bir ovozli kuylar bo'lgan xalq qo'shiqlari va raqlari misol bo'la oladi. Ularning mazmuni xilma-xildir. Bunday asarlarda xalqning boshdan kechirganlari va orzu-niyatlari, hayoti aks ettirilgan.

Xalq musiqa ijodida ikki ovozli va ko'p ovozli asarlar ham uchraydi. Lekin bunday asarlarda nechta ovoz (qo'shimcha ovoz) bo'lishidan qat'i nazar, asosiy kuy yo'nalmasi barcha tovushlarning qo'shilib eshitilishidan tashkil topadi.

Ko'p millatli mamlakatimiz xalqlarining qo'shiqlari kuyga juda ham boydir. Qo'shiqlarning kuy tarkibi ularning xilma-xil mazmuniga nihoyat mosdir. Bundan tashqari, turli xalqlarning qo'shiqlari ham, raqs kuylari ham o'zlariga xos kuy tuzilmalari-ga ega bo'lishi bilan bir-biridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, har bir xalq qo'shig'ida o'ziga xos milliy kolorit bo'ladi.

Xalq qo'shiq va raqlariga misollar:

Sekin-asta, borgan sari tezlatib

Rus raqsi

168-misol.

## 2-§. Kuyning harakat yo‘nalmasi va uning diapazoni

### O‘tuvchi va yordamchi tovushlar.

Kuy harakati o‘zining rivojlanish jarayonida xilma-xil shaklarga kiradi. Kuy harakatining shakli turli yo‘nalmalardan tashkil topadi. Ulardan eng asosiyilar:

- ko‘tariluvchi harakat;
- quyilashuvchi harakat;
- ko‘tariluvchi va quyilashuvchi harakatning bir tekisda almasib turishidan hosil bo‘ladigan to‘lqinsimon harakat;
- tovushning takrorlanishidan hosil bo‘ladigan gorizontal harakat.

Bu yerda shuni ham ko‘rsatib o‘tish kerakki, dastlabki uchta harakat: pog‘onama-pog‘ona, intervalma-interval (sakrama) yoki aralash bo‘lishi mumkin.

To‘lqinsimon harakat u qadar katta bo‘lmagan diapazonda yoki sekin-asta ko‘tarilish yoki quyilanish yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Harakat gammaning turli pog‘onalarida sekin-asta ko‘tarilish yoki quyilanish yo‘li bilan borsa, kuy ohangda takrorlanib turadi. Kuyning bu xildagi tuzilmasi **sekvensiya** deyiladi.

Kuyning eng yuqori nuqtasi yoki mintaqasi (dinamik harakatning eng zo‘raygan paytiga mos kelsa) **kulminatsiya** (avj) deyiladi.

Kuy harakati shakllariga misollar:

- a) gorizontal harakat:

*Rus xalq qo‘srigi "Ладушки"*



169-misol.

- b) sekin-asta ko‘tariluvchan harakat: aralash va to‘lqinsimon quyilashuvchi harakat:

*V.Motsart."Yengil variatsialar"*



170-misol.

- d) sakrama harakat:

*Allegro moderato*

*P.Chaykovskiy. "Troykada",  
ijod 37 bis №II*



171-misol.

**Moderato**

**I.S.Bax. "Menuet"**

**172-misol.**

e) sekvensiya:

**Allegretto**

**N.Myaskovskiy. "Qadimgi uslubda",  
(fuga), ijod 43, №2**

**173-misol.**

f) kulminatsiya:

**Con spirito**

**I.S.Bax. Ikki ovozli invensiya, №9**

**174-misol.**

Balandlik jihatidan farq qiladigan tovushlar oralig'i kuy harakatining diapazoni deyiladi.

Yetinchi bobdaakkord bo'yicha yo'nalgan kuyning ko'p uchrab turishi haqida aytligan edi. Ravon harakat vaqtidaakkord bo'yicha joylashgan tovushlar oralig'iakkord tarkibiga kirmaydigan tovushlar bilan to'ldiriladi va bu xildagi tovushlar o'tuvchi tovushlar deyiladi. O'tuvchi tovushlar diatonik holda ham, xromatik holda ham uchraydi.

Masalan:

**Ukraine xalq qo'shig'i "Oý, за гаэм, гаэм"**

**175-misol.**

**Con moto**

**E.Grig. "Poetik manzara", № 8**

**176-misol.**

Akkord tarkibidagi tovushlardan sekunda yuqori yoki pastda joylashgan va harakat vaqtida yanaakkordtovushiga qaytuvchi tovushlar yordamchi tovushlar deyiladi.

Yordamchi tovushlar diatonik va xromatik holda uchraydi va diatonik hamda xromatik pog'ona bilan yonma-yon joylashadi.

Masalan:

Сме-ло то-ва-ри-ши в но - гу ду-хом о-креп-нем в борьбе

177-misol.

### 3-§. Kuyning tarkiblarga bo'linishi

**Tuzilma. Sezura. Davriya. Jumla. Kadensiya. Ibora. Motiv**

Kuy nutq kabi tinimsiz davom etavermay, tarkiblarga bo'linadi. Kuy yoki musiqiy asarning tarkiblari **tuzilma** deyiladi; ularning cho'zimi ham turlicha bo'ladi. Tuzilmalar chegarasi oralig'iga **sezura** deyiladi. Sezura v belgisi bilan yoziladi. Bu belgi, odatda, darsliklarda qo'llaniladi.

Tuzilmalar musiqiy fikrning tugallanish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Tugallangan musiqiy fikrni ifodalovchi musiqiy tuzilmaga **davriya** deyiladi. Oddiy davriya sakkiz taktdan iborat bo'ladi.

Davriya ikki qismga bo'linadi, ular **jumla** deyiladi Musiqiy tuzilmaning tugallanishiga **kadensiya** deyiladi.

Kuyda kadensiya ikki va undan ortiq tovushlarning birin-ketin tugallanishi bilan ifodalanadi. Bu tovushlar tuzilmani turg'un yoki noturg'un holda tugallanishga olib keladi.

Shuning uchun kadensiya quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

1) *to'liq o'rnashgan* kadensiya — kuyda tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tugaydi;

2) *to'liq o'rnashmagan* kadensiya — tonika uchtovushligining tersiya yoki kvinta tovushi bilan tugaydi;

3) *yarim kadensiya* — noturg'un tovush bilan tugaydi. Bundan tashqari, dominanta uchtovushligining yoki dominantakkord primasi bo'lgan V pog'ona bilan ham tugashi mumkin.

Davriyaning birinchi jumlesi yarim kadensiya yoki to'liq o'rnashmagan kadensiya bilan tugallanadi va u tugallanmagan asar taassurotini qoldiradi. Davriyaning ikkinchi jumlesi esa dom to'liq o'rnashgan kadensiya bilan tugaydi.

Agar davriya o'zining dastlabki tonalligi bilan tugasa, *yagona tonallik* deyiladi.

*Allegretto*

*V.F.Bax. "Bahor"*

178-misol.

178-misol (davomi).

Davriyaning tugallanish vaqtida modulatsiya hosil bo'lsa, modulatsiyali davriya deyiladi.

Jumla ***ibora*** deb ataladigan ikkita kichik tuzilmaga bo'linadi. Musiqada shunday jumlalar uchraydiki, ularda iboralar sezura bilan ajralgan bo'ladi, yana boshqa jumlalar uchraydiki, ularda iboralar butun bir kuyga ulanib ketadi.

Masalan:

a)

*P.I.Chaykovskiy. 5-simfoniya, III qism*

b)

*R.Shuman. ijod 68, №26*

179-misol.

Ikki taktli ibora bir butun tuzilmadan iborat bo'ladi yoki bir taktli motivlarga ajrab ketadi. Bitta asosiy metrik zARBNI o'z ichiga olgan tuzilma ***motiv*** deyiladi. Motivning kuchsiz davri bir yoki bir necha tovushlar bilan ifodalanishi mumkin. Motivning boshlanishi yoki tugallanishi birgina takt chegaralarida bo'lishi shart emas, u takt oldidan boshlanishi va navbatdagi taktning yarmida tugallanishi ham mumkin. Bir taktdan kichik bo'lgan motivlar ham uchraydi.

## XI BOB. TRANSPOZITSIYA. PARTITURA. PARTIYA

### 1-§. Transpozitsiya usullari

Bastakor musiqiy asar yaratmoqchi bo'lar ekan, bu asar mazmuniga eshitilishi va pardalari mos keladigan tonalliklarni tanslaydi. Lekin shu bilan birga, barcha musiqiy asarlarni dastlabki tonalligidan pastga yoki yuqoriga qarab istagan biror tonallikka ko'chirish mumkin.

Musiqiy asar yoki kuyning biror tonallikdan boshqa bir tonallikka ko'chirilishi **transpozitsiya** deyiladi.

Transpozitsiya vokal ijrochiligidagi keng qo'llaniladi. Ashulachilar asarlarni ovozlari diapazoniga (pardalar oralig'iga) qulay keladigan tonallikda ijro etaveradilar. Ma'lumki, bitta qo'shiq yoki romans ovoz diapazonlariga moslanib xilma-xil tonalliklarda nashr qilinadi.

Transpozitsiya biror musiqiy asarning asl ko'rinishidan boshqa bir asbobga, masalan, skripka uchun yozilgan pyesani alt yoki violonchelga moslab qaytadan yozishda ham qo'llaniladi.

Transpozitsiya *uch usulda*:

- 1) mazkur intervalda o'zgarish yasash;
- 2) kalit belgilarini o'zgartirish;
- 3) kalitning o'zini o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Biror intervalda transpozitsiya qilish lozim bo'lganda, oldin transpozitsiya qilinadigan tonallik aniqlanadi. Masalan, Re majordan kichik tersiya yuqoriga transpozitsiya qilsak, yangi tonallik fa major bo'ladi. Kalit yonidan si qo'yiladi. Barcha notalar, original tonallikda qaysi pog'ona vaakkordlarga mos kelishi oldindan aniqlanib, fa major tonalligiga ko'chiriladi.

Quyidagi misolda kichik tersiyani yuqoriga ko'chirish usuli ko'rsatilgan:

180-misol.

*Ikkinchchi usul* xromatik yarim ton yuqoriga yoki pastga qarab yarim tonga transpozitsiya qilishdan iborat. Bunday hollarda kalit yonidagi belgilar o'zgaradi, notalar o'z holicha qoladi, tasodifiy

belgilar esa yangi kalit belgisining ko‘tarilishi yoki pasaytirilishiga qarab o‘zgarib turadi.

Masalan, *ly*-bemol majordan, *ly* majorga transpozitsiya qilsak:

a) kalit yonidagi to‘rt bemolni uchta diez belgisi bilan almashtiramiz;

b) agar tasodifiy belgilar uchrasa, bekarlarni diezlar bilan, bemollarni esa bekarlar bilan almashtiramiz.

Xromatik yarim tonni yuqoriga transpozitsiya qilish misoli:

Вдоль да по реч - ке, вдоль да по Ка - зан - ке

си - ний се - ле - зень плы - вет.

*181-misol.*

*Uchinchi usul* shundan iboratki, unda nota yo‘liga yangi kalit tanlanib, original tonallik tonikasi qayerga yozilgan bo‘lsa, yangi tonallik tonikasi ham o‘sha yerga yozilaveradi. Bu usul yuqorida aytilgan ikki usulga nisbatan ancha kam qo‘llaniladi, chunki bunda notalarni barcha kalitlarda erkin o‘qiy olish malakasi tab lab qilinadi.

## 2-§. Tonalliklarni aniqlash

Kalit va tasodifiy alteratsiya belgilari, kuyning tuzilishi, uning tonikasi, uchtovushligini belgilovchi asosiy va tayanch tovushlar berilgan kuyning lad va tonalliklarini aniqlovchi asosiy vositalar hisoblanadi.

Kuyning so‘nggi tovushidan ham tonallikni aniqlash mumkin bo‘lavermaydi. Chunki ba’zi asarlarda, ko‘proq xalq qo‘shiqlarida kuy oxirida birinchi pog‘onadan tashqari boshqa pog‘onalar ham uchrab turadi.

Kuyning tovushi ham birinchi pog‘ona bo‘lmashligi mumkin.

## Masalan:

*D-dur*

*Ris xalq qo'shig'i "Quyoncha"*

182-misol.

Yuqorida ko'rsatilgan rus xalq qo'shig'ining kuyi V pog'ona bilan boshlanadi. Kuyning birinchi qismida uchraydigan lyapaytovush tayanch tovush hisoblanadi, u kuyning boshqa bir tayanch tovush fa (III pog'ona) bilan almashinib turadi. Bu har ikkala tovush kuy tonikasini oxirigacha ifodalamaydi. Qo'shiqning ikkinchi qismida tonika uchtovushligi (sof kvinta re-lya) sezila boshlaydi. Qo'shiq III pog'ona bilan tugallanadi.

Quyidagi boshqa bir misol minor tonalligida yozilgan kalit belgilari va tasodifiy belgilardan, shuningdek, kuyning tuzilishi, mi minor tonalligi ekanligini aniqlash mumkin. Haqiqatan ham uning V pog'onadan boshlanishi va II pog'onada tugallanishidan qat'i nazar bu qo'shiq minor tonalligidadir.

183-misol.

Agar kuy jo'r bo'luchchi ovozlarga ega bo'lsa, uning ladi va tonalligini aniqlash yanada oson bo'ladi. Buni aniqlashga jo'r bo'luchchiakkordlar katta yordam beradi. Oxirgiakkord ko'pchilik hollarda tonika uchtovushligidan tuzilgan bo'ladi.

Ko'rsatilgan qoidalar xilma-xil uslubdagi musiqaga taalluqlidir.  
Masalan:

*R.Shuman. "Kichik romans",  
ijod 68, №19*

**Tezlatmasdan**

184-misol.



184-misol. (davomi).

Sho'x

N.Myaskovskiy. "Охотничья перекличка"

185-misol.

### 3-§. Partitura. Partiya

Partitura italiyancha so'z bo'lib taqsimlash, bo'lish degan ma'noni bildiradi. U XVI asrdan boshlab ko'p ovozli musiqa asarini takt chizig'i bilan birlashtirilgan ikkita va undan ortiq nota yo'liga notalashtirish usuli hisoblanadi. Zamonaviy partitura shakli XIX asr o'rtalarigacha butunlay shakllanib bo'ldi. Xor mu-siqasini asarlari partiturasida yuqori nota yo'llarida ayollar ovozlari — soprano, pastrog'ida alt, kontralto — joylashadi, pastki yo'llarda erkaklar ovozlari — tenor, bariton, bas.

J.Gabrieli. Xor

186-misol.

Har bir ovoz uchun alohida nota yo'li ajratiladi. Bunga partiya (lotincha qism) deyiladi.

Orkestr cholg'u asboblari xususiyatlari bo'yicha to'rtta guruhga bo'linadi. Bular torli-kamonli asboblar guruhi, yog'och puflama asboblari, mis puflama asboblari, zarbli asboblar guruhi. Orkestr partiturasini ham shunday taqsimlanib yozildi. Partituraning yuqori nota yo'llarida yog'och puflama asboblar guruhi partiyalari yoziladi. Undan so'ng (pastga tomon) mis puflama asboblar, ketidan zarbli va torli-kamonli asboblar partiyalari beriladi. Partituranada guruhlar yana bitta to'g'ri kavs bilan birlashtirilib, boshqa guruhlardan ajralib turadi. Har bir guruhdagi cholg'ularning partiyalari ularning tessitura bo'yicha, ya'ni yuqori tessiturdagi cholg'ular teparoq, past tessiturali cholg'ular pastroq navbat bilan yozildi.

*N.Rimskiy-Korsakov. Ispancha kaprichchio, I qism*

*Vivo e strepitoso* ♩=126

The musical score consists of ten staves of music for an orchestra. The instruments listed on the left are: Flauto, Piccolo, 2 Flauti, 2 Oboi, 2 Clarinetti in A, 2 Fagotti, 4 Corni in F, 2 Trombe in A, 3 Tromboni e Tuba, Timpani in E, A, Triangolo, Tamburino, Piatti, and Cassa. The music is in 2/4 time, with a key signature of two sharps. The dynamic marking 'Vivo e strepitoso' and tempo '♩=126' are at the top. The score includes various musical elements such as eighth-note patterns, sixteenth-note patterns, and sustained notes with grace marks. Dynamics like 'ff', 'f', and 'mf' are indicated throughout the score.

187-misol.

in A

3 Tromboni  
e Tuba

Timpani  
in E,A

Triangolo

Tamburino

Piatti

Cassa

*187-misol. (davomi).*

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Kuylarning lad va tonalliklari qanday yo'llar bilan aniqlanadi?
2. Transpozitsiya nima?
3. Transpozitsiya qanday bajariladi? Transpozitsiyaning har bir usuli haqida gapirib bering.

### **Mashqlar:**

O'qib o'rganish uchun yozilgan musiqiy asarlarning lad va tonalliklarini aniqlang.

## **XII BOB. MELIZMLAR**

Musiqa bezaklari: **forshlag, mordent, gruppetto, trel.**

Kuyning asosiy tovushlarini bezatuvchi ayrim ohangdor figuralarga musiqqa bezaklari deyiladi. Musiqqa bezaklari o'lchovi o'zlaridan oldin keladigan cho'zimlar yoki bezatuvchi tovush cho'zimiga teng keladi, shuning uchun ularning o'lchov hissalari mazkur taktning asosiy hissalari yig'indisiga qo'shilmaydi.

Musiqqa bezaklarini asosiy tovushdan sekunda oralig'ida joylashadigan yordamchi tovushlar hosil qiladi.

Ular nota yozuvida maxsus belgilar yoki kichik shriftli notalar bilan ko'rsatiladi.

Musiqada quyidagi musiqqa bezaklari qo'llaniladi: forshlag, mordent, gruppetto, trel.

Forshlag ikki xilda uchraydi: uzun va qisqa forshlag.

Qisqa forshlag bir yoki bir necha tovushdan tuzilib, yonma-yon joylashgan tovush cho'zimi hisobidan juda qisqa ijro etiladi. Bir tovushdan tuzilgan qisqa forshlag, o'rtasidan chizilgan sakkiztalik

nota ko'rinishida yoziladi. Bir necha tovushdan iborat qisqa forshlag qovurg'achalar bilan birlashtirilgan o'n oltitaliklar bilan belgilanadi.

Masalan:

*F.Shubert. "Musiqali lahza", ijod 94, №3*

**Allegro moderato**

188-misol.

Uzun forshlag bir tovush yordami bilan yonma-yon turgan tovush cho'zimi o'lchovida ijro etiladi.

Uzun forshlagni ifodalovchi kichik nota belgisi asosiy tovush cho'zimining yarmiga teng keladigan o'lchovda yoziladi va ijro etiladi. Uzun forshlagni ifodalovchi nota belgisi o'rtasidan chizilmaydi.

Masalan:

*V.Motsart. "Vals"*

*yozilgan*

*ijro etilishi*

189-misol.

Yoniga nuqta qo'yilgan nota yonida keladigan forshlag shu notaning uchdan ikki hissasiga baravar bo'ladi. Masalan:

*yozilgan      ijro etilishi*

190-rasm.

Birinchi belgi oddiy mordent bo'lib, yordamchi tovush asosiy tovushning yuqori tomonidan olinishi kerakligini bildiradi.

Masalan:

191-misol.

Ikkinchisi chiziqli mordent bo'lib, yordamchi tovush asosiy tovushning ostki tomonidan olinishi kerakligini bildiradi.

Masalan:

192-misol.

Allegro non troppo

I.S.Bax. *Illi ovozli invensiya, №15*

193-misol.

Gruppetto to‘rt yoki besh tovushdan iborat kuy tuzilmasi shaklida bo‘ladi.

Ba’zida undagi tovushlar quyidagicha joylashishi ham mumkin: yuqorida yordamchi tovush, asosiy tovush, quyi yordamchi tovush va yana asosiy tovush.

Ayrim vaqlarda gruppetto asosiy tovush bilan boshlanadi va yuqorida ko‘rsatilgan tuzilma bilan tugaydi.

Gruppetto belgisi nota ustida yoki oralig‘ida qo‘yiladi. Uning ijo etilishi belgining qaysi xilda qo‘yilishiga bog‘liq bo‘ladi. Gruppetto belgisining ostida yoki ustida qo‘yilgan xromatik belgi yordamchi tovushning alteratsiya qilinishi kerakligini bildiradi. Gruppetto belgisi bilan ko‘rsatiladi.

Gruppetto misollari:

L.Betxoven. *Sonata. ijod 49, №1, I qism*

Andante  
dolce

1)

2)

3)

1) ijro etilishi

2) ijro etilishi

194-misol.

Bir tekisda ravon almashib turadigan ikkita (asosiy va yordamchi) tovushdan tuzilgan kuy figurasi trel deb ataladi.

Trel qaysi tovush o'rnida ijro etilsa, o'sha tovush cho'zimiga teng bo'ladi va u **tr** yoki **tr** ishorasi bilan belgilanadi.

Trel belgisi nota ustidan qo'yiladi. U xilma-xil uslublarda ijro etilishi mumkin:

a) ustki yordamchi tovush bilan boshlanganda:

Andante grazioso

*V.Motsart. Sonata. B-dur I qism*

*ijro etilishi*

195-misol.

Asosiy tovushlardan keyin qo'yilgan kichik notalar trelning quyi yordamchi tovush bilan tugallanishi kerakligini bildiradi:

b) ostki yordamchi tovush bilan boshlanganda:

Allegretto grazioso

*V.Motsart. Sonata. №13 III qism*

*ijro etilishi*

196-misol.

d) asosiy tovush bilan boshlanganda trelni bunday ijro etish keyingi davr musiqasida ham, hozirgi zamon musiqasida ham ishlataligan:

*V.Motsart. Sonata. №1, Rando*

*ijro etilishi*

197-misol.

### Ijrochilik uslubining ayrim belgilari

Ikkinchi bobda ko'rsatilgan nota belgilaridan tashqari yana boshqa xil belgilar ham borki, ular odatda ijrochilik uslubini ko'rsatishda qo'llaniladi.

Bularga: legato, stakkato, portamento va arpedjiatolar kiradi.

Legato uslubi quyidagi tovushlarni bir-biriga bog'lanan holda ijro etilishini bildiradi va bog'lanadigan tovushlar yoysimon chiziq bilan birlashtiriladi. Legato belgisi bog'lanma ijro etiladigan nota belgisining ustidan yoki ostidan qo'yiladi.

Masalan:

*M.Glinka. "To'rumy"*



198-misol.

Legato belgisini tovushlar cho'zimini uzaytiruvchi liga belgisi bilan aralashtirmaslik kerak (12-§ ga qaralsin).

Stakkato uslubi kuy tovushlarini,akkordlarni qisqa-qisqa va chertib ijro etish kerakligini ifodalaydi. Stakkato uslubi nota doirachalari ustida yoki ostida qo'yiladigan nuqtalar bilan ko'rsatiladi.

Masalan:

Allegro

*R.Shuman. "Jasur chavandoz"*




199-misol.

Portamento yoki glissando uslubi xromatik gamma (fortepyanoda diatonik gamma) bo'ylab pastga yoki yuqoriga tomon sirg'anish kerakligini bildiradi. Bunda bir-biridan keng intervalda joylashgan ikki tovush oralig'i to'ldiriladi.

Portamento ko'pincha ashula (vokal) ijrochiligi uchun, glissando esa cholg'u musiqasi ijrochiligi uchun xosdir.

Portamento belgisi to'ldirilishi lozim bo'ladigan ikki notani birlashtiruvchi to'lqinsimon chiziqdan iborat bo'ladi.

Masalan:



200-misol.

Bundan tashqari, portamento belgi fortepyano ijrochiligidida boshqa ahamiyatga ham egadir. Bunda u ayrim tovushlar yoki akkordlarini (ayniqsa, takrorlanuvchi akkordlarni) birlashtirib chalinadigan «non

legato» va stakkato belgilari qo'shilishini bildiradi va quyidagicha yoziladi (201-misol).

Arpedjiato uslubiakkordlarni alohida-alohida olish kerakligini bildiradi, bundaakkord tuzuv-chi tovushlar tez harakat bilan pastdan yuqoriga qarab chalinadi.

Arpedjiato cho'zimi chalinadiganakkordcho'zimiga teng bo'ladi.

Arpedjiato belgisi chalinishi lozim bo'lganakkord oldidan qo'yiladigan to'lqinsimon vertikal chiziqdandan iborat bo'ladi.

Masalan:

*P.Chaykovskiy. "Oydin kechalar"*

202-misol.

Arpedjiato ba'zida kichik notalar bilan ham yoziladi:

*A.Бародин. "Трезы"*

203-misol.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Musiqa bezaklari nima?
2. Musiqa bezaklari qanday hosil bo'ladi?
3. Musiqada musiqa bezaklarining qaysi shakllari qo'llaniladi? Musiqa bezaklarining turlarini aytib bering.

#### Mashqlar:

Musiqaiga oid pedagogika adabiyotidan musiqa bezaklarining barcha turlariga misollar toping, ularning ijro etilish uslubi bilan tanishing va fortepyanoda chaling.



201-misol.

# GARMONIYA

## I BOB. GARMONIYANING ASOSIY XUSUSIYATLARI

### 1-§. Garmoniya haqida tushuncha

**Garmoniya** – yunoncha so‘z bo‘lib, «bog‘liqlik, muvofiqlik, mutanosiblik» degan ma’noni anglatadi.

Musiqada bir necha tovushlarning ohangdoshlikka birlashishi, ohangdoshliklarning mantiqiy bog‘lanib ketma-ket kelishiga **garmoniya** deyiladi.

Garmoniya musiqaning muhim badiiy-ifodaviy vositasi bo‘lib, **akkordlar haqidagi fandir**.

Garmoniya fan sifatida quyidagilarni o‘rganadi:

- akkordlar va ularning tuzilishi hamda to‘rtovozlik bayonda to‘g‘ri ifodalanishini;
- akkordlarning funksional bog‘liqligi va ularning tez-tez uchrab turadigan ketma-ketliklarini;
- akkordlarning to‘g‘ri ovoz yo‘nalishiga asoslangan bog‘lanishlarini;
- turli tipdagи kadensiyalarini;
- akkordli va noakkordli tovushlarni;
- asar rivojlanishida tonal rejasining asosiy qoidalarini.

Musiqiy asarda garmoniya kuy, metroritm, temp, faktura, dinamika bilan birgalikda bog‘lanib keladi. Musiqiy asar rivojlanishida garmoniya kuyni boyitadi. Garmoniya musiqaning boshqa elementlariga hamohang kelib, ularning yanada ta’sirli, maroqli bo‘lishiga xizmat qiladi. Fikrimizning isboti uchun kompozitor A.Muxamedovning lirik kuyini tinglaymiz.

#### Andante cantabile

*1-misol.*

Shu kuyni takroran garmonik jo'rlikda tinglab ko'rsak, biz unga garmoniya qanday «bo'yoqlar» bergenini, kuy nechog'liq boyiganini eshitamiz.

**Andante cantabile**

2-misol.

Garmoniyaning asosiy tushunchalari — **akkord, lad funksiyasi, ovoz yo'nalishi** — butun kurs davomida ko'rib chiqiladi.

Uch yoki ko'proq tovushlardan iborat ohangdoshlik **akkord** deyiladi.

Ko'p asrlar mobaynida ko'p ovozli musiqada akkordning tersiyali tuzilishi ustunlik qiladi.

**Lad funksiyalari** akkordlar almashinuvidagi turg'unlik bilan noturg'unlikning navbatlashib kelishida yuzaga chiqadi. Turg'unlik holatini tonika, noturg'unlikni esa boshqa funksiyalar ifodalaydi.

Garmonik harakatda bir akkordning tovushlari keyingi akkord tovushlariga o'tadi, ya'ni **ovoz yo'nalishi** tashkil topadi. Ovoz yo'nalishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunib, musiqiy ijodiy jara-yonda qisman yangilanadi.

## 2-§. Akkordlar

Garmoniyada paydo bo'ladigan tovushlarning birikmalari va ularning o'zaro aloqasi muhimdir. Tovushlarning birikmalari

har xil bo‘lishi mumkin. Ko‘p ovozli musiqadaakkord tuzilish prinsiplari har xil — sekundali, tersiyali, kvartali bo‘lishi mumkin.

Akkordning tersiyali tuzilishi XVI — XIX asrdagi klassik garmoniyadan kelib chiqadi. Hozirgi kungacha musiqada u yetakchi ahamiyatini yo‘qotmadni (u bilan bir qatordaakkord tuzilishining boshqa prinsiplari ham ko‘p uchraydi).

Keng tarqalgan majorli va minorli uchtovushliklar eng muhimakkordlardir. Eslatamiz, bu uchtovushliklar ikkita tersiyadan iborat, chekka tovushlari kvinta intervalini hosil qiladi. Ulardan tashqari yana ikkita uchtovushlik bor — orttirilgan va kamaytirilgan uchtovushlik. Akkordlarning har biri o‘ziga xos rangdorligiga ega bo‘lib, ifodaviy imkoniyatlar muayyan doirasidan iborat.

Septakkord murakkabakkord, uning tuzilishi — uchtovushlikka tersiya qo‘silib hosil bo‘ladi, uning pastki va yuqori ovozlarning intervali — *septima* deyiladi.

Akkordlar ohangiga ko‘ra konsonansli va dissonansliakkordlarga bo‘linadi. Major va minor uchtovushliklar konsonans intervallardan iborat bo‘lib, konsonansakkordlar hisoblanadi. Dissonansliakkordlarga kamaytirilgan va orttirilgan uchtovushliklar, septakkordlar va boshqa o‘z ichiga dissonans intervallarni olgan ohanglar kiradi.

Dissonansliakkordlarning muhim xususiyatidan biri keskinlikdir. Shuftayli ular konsonansga o‘tishini talab qiladi.

Har bir asarda konsonans va dissonansakkordlaridan albatta foydalaniladi. Musiqa madaniyati rivojlanishi mobaynida dissonanslikning idrok etilishi o‘zgardi. XXI asrda dissonanslik ohangi qulqoqla sezilarli darajada yumshoqroq eshitiladigan bo‘ldi. Masa- lan, o‘rtasrarda V pog‘onada tuzilgan dominantseptakkord dissonansligi tufayli «musiqa shaytoni» deb nom oldi. Hozirgi kunda esa bu septakkord keng tarqalganakkorddir.

Akkordlarning xarakteri va ahamiyati bas ovozida qaysi tovush olinganligi vaakkordning joylashuviga bog‘liq. Akkordtovushlarning zichligi uning ohangiga qalinlik bag‘ishlaydi, va aksincha, tovushlar kengligiakkordga bo‘rtma ohangni beradi.

### 3-§. Musiqiy faktura

Musiqa asarida garmoniya bilan birga kuy, metr-ritm, temp, faktura, dinamika yuzaga keladi. Musiqiy materialning ba-

yon qilish uslubi musiqiy faktura deb ataladi. Musiqiy faktura musiqaning asosiy elementlari — kuy, garmoniya, ritmlarning uyg‘unlashuvidan hosil qilinadi.

Garmoniya ma’nodorligi va rangdorligi uchun nafaqat muayyanakkordlarning tanlab olinishi va ular orasida paydo bo‘ladigan munosabatlar, balki musiqiy fakturaning bayon turi va usuli muhim rolni o‘ynaydi.

U yoki bu tamoyilga asoslangan bayonning tipik shakllari mayjud.

Musiqqa matnida faktura turlarining xilma-xilligi uchrab turadi. Ularni to‘rtta asosiy turga taqsimlash mumkin:

- monodik (bir ovozli bayon);
- polifonik (ko‘p ovozli bayon);
- akkordli (ko‘p ovozli bayon);
- gomofonik-garmonik (ko‘p ovozli bayon).

**Monodik tuzilma** garmonik jo‘rligisiz bo‘lgan bir ovozli kuy harakatdan iborat. Bu tuzilma ko‘proq xalq musiqasiga, bir ovozli qo‘sishqqa xosdir. Kuyning o‘zi mustaqil tarzda, boshqa ifodaviy vositalardan farqli o‘laroq, muayyan fikr, his-tuyg‘u va kayfiyat-larni gavdalantirishga qodir.

*O‘zbek xalq qo‘sishig‘i "So‘ramaysan"*

Moderato  $\text{J}=78$

Ne-chuk be - rah - mazo - lim - san  
gi-rif - to - ring - ni so'r - may- san.  
3-misol.

Cholg‘u musiqasida monodik tuzilma yakka asbob uchun yozilgan asarlarga xos.

Garmoniya ko‘p ovozlilikning har qanday turida vujudga keladi.

**Polifonik tuzilma** ko‘p ovozlilik bo‘lib, unda barcha ovozlar kuy jihatidan teng huquqli va mustaqil, individuallashtirilgan ifodaviy ahamiyatga ega bo‘ladi. Asosan ovozlar soni asar davomida o‘zgarmay, ohangning to‘liqligini saqlab keladi.

**Akkordli tuzilma** faqatakkordlardan tashkil topadi. Odatda bu tuzilma bitta ritmga asoslangan: barcha ovozlar bir xil cho‘zimlar bilan bayon etiladi. Ko‘pincha ushbu tuzilmada xor asarlari yozildi.

*Gomofonik-garmonik bayon* xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Bu tuzilmada bir ovoz (yuqori, o'rta yoki pastki) yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi. U boshqa ovozlardan aniq ajralib turadi, ya'ni kuy jo'rligi bilan bayon qilinadi. Mazkur tuzilmadan xilma-xil janrlarda foydalaniladi. Uning har birida kuyni jo'rlikdan ajratish usullar o'ziga xosdir.

[Moderato]

*P.Chaykovskiy*

The musical score consists of three staves of music in 3/8 time, major key, with a key signature of one sharp. The top staff is for the upper voice, the middle staff for the middle voice, and the bottom staff for the bass. The lyrics are written below the notes. The first section starts with 'Средьшумно-го ба - ла, слу - чай - но, в тре'. The second section begins with 'во-ге мир-ской су - е - ты, те - бя я у - ви - дел, но'. The third section continues with 'тай - на тво - и по-кры - ва - ла чер - ты'. The score includes dynamic markings such as 'p' (piano), 'poco cresc.' (poco crescendo), and '4-misol.'

4-misol.

Ko'rsatilgan P.I. Chaykovskiy romansida jo'rlikning akkordli bayoni ta'kidlanadi, bas ovozi negizdek, garmoniyaning asosi bo'lib, past registri bilan ajralib turadi, akkordning zich joylashgan boshqa tovushlari uning ohangini yanada kuchaytiradi.

Gomofonik tuzilmada ovozlar teng emas, asosiy ovoz va garmo-nik jo'rligi uyg'unlashuvi ushbu ko'p ovozlilik tuzilmasining asosiy xususiyatidir. Garmonik va polifonik fakturuning ifodaviy vositalari imkoniyatlari bir-birini to'ldiradi. Gomofonik tuzilma keng tarqal-gan tuzilma bo'lib, u xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Kuy nafaqat yuqori yoki o'rtal ovozda, balki bas ovozida ham o'tkazilishi mum-kin.

Jo'rlik oddiy akkordli bayonda va ko'proq naqshinkor yoki pas-sajli harakat bilan murakkablashtiriladi.

Tuzilmalarning gomofonik va polifonik uslublari barchasi mu-tanosib holda ishtirot etadi.

## II BOB. ASOSIY UCHTOVUSHLIKlar FUNKSIONAL TIZIMI

### 1-§. Lad funksiyasi

Lad garmoniyaning asosi bo'lib, tonika uchtovushligiga inti-lishi bilan birlashishgan akkordlarning o'zaro munosabatlari ti-zimidir.

Laddagi biror tovush yoki akkordning roli *lad funksiyasi* deyiladi. Funksiyalar munosabatlari xos keskinlik va sustliklar majmuasi *funktionallik* deb ataladi. Uning asosi funksiyalarning, ayniqsa, ladning tonikasi va tonika bo'limgan boshqa garmoniya-lari o'rtasidagi kontrastlidir.

Musiqiy tizimda akkordlarning o'zaro munosabatlari turlicha. Bunday o'zaro munosabatlari tizimi *lad-garmonik tizim* deyiladi. Umum qo'llanadigan major va minor ladlariga asoslangan lad-garmonik tizim *major-minor tizimi* deyiladi.

### 2-§. Akkordlar funksiyasi

Akkordning laddagi ahamiyati, garmonik rivojlanishdagi hara-ki akkordning *garmonik funksiyasi* deb ataladi.

Asosiy tovushi tonallikning I pog'onasiga joylashgan uchto-vushli akkord turg'un, tonika funksiyasini bajaradi.

Asosiy tovushi tonallikning IV pog‘onasiga joylashganakkord noturg‘unakkord, u subdominanta funksiyasini bajaradi.

Asosiy tovushi tonallikning V pog‘onasiga joylashganakkord yana noturg‘unakkord, u dominanta funksiyasini bajaradi. Shuakkordlarladning asosiy uchtovushliklari.

Tabiiy majorda ushbu asosiy uchtovushliklarkatta harflar, ya’ni T, S, D harflari bilan belgilanadi. Tabiiy minorda ular kichik harflar – t, s, d, garmonik minorda esa bu uchtovushliklart, s, D harflari bilan belgilanadi.

Musiqada har qaysiakkord o‘zidan oldin va keyin keladigan garmoniyalar bilan aloqasiz holda, shuningdek asar tonalligi va ladidan tashqari holatda alohida ko‘rib chiqilmaydi. Asarlad va tonalligidan kelib chiqibakkordning yangrash xarakteri, ya’ni funksiyasi o‘zgaradi. Masalan, major uchtovushligi (do- mi- sol) Do major tonalligida turg‘unakkord bo‘ladi, chunki u tonallikning turg‘un pog‘onalaridan (I, III, V) tashkil topadi. Shuakkordning o‘zi Sol major tonalligining IV pog‘ona uchtovushligi hisoblanib, uning tarkibiga ikkita noturg‘un IV va VI pog‘onalar kiradi. Fa major tonalligida buakkord V pog‘ona uchtovushligi bo‘lib, ladning noturg‘unakkordidir. Sababi — unga tonallikning yetakchi VII va II pog‘onalari kiradi. Demak, asarninglad va tonalligiga ko‘ra berilganakkord muayyan ohangga ega bo‘lib, aniq funksiyani bajaradi.

### 3-§. Asosiy garmonik davralar

Musiqiy asarning garmoniyasi qator garmonik davralardan iborat. Bir necha davralarning o‘zaro bog‘liq ketma-ketligi garmonik izchillikni hosil qiladi. Oddiy ketma-ketliklarning mantiqiy muvofiqligi shunga asoslanganki, tonika uchtovushligidankeyin bir yoki bir necha noturg‘un garmoniyalar kiritilib, ohangda keskinlik yaratiladi. So‘ngra tonikaning paydo bo‘lishi bilan tabiiy yechilish sodir bo‘ladi.

Garmonik davralar *avtentik, plagal* va *to‘liq davralarga* ajratiladi.

Allegretto

cresc.

5-misol.

**Plagal davralar** tonika va subdominantaakkordlaridan tashkil topadi.

**Avtentik davralar** tonika va dominantaakkordlaridan tashkil topadi.

*L.Betxoven*

6-misol.

**To'liq davralar** barcha funksiyalar T-S-D-T ni o'z ichiga ola-di.

**Plagal davralar:** S-T, T-S-T, yarim plagal davralar: T-S.

**Avtentik davralar:** D-T, T-D-T, yarim avtentik davralar: T-D, S-D.

#### 4-§. Major va minorning to'liq funksional tizimi

Funksional tizim butun musiqiy harakati mantig'iда namoyon bo'ladi. Garmonik harakat deganda mustaqil ohangdoshliklar izchilligi nazarda tutiladi. Garmonik harakat mantig'i turg'unlik va noturg'unlik holatlarning almashinishiga asoslanadi. Turg'unlik funksiyasini Tonika, noturg'unlik funksiyasini boshqaakkordlar bajaradi. Eng noturg'unakkordlar qatorini ladning eng noturg'un VII pog'onasi kiradiganakkordlar tashkil qiladi. Bundayakkordlar D guruhiga taalluqli. Akkord tarkibiga kirmagan VII pog'onaakkordlarning noturg'unligini kamaytiradi. Bundayakkordlar S guruhini tashkil qiladi.

Asosiy uchtovushliklar — T, S, D. Yondosh uchtovushliklar esa boshqa pog'onalardan tuziladi. Bu II, III, VI, VII pog'onalarda tuzilgan uchtovushliklar bo'ladi.


Asosiy uchtovushlik bilan ikkita umumiytovushga ega bo'lgan yondosh uchtovushliklar bitta funksionalakkordlar guruhini hosil qiladi. Har bir guruhdagi yondosh uchtovushliklar asosiy uchtovushlikdan tersiya yuqori va tersiya pastda joylashadi.

Bunday funksional guruh uchta — tonika, subdominanta, dominanta. Uchta funksional guruhning markazida asosiy uchtovushlik turadi. Butun guruh shu asosiy uchtovushlik funksiyasi bo'yicha nomlanadi.

<b>Subdominanta guruhi</b>	<b>Tonika guruhi</b>	<b>Dominanta guruhi</b>
pog'onalar II V VI	pog'onalar VI I III	pog'onalar III V VII
re-fa-lya, fa-lya-do, ly-a-do-mi	lya-do-mi, do-mi-sol, mi-sol-si	mi-sol-si, sol-si-re, si-re-fa

Garmonik minor ladiga majorli dominanta uchtovushligi kiritilishi major va minor ladlarni yaqinlashtiradi.

Musiqa asarida umumiylar garmonik harakatning asosiy yo'nalishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:



Bu formulaning istalgan funksiyasi guruhidagi yondoshakkordlarning birortasi bilan ham berilishi mumkin. Tabiiy major va tabiiy minorning barchaakkordlari to'liq diatonik funksional tizimni vujudga keltiradi.

#### **Topshiriqlar:**

1. F-dur, G-dur, B-dur, d-moll, e-moll tonalliklarda uch ovozli T, S, D uchtovushliklarini tuzing. Berilgan tonalliklarda o'ng qo'lida T, S, D uchtovushliklarini, chap qo'lida uchtovushlikning pastki tovushini olib fortepyanoda baravar chalib bering.

### **III BOB. ASOSIY UCHTOVUSHLIK LARNING QO'SHILISHI**

#### **1-§. Lad funksiyasi**


**Ladning asosiy uchtovushliklari** — tonika, subdominanta, dominanta 3ta tovushdan iborat. Uch tovushli garmoniyani to'rtovozlikda bayon etish uchun, bu garmoniyaning tovushlardan birini ikki marta olish, ya'ni juftlanirish lozim. Akkordning jarangida juftlanirish muhim rol o'yaydi. Asosiy uchtovushliklarda odatda asosiy (birinchisi) tovush — primasi juftlanadi. Shuningdek, akkord to'liqsiz holda ham uchrab turadi. To'liqsiz uchtovushliklarda kvinta tovushi tushirib qoldiriladi. Uning o'rniiga yana bitta prima olinadi. Kvinta yo'qligi akkord funksiyasi

xarakteriga ta'sir qilmaydi. O'zbek kompozitorlar ijodida tertiyasiz akkordlari keng ifodalanadi.

**To'rtovozlik tuzilma.** Garmonik to'rtovozlik tuzilmasida ovozlar xordagi ovozlarga o'xshab nomlanadi:

- yuqori ovoz — soprano, u kuy deb ham nomlanadi;
- pastroq ovoz — alt;
- undan pastroq ovoz — tenor;
- eng pastki ovoz — bas.

Ovozlar akkolada bilan birlashtirilgan ikkita nota yo'lida yoziлади. Bas va tenor ovozlari bas kalitida, alt va soprano skripka kalitida yoziladi. To'rtovozlik tuzilmada bas va alt ovozlarining nota tayoqchalari pastga, tenor va soprano ovozlarining nota tayoqchalari esa yuqori tomonga qarab yoziladi.



### Ovozlar yo'nalishi.

Akkordlar qo'shilishining zamiri ovozlar yo'nalishidir. Bu yo'nalish ovozlarning birgalikdagi xilma-xil harakatlaridan kelib chiqadi. Har bir ayrim ovozning harakati **ravon** va **sakrama harakat** bo'lishi mumkin. Bir ovozning yo'lidiagi prima, sekunda yoki tersiyaga harakat ravon harakat deb hisoblanadi. Sakrama harakat — ovozning kvarta, kvinta, seksta, septima, oktava intervaliga harakatlanishidir.

Ovozlar yo'nalishi har xil bo'ladi — **qarama-qarshi, qiya, to'g'ri va parallel**. **To'g'ri harakat** — ovozlarning bir tomonga harakat qilishi. **Parallel harakat** — barcha ovozlar bir xil intervalga bir yo'nalishda harakat qiladi. **Qarama-qarshi harakat** — ovozlarning har xil tomonga qilgan harakati. **Qiya harakat** — ovozlardan bit-tasi o'z o'rniда qoladi, boshqalari harakatlanadi.


### 2-§. Akkordlar tuzilishi

Ko'п asrlar davomida akkordlarning klassik qo'shilishining qator qoidalari ishlab chiqarilgan. Ularga rioya qilgan holda chiroyli xor jaranglashishiga erishish mumkin.

Akkordlar tuzilishida quyidagilarga riosa qilinadi:


1. **Ovozlar kesishuviga**, ya'ni basning tenordan yuqori bo'lishi yoki tenorning altdan yuqori bo'lishi, altning esa — soprano dan yuqori bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu misol noto'g'ri yozilgan, chunki alt (kichik oktava «lya») tenordan pastga tushib qolgan (birinchi oktava «re»).



7-misol.

Buakkordning to'g'ri yozilishi:



8-misol.

2. **Uchta yuqori ovozlar oralig'i oktavadan keng bo'lmasligi lo-zim**. Bas va tenor ovozlarning oralig'i unisondan ikki oktavagacha bo'lishi mumkin.

### 3-§. Akkordlar joylashuvi

T, S, D uchtovushliklarda akkordning basdagi asosiy tovushi juftlanadi.

1      2      3      4      5      6

T      T      T      T      T      T

9-misol.

Misoldagi barchaakkordlarni tahlil qilamiz. Birinchi, ikkinchi va uchinchiakkordlardagi uchta yuqori ovozlari oralig'i kvartadan keng emas. Bunday joylashuv **zich joylashuvi** deyiladi.

4-, 5-, 6-akkordlarda uchta yuqori ovozlar oralig'i kvinta yoki seksta hosil qiladi. Bunday joylashuv **keng joylashuv** deyiladi.

Zich joylashganakkordlarda soprano ovoziga uchtovushlikning tersiya, kvinta va prima tovushlari joylashgan. Keng joylashganakkordlarda ham soprano uchtovushlikning prima, tersiya, kvinta tovushlari yozildi.

Xulosa qilamiz: **uchtovushlik uchta kuy holatida (prima, tersiya, kvinta) hamda zich va keng joylashuvida kelishi mumkin.**

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. To'rtvozlik bayonida ovozlar qanday nomlanadi?
2. Ovozlarning kesishuvi nima?
3. Akkorddagи uchta yuqori ovozlar qanday joylashishi kerak?
4. Bas va tenor qanday interval oralig'ida bo'lishi mumkin?

#### **Topshiriqlar:**

1. G dur va e- moll tonalliklarida T, S, D uchtovushliklarini zich va keng joylashuvda, barcha kuy holatlarda tuzing.
2. Fortepyanoda G dur va e- moll tonalliklarida T, S, D uchtovushliklarini zich joylashuvida, barcha melodik holatlarda chalib bering. Bas ovozi chap qo'lda, qolgan uchta yuqori ovozlar esa o'ng qo'lda baravar olinadi.

### **4-§. Asosiy uchtovushliklarning qo'shilishi**

#### **Uchtovushliklar nisbatlari.**

T—S, T—Dakkordlari kvarta-kvinta nisbatida bo'ladi, ular bitta umumiyyet tovushga ega: T—S davrasida ladning I pog'onasi, T—D davrasida ladning V pog'onasidir.

I—III, I—VI pog'onalar tersiya nisbatida bo'ladi va ular ikkita umumiyyet tovushga ega.

S—D sekundali nisbatga ega, ularda umumiyyet tovush yo'q.

#### **Kvarta-kvinta nisbatidagi uchtovushliklar qo'shilishi.**

T—S, T—Dakkordlari ham garmonik, ham melodik tarzda qo'shilishi mumkin.

#### **Garmonik qo'shilishda:**

- 1) bas kvartaga yuqoriga yoki kvintaga pastga harakatlanadi;
- 2) umumiyyet tovush o'z o'rniida qoladi;
- 3) qolgan ikki ovozlar bitta pog'onaga pastga (T- D) yoki yuqoriga (T- S) yo'naladi.

zich joylashuvi                            keng joylashuvi

G dur

1    3                                    5

1    3                                    5

T D                                        T D                                    T D                                    T D

D dur

1    3                                    5

1    3                                    5

T S                                        T S                                    T S                                    T S

zich joylashuvi                            keng joylashuvi

*10-misol.*

T- S, T- Dakkordlarining ***melodik qo'shilishida***:

- 1) bas kvartaga yuqoriga yoki pastga yo'naladi;
- 2) yuqoridagi uch ovoz basga qarama-qarshi ravon harakat bilan yaqin tovushlarga o'tadi.

D dur

1    3                                    5

1    3                                    5

T S                                        T S                                    T S                                    T S

zich joylashuvi                            keng joylashuvi

zich joylashuvi                            keng joylashuvi

1    3                                    5

1    3                                    5

T D                                        T D                                    T D                                    T D

*11-misol.*

## **Sekunda nisbatidagi uchtovushliklarning qo'shilishi.**

S va D uchtovushliklari qo'shilishida bas septimaga pastga emas, balki sekundaga yuqoriga yuradi. Qolgan uch ovoz basga qarama-qarshi D ning eng yaqin tovushlariga harakat qiladi.

a moll

12-misol.

### **Takrorlash uchun savollari:**

1. Uchtovushliklarning qanday nisbatlarini bilasiz?
2. Tonika va subdominantada akkordlarida tonallikning qaysi pog'onalarini umumiy? Tonika va dominantada-chi? Bu tovushlar har qaysi akkordda qanday tovush bo'ladi?
3. T-D, T-S akkordlarining garmonik qo'shilishida ovozlarni yo'naltirish qoidalari qanday?
4. T-D, T-S akkordlarining melodik qo'shilishida ovozlarni yo'naltirish qoidalari qanday?
5. S — D qo'shilishida ovozlarni yo'naltirish qoidalari qanday?
6. 2 tagacha kalit belgisiga ega tonalliklarda quyidagi akkordlarning ketma-ketligini chaling: T — S — D — T.
7. Berilgan namuna bo'yicha 3 belgigacha tonalliklarda akkordlarni tuzib, fortepyanoda chalib bering.

zich joylashuvi                    keng joylashuvi

13-misol.

8. Major va minor tonalliklarida T — D, T — S garmonik va melodik qo'shilishini, S — D melodik qo'shilishini yozib bering.

## IV BOB. DAVRIYA. JUMLA. KADENSIYALAR

### 1-§. Tuzilma qismlari. Davriya

Davriya deb tugallangan musiqiy fikrni ifodalovchi shaklga aytildi. Davriya har qanday yirik musiqiy asar shaklining tarkibiy qismidir (L.Betxoven. Sonata op.13 № 2, II qismning birinchi 8 ta taktdan iborat tuzilmasi takrorlanmaydigan davriya)dir. Kichik ko'lamlili musiqiy asar ham davriya shaklida yozilgan bo'lishi ham mumkin (F.Shopen. Prelyudiya № 7, A-dur).

Davriya odatda ikkita bir xil uzunlikka ega tuzilmalardan tarkib topadi. Ularga *jumlalar* deyiladi. Davriya kvadratli (jumllalari 4 ta taktdan tashkil topgan) yoki nokvadratli tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga jumllalarga bo'linmaydigan yagona tuzilmali davriyalar ham uchraydi.


O'quv topshiriqlarda berilgan amaliy masalalari ko'pincha tuzilishi kvadratli 8 taktdan iborat davriya shaklida keltiriladi.

**Kadensiyalar** odatda davriya jumllalari sezura (bir tuzilmaning oxiri va keyingi tuzilmaning boshlanishini ko'rsatadigan payt) bilan chegaralanib, turli kadensiyalar bilan yakunlanadi.

**Kadensiya** deb alohida tuzilmalarni tugallaydigan garmonik davralarga aytildi.

Davriya o'rnashgan joyiga ko'ra *o'rta* va *xotima kadensiyalarga* ajratiladi. Birinchi jumlaning oxirida o'rta kadensiya keladi. Odatda u noturg'un bo'lib, D yoki Sakkordi bilan tugaydi. Ba'zilarda o'rta kadensiya nomukammal (tersiya yoki kvinta kuy holatidagi) T yoki T<sub>6</sub> bilan tugaydigan bo'ladi.

### KADENSIYA TURLARI




Butun davriyani turg'un xotima kadensiya yakunlaydi. Uning yakunlovchiakkordi esa kuchli hissaga keladigan mukammal tonika uchtovushligidir. Masalan, Betxovenning op.2 №2 sonatasida II qismning birinch tuzilmasi 8 taktli davriyadir. Uning birinchi jum-lasi noturg'unakkord – dominanta bilan tugagan. Ikkinci jum-la esa – to'liq mukammal kadensiya bilan yakunlangan. Davriyaning xotima kadensiyasini SII<sub>6</sub> K<sup>6</sup><sub>4</sub> D<sub>7</sub> Takkordlar tashkil qildi.

## 2-§. Kvartsekstakkordlar

Kvartsekstakkord – uchtovushlikning ikkinchi aylanmasi. Tonika, subdominanta va dominanta kvartsekstakkordlari ( $T^6_4$ ,  $S^6_4$ ,  $D^6_4$ ) o'tkinchi yoki yordamchi sifatda qo'llanilib, har doim kuchsiz metrik hissalarga to'g'ri keladi.

Har qanday kvartsekstakkordda kvinta tovushi bas ovoziga joy-lanadi va juftlanadi.



### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Kadensiya nima degani?
2. Kadensianing qanday turlarini bilasiz?
3. Kvartsekstakkordning qaysi tovushi juftlanadi?
4. P.I.Chaykovskiy «Bolalar albomni»dan birorta pyesani tahlil qilib, kadensiyani aniqlang.

## V BOB. DAVRIYA SHAKLIDAGI KUYNI GARMONIYALASH

### 1-§. Umumiy ma'lumotlar

Berilgan kuyning o'zida uni garmoniyalashtirish imkoniyati-ning ko'p variantlari mujassamlashgan. Ammo bu kuy har qandayakkordlar bilan garmoniyalashtirilsa bo'ladi, degani emas.

Kuyda ma'lum bir uslubiy belgilar mavjud bo'lib, ular ladtonalilik, strukturaviy, interval va ritmik xususiyatlarda ifodalanadi.

Garmoniya musiqada metr bilan uzviy bog'liqdir. Bu bir maromdag'i pulsatsiyada o'z aksini topadi. Har bir takning kuchli hissasi yangi garmoniya bilan ko'rsatiladi. Murakkab o'lchovli taktlarda nisbatan kuchli hissalarda ham garmoniya-ning yangilanishi sodir bo'ladi. Garmonik pulsning tezlashishi ham mumkin. Bunda yangiakkord nafaqat kuchli va nisba-tan kuchli hissalarda, balki kuchsiz hissalarda ham paydo bo'ladi.

### 2-§. Kuyni garmoniyalashtirish qoidalari

Kuyni garmoniyalashda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Kuyni garmoniyalashdan oldin uni chalib ko'rish, tonalligini aniqlash, tuzilishini, ya'ni musiqiy davriyani tashkil qiluvchi jum-lalar, motiv va iboralarni tahlil qilish lozim. Unda qaytariluvchi tuzilmalar uchrashishi mumkin. Ba'zi hollarda bir xil tuzilmalar bir xil garmoniyalashtiriladi, boshqa hollarda boshlang'ich tuzil-ma murakkablashtiriladi. So'ng pog'ona holatidan kelib chiqqan holdaakkordlar aniqlanadi va belgilanadi.

2. O'rta va past registrdagi kuyni zikh joylashuvda garmoniyalash ma'quldir. Keng joylashuv zaruriyati kuyning baland va nis-batan baland tovushlarini garmoniyalashtirishdan kelib chiqadi.

3. Akkordni kuchsiz hissadan kuchli hissaga ushlab turish yoki kuchsiz hissadan kuchli hissaga akkordni aynan qaytarish ma'qul emas, chunki bunda garmonik pulsatsiya maromi buziladi.

4. Birinchiakkord kuchsiz hissaga kelsa u holda tonika uchtovushligi bo'ladi. Ko'pincha taktoldi tovushlari umuman garmoniyalashtirilmaydi yoxud D yoki S bilan garmoniyalanadi. Oxirgiakkord tonika uchtovushligi bo'lishi shart.

5. Kuydag'i takrorlangan yoki uzoq davom etgan tovushni im-koni boricha har xil funksiyalar bilan garmoniyalash lozim.

6. Akkordlarni tanlashda va qo'shilishda parallel kvinta, okta-va va unisonlar bo'lmasligiga e'tibor qaratish darkor.

7. T — S, T — D xohlangan ketma-ketlikda qo'llanishi mumkin, Sakkordi D dan oldin kelishi kerak, biroq shu akkordlarning teskari izchilligi man etiladi.

8. Bas ovozida ketma-ket keluvchi va bir tomonga harakat qiluvchi ikkita kvarta yoki kvintaga yo'l qo'ymaslik zarur.

### 3-§. Kuyni garmoniyalashtirish usullari

Tonallik aniqlangandan so'ng har bir tovushning qaysi uchto-vushlikka kirishini ko'rib chiqish lozim. Masalan, kuy Do major tonallikda yozilgan bo'lsa, unda:

- I, III, V (do, mi, sol) pog'onalarini tonika uchtovushligi bilan garmoniyalash mumkin;
- I, IV, VI (do, fa, lya) pog'onalarini subdominanta uchtovushligi bilan garmoniyalash mumkin;
- II, V, VII (re, sol, si) pog'onalarini dominantana uchtovushligi bilan garmoniyalash mumkin.

Ko'rilib turibdiki, I pog'ona tonika va subdominanta uchto-vushligiga, V pog'ona tonikaga va dominantaga tegishli.

Berilgan kuyni garmoniyalashning umumiy rejasi aniqlangan dan so'ng, har xil talqin qilinishi mumkin bo'lgan jihatlar-ga e'tibor qaratamiz. Har ikkita akkordning to'g'ri qo'shilishini kuzatib turish zarur. Birinchisini ikkinchisi bilan, ikkinchisini uchinchisi bilan va shu tartibda oxirigacha qo'shilishlar kuzatib boriladi.

#### Topshiriq:

Berilgan kuyni garmoniyalashtiring.



3.

4.

#### 4-§. Akkordlarning o‘rin almashuvi

Garmonik harakatlarni boyitish maqsadida akkordlarning o‘rin almashuvini qo‘llash mumkin. Akkordning o‘zgargan ko‘rinishda takrorlanishi uning o‘rin almashuvi deyiladi.

O‘rin almashuvi deb, o‘sha garmoniyaning kuy holati yoki joylashuvi, yoki ikkalovining ham bir paytda o‘zgarishiga aytildi. O‘rin almashuvi ovoz yo‘nalishida sekstagacha bo‘lgan sakramalarni qo‘llash imkonini beradi.

Uchtovushliklar turli usullarda joy almashishi mumkin:

T T      S S

T T

1. Kuy *tersiya* yoki *kvarta* intervaliga yo‘nalsa, akkordlar qo‘shilishida **to‘g‘ri harakat** qo‘llanadi, unda uchta yuqori ovozlar akkordning eng yaqin tovushlariga o‘tadi. Akkordlarning joylashuvi o‘zgarmaydi, uning kuy holati esa o‘zgaradi.

2. Kuyning *tersiya* yoki *kvartaga* harakati ovozlarning **qarama-qarshi harakatini** ham vujudga keltiradi. Bunday holda ikkinchi akkordning joylashuvi va kuy holati o‘zgaradi: alt o‘z o‘rnida qoladi, tenor bilan soprano qarama-qarshi yo‘naladi.

3. Kuyning *kvinta* yoki *sekstaga* sakramasida **qiya harakat** qo‘llanadi. Bunday holda tenor o‘z o‘rnida qoladi, alt bilan soprano bir tomonga harakat qiladi.

### **Topshiriqlar:**

1 Akkordlar joylashuvini o'zgartirmagan holda kuy va basni garmoniyalashtiring.

2. Berilgan kuylarni garmoniyalashtiring.

a)

b)

d)

## **VI BOB. BASNI GARMONIYALASH**

### **1-§. Basni garmoniyalash qoidalari**

Basni garmoniyalashda kuyni garmoniyalashdagi qoidalari saqlanadi. Bas tovushlarining funksiyalarini aniqlash osondir. Ammo soprano ovozda hissiyotli va chiroyli bir kuy bastalash us-tida ishslashga to'g'ri keladi. Soprano ovozining bunday sifatlarga javob berishi uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim:

1. Kuyning harakati to'lqinsimon bo'lishi lozim va u kuyning avjiga — eng baland tovushiga olib kelishi maqsadga muvofiq.
2. Kuyning ritmi bas ritmidan ajralib turishi lozim.
3. Ma'lum bir tovushning qaytarilishi natijasidaakkordning funksiyasi o'zgarishi mumkin.

4. Ahamiyatli kuyni yaratishda ko'proqakkordlarning melodik bog'lanishlaridan foydalanish samaralidir, shunda kuyning harakatchanligi ortadi:

- basning kvartaga harakatiakkordlarni ham garmonik, ham melodik bog'lashi mumkin;
- basning kvintaga harakati esa faqat garmonik bog'lanishni taqozo qiladi.

5. Shuningdek,akkordlarning o'rin almashuvi (qachonki, bas qaytarilsa yoki uzunroq cho'zimda kelgan bo'lsa yoki oktavaga sakrasa) kuyning boyitilishi vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

#### Takrorlash uchun savollar:

1. Basni garmoniyalashda kuyni qanday balandlikdagi tovushdan boshlash kerak?

2. Avj — kulminatsiya davriyaning qayerida ko'proq uchraydi?

3. Bir yo'nalihsidagi qanday intervallarga yurishga yo'l qo'ymaslik lozim?


#### Topshiriq:

Berilgan basni garmoniyalashtiring.

1.




2.



Berilgan nusxa bo'yicha zich joylashuvidan barcha kuy holatda to'g'ri ovoz yo'nalihi bilan T-S-D-T garmonik ketma-ketlikni chalib bering. O'ng qo'lida yuqori ovozlar, chap qo'lida bas ovozi olinadi.

1.



2.



## 2-§. Sopranoda tersiya sakramalari

Kvarta-kvinta nisbatidagi ikki uchtovushlikning (T-D, T-S) qo'shilishida sopranoda tersiyalar sakrashlari hosil bo'lishi mumkin, ya'ni birinchiakkord tersiyasi ikkinchiakkord tersiyasiga sakrash orqali o'tadi. Bunda garmonik qo'shilish ro'y beradi: umumiy tovush o'z o'rnila qoladi, yuqorilovchi sakramadaakkordning zinch joylashuvi keng joylashuviga o'tadi, aksincha, pastlovchi sakramada keng joylashuv zinchga o'tadi.

Sakramadan keyin odatda kuy teskari tomonga qarab harakatlanadi. Minorda tonika tersiyasidan dominanta tersiyasiga sakramasi faqatgina pastlovchi kamaytirilgan kvarta intervalida qilinadi (do minorda - «mi bemol - si bekari»).

Shuningdek, kvarta-kvinta nisbatidagi uchtovushliklar (T-D, T-S) qo'shilishida tenor va alt ovozlarida ham tersiya tonlarning sakramasi hosil bo'lishi mumkin.

### Topshiriq:

Kuy va basni garmoniyalashtiring,

## VII BOB. KADANS KVARTSEKSTAKKORDI

### 1-§. Umumiy tushuncha

Kadans kvartsekstakkordi polifunktionalli (ko'pfunktionalli)akkorddir. Uni bas ovozida dominantaning asosiy tovushi va yuqori ovozlarda tonika tovushlari tashkil qiladi. Tonika tovushlari xuddi melodik to'xtalma sifatida xizmat qilib, kelgusi dominanta tovushlariga o'tadi. Shuning uchun kadans kvartsekstakkordi o'zidan keyin keladigan dominantadan ko'ra kuchliroq hissada joylashadi.

Kadans kvartsekstakkordining belgilanishi —  $K^6_4$ .  $K^6_4$  da bas tovushi, ya'ni **leading V** pog'onasi juftlanadi.

Kadans kvartsekstakkordi faqat o'rtalik va xotima kadensiyalarida paydo bo'ladi. Oddiy taktlarda u kuchli hissada, to'rt va olti hissali murakkab taktlarda esa nisbatan kuchli hissalarda ham ishlataladi. Oddiy uch hissali taktda ikkinchi hissada joylashishi mumkin.

## 2-§. K<sup>6</sup><sub>4</sub> tayyorlanishi va yechilishi

K<sup>6</sup><sub>4</sub> odatda subdominanta funksiyasi bilan tayyorlanib turadi. U tonika uchtovushligidan so'ng ham kelishi mumkin. Bu ko'proq o'rta kadensiya uchun xosdir.

S ning K<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan bog'lanishida:

- bas sekunda intervali yuqoriga yo'naladi;
- umumiy tovush o'z o'rnida qoladi;
- qolgan ikkita tovush sekunda intervali pastga tushadi.

S            K<sub>64</sub>            D  
20-misol.

O'rta kadensiyada K<sup>6</sup><sub>4</sub> ning D ga o'tishi ravon harakat bilan sodir bo'ladi:

- ikkita umumiy tovush o'z o'rnida qoladi;
- qolgan ikkita tovush pog'onama-pog'ona pastga tushadi.

Bunday bog'lanish ko'proq o'rta kadensiya uchun xos.

Xotima kadensiyaga xos ovozlar yo'nalishi quyidagi misolda ko'rsatilgan.

S            K<sub>64</sub>            D            T            S            K<sub>64</sub>            D  
T            S            K<sub>64</sub>            D            T

20a-misol.

Keltirilgan misollarda K<sup>6</sup><sub>4</sub> bas ovozi o‘z o‘rnida qoladi, boshqa ovozlari ravon harakat bilan yuqoriga yo‘naladi.

Shu bilan birga xotima kadensiyalarda K<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan D qo‘shilishida sakramalar ham qo‘llaniladi.

**Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Kadans kvartsekstakkordi qanday funksiyalarni o‘z ichiga oladi?  
2. Kadans kvartsekstakkordning bas tovushi ladning qaysi pog‘onasi bo‘ladi?

3. K<sup>6</sup><sub>4</sub> qandayakkordlar bilan tayyorlanadi?

4. K<sup>6</sup><sub>4</sub> qaysiakkordga yechiladi?

5. Bas va kuyni kadans kvartsekstakkordini qo‘llab garmoniyalashtiring.



5. Kuy va basni garmoniyalashtiring.



## VIII BOB. ASOSIY UCHTOVUSHLIKlar SEKSTAKKORDLARI

### 1-§. Sekstakkordda juftlanishi

Uchtovushlikning ikkinchi aylanmasi sekstakkord deyiladi. Asosiy uchtovushliklar sekstakkordlarida prima yoki kvinta tovushi juftlanadi. Sekstakkordning bas ovozida tersiya tovushi joylashadi va ayrim hollardan tashqari u juftlanmaydi. Masalan, o'zining uchtovushligidan so'ng kuchsiz hissaga kelgan sekstakkordda tersiya tovushi juftlanishi mumkin.

The musical notation consists of two staves. The top staff is in treble clef, C major (two sharps), and common time. It shows a sequence of four measures, each containing a C major chord (C-E-G). The bottom staff is in bass clef, C major (two sharps), and common time. It also shows a sequence of four measures, each containing a C major chord (C-E-G). The bass staff has a bass clef, a C major key signature, and a bass clef.

Shundan kelib chiqadiki, ushbu akkord faqatgina ikkita — prima va kvinta kuy holatida olinadi. Ko'rib turganimizdek, sekstakkordlar zich, keng hamda aralash joylashuvlarda ifodalanishi mumkin.

Ikkita sekstakkord qo'shilishida har bir akkordning turli tovushlari juftlanishi lozim.

### 2-§. Ovoz yo'nalishi

Uchtovushlik bilan sekstakkord va sekstakkord bilan uchtovushlik yoki ikkita sekstakkordning qo'shilishi ovoz yo'nalishida rangbarang uslublarni vujudga keltiradi. Akkodlar ravon harakatida va sakramalar yordamida qo'shilishi mumkin.

#### a) Uchtovushlik bilan sekstakkordning qo'shilishi.

*Kvarta-kvinta nisbatdagi akkordlar* garmonik hamda melodik tarzda qo'shiladi. Agar soprano ovozida primadan primaga yoki kvintadan kvintaga yuqori tomon sakramasi berilsa, birinchi tovush zich yoki keng joylashuvdag'i uchtovushlik, ikkinchi tovush sekstakkord bilan garmoniyalanadi. Bas ovozi esa past tomonga yo'naladi.

Sopranodagi pasayib boruvchi sakramaning birinchi tovushi faqat keng joylashuvdag'i uchtovushlik bilan ikkinchi tovushi

sekstakkord bilan garmoniyalanadi. Bas ovozi ham pastga qarab yo‘naladi.

Shu bilan birga, pasayuvchi sakramalar bиринчиakkord zich joylashuvdagi sekstakkord, ikkinchisi aralash joylashuvdagi uchto-vushlik bo‘lib garmoniyalanishi mumkin. Bas ovozi esa sakramaga ko‘ra qarama-qarshi tomonga harakatlanadi.

Ba’zi hollarda primadan primaga, kvintadan kvintaga sakramalar birgalikda ikkita ovozda uchraydi. Gohida aralash — primadan tersiyaga, kvintadan tersiyaga va boshqa sakramalar seksta, kamaytirilgan kvinta, septima intervallari paydo bo‘ladi.

**Sekunda nisbatdagi akkordlar** S—D<sub>6</sub>, S<sub>6</sub>—D faqat **melodik** tarzda qo‘shiladi.

S—D<sub>6</sub> garmonik davrasining bas ovozi past tomoniga kamaytirilgan kvintaga harakatlanadi.

Garmonik minor va garmonik major ladlarida S<sub>6</sub>—D davrasining bas ovozi harakati past tomon kamaytirilgan septimada bo‘lishi shart. S<sub>6</sub>—D qo‘shilishida barcha tovushlarning harakati ravon bo‘ladi.

### b) Ikkita sekstakkordning qo‘shilishi.

**Kvarta-kvinta nisbatdagi sekstakkordlar** qo‘shilishida bas ovozida tersiya tovushlar kvarta yoki kvinta intervaliga sakraydi. Akkordlarning umumiy tovushi bir yoki ikki ovozda o‘z o‘rnida qolib, **garmonik tarzda qo‘shiladi**. Agar umumiy tovush bitta o‘rtalarda ovozda saqlanib qolsa, u holda ko‘pincha soprano ovozida **sakramma** hosil bo‘ladi.




*Sekunda nisbatdagi sekstakkordlarning qo'shilishi.* S<sub>6</sub>—D<sub>6</sub> qo'shilishida birinchiakkord juftlangan primasi bilan, ikkinchisi juftlangan kvintasi bilan keladi. Shunda S<sub>6</sub> prima kuy holatida berilib, yuqori uchta ovoz bir tomonga, bas qarama-qarshi tomonga harakatlanadi.

### 3-§. Ovoz yo'nalishida taqiqlangan harakatlar


1. Barcha ovozlar yo'lida har qanday *orttirilgan intervallarga harakatlar* man etiladi. Orttirilgan interval o'rniqa qarama-qarshi yo'nalishdagi kamaytirilgan intervalga almashinadi.

2. Bir yo'nalishda *oldinma-ketin kvarta yoki kvinta intervaliga* yo'l qo'ymaslik kerak.

3. Bir juft ovozlar oralig'ida paydo bo'lgan *parallel kvinta, oktava va unisenlar* harakati taqiqlanadi. Shuningdek, ikki chekka ovozning to'g'ri harakati natijasida (bas ravon, soprano sakrama harakati bilan) unisonlar hosil bo'lgan *yashirin kvinta va oktavalar* ham taqiqlanadi.



4. Yashirin kvinta va oktavalar ikki yonma-yon kelgan ovozlar orasida hosil bo'lsa, ularning qo'llanilishiga ruxsat etiladi.



Shuni aytib o'tish kerakki, kompozitorlar ijodida ko'pincha parallel oktava va unisonlarni uchratsa bo'ladi. Kompozitor klassik

to‘rtovozlik bayoniga qat’iy rioya qilmay, masalaga ijodiy yondashib, erkinlik kasb etadi. Ko‘p milliy xalq musiqasida, xususan, o‘zbek musiqasida ikki ovozning parallel kvintali harakati juda keng qo‘llanilgan, busiz musiqadagi milliylik xususiyati sezilmay qoladi.

5. Xromatik yarim tonliklarga harakat bir ovoz yo‘lida qilinishi shart. Aks holda ***ziddiyat*** deyiladigan yoqimsiz sado vujudga keldi. U xromatik o‘zgargan tovushning bir ovozdan boshqa ovozga o‘tishidan kelib chiqadi.

#### Topshiriqlar:

1. Berilgan kuy va bas ovozlarini garmoniyalashtiring.

2. Davriyaning ikkinchi jumlasini ijod qilib qo‘shib yozib bering.

## IX BOB. O'TKINCHI VA YORDAMCHI KVARTSEKSAKKORDLAR

### 1-§. O'tkinchi kvartsekstakkordlar

**Tonikaning o'tkinchi kvartsekstakkordi.**

O'tkinchi kvartsekstakkord uchtovushlik va uning sekstakkordi orasida joylashadi va kuchsiz hissada ishlatiladi. Bu davraning asosiy xususiyati bas ovozi yuqorilama yoki pastlama pog'onama-pog'ona harakatida namoyon bo'ladi. Yuqori uchta ovoz esa ravon harakatga ega:

- S-T<sup>6</sup><sub>4</sub>-S<sub>6</sub> yoki S<sub>6</sub>-T<sup>6</sup><sub>4</sub>-S davrasida bas ovozi yuqoriga IV-V-VI pog'onalar yoki pastga IV-V-VI pog'onalar bo'yicha harakatlana-di;

- yuqori ovozlardan biri basdagi tovushlar bo'yicha aksincha harakatlanadi;
- yana bir ovoz o'z o'rniда qoladi;
- to'rtinchи ovoz sekundaga pastga va yana dastlabki ovozga qaytadi.

K64      K64      K64      K64      K64

Ba'zida, S<sub>6</sub> kvintasi juftlanganda yuqoriga yo'nalgan ovozlardan birida tersiyaga harakat vujudga keladi.

**Dominantaning o'tkinchi kvartsekstakkordi.**

O'tkinchi D<sup>6</sup><sub>4</sub> tonikaning uchtovushligi va uning sekstakkordi orasida joylashadi. T-D<sup>6</sup><sub>4</sub>-T<sub>6</sub>, T<sub>6</sub>-D<sup>6</sup><sub>4</sub>-T davrasida ovoz yo'nalishi quyidagicha bo'ladi:

- bas yuqoriga I-II-III pog'onalar yoki pastga III-II-I pog'onalar bo'yicha harakatlanadi;
- yuqori ovozlardan biri basdagi tovushlar bo'yicha teskarisi-ga harakatlanadi;
- yana bir ovoz o'z o'rniда qoladi;
- to'rtinchи tovushi sekundaga pastga va yana dastlabki tovushi-ga qaytadi.

C dur

T      D $\frac{6}{4}$       T6      |      T      D $\frac{6}{4}$       T6

T      D $\frac{6}{4}$       T6      |      T6      D $\frac{6}{4}$       T

## 2-§. Yordamchi kvartsekstakkordlar

Yordamchi kvartsekstakkordlar qo'llanilganda bas ovozi harakatsiz bo'lib, davraakkordalari o'sha-o'sha pog'onadan tuziladi.

Yordamchi subdominanta kvartsekstakkordi tonika va uning takrori orasida olinadi ( $T-S^6_4-T$ ,  $DT^6_4D$ ). Shunda bas ovozi lading I pog'onasida saqlanib turadi.

Ovoz yo'nalishi:

- ikkita umumiy tovush o'z joyida qoladi (bas va yuqori ovozlardan biri);
- qolgan ikkita ovoz  $T - S^6_4 - T$  davrasida sekundaga yuqoriga yuradi va yana joyiga qaytadi,  $D - T^6_4 - D$  davrasida esa qolgan ikkita ovoz sekundaga pastga yurib, yana joyiga qaytadi:

C dur

D      T $\frac{6}{4}$       D      |      D      T $\frac{6}{4}$       D      |      D      T $\frac{6}{4}$       D

C dur

T      S64      T      T      S64      T

Kompozitorlar o‘z ijodida yordamchi  $S_4^6$  ni ko‘proq qo‘sishimcha plagal kadensiyada qo’llaydilar.

**«Mungli qo’shiq»**

**Adagio**

**I. Ақбаров**

**Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Yordamchi kvartsekstakkord va o‘tkinchi kvartseksakkord qanday farqlanadi?
2. Yordamchi va o‘tkinchi kvartsekstakkordlar taktning qaysi hissasiда qo’llaniladi?
3. Quyidagi davralarni fortepyanoda chalib bering:  
T- $D_4^6$ -T<sub>6</sub>; T- $S_4^6$ -T; S- $T_4^6$ -S<sub>6</sub>; D-T $D_4^6$ -D.
4. Berilgan kuy va baslarni garmoniyalashtiring.

1.

2.

3.

4.

5.


6.

## X BOB. SEPTAKKORDLAR

### 1-§. Septakkord turlari

Septakkordni ladning har bir pog'onasidan tuzish mumkin. Umuman olganda, septakkord uchtovushlikdan tuziladi, uning tarkibida akkord dissonansi — septimasi borligi bilan ajralib turadi. Septakkordlarning ifodalı xususiyatlari ularning tovushlar tarkibi va funksional ahamiyati bilan uzviy bog'liq.

Har bir septakkordning funksiyasi uni tashkil qiladigan uchtovushliklar (asosdagi uchtovushliklar va cho'qqidagi uchtovushliklar) funksiyalari bilan belgilanadi.



Septakkordlar quyidagi larda ajratiladi:

- a) bitta muayyan funksiyali septakkordlar;
- b) birorta funksiya elementlari ustunlik qiladigan septakkordlar;
- d) turli funksiyalar elementlarining bir xil miqdoridan iborat aralash septakkordlar.

Faqat V va II pog'onalar septakkordlari bir xil funksiyali uchtovushliklardan tuzilgan. Bu septakkordlar qolganlariga qaragan-da ko'proq qo'llaniladi.

## 2-§. Bosh septakkordlar

Dominantseptakkord ( $D_7$ ), ya'ni V pog'ona septakkordi ( $V_7$ ) — eng kuchliakkord hamda funksional jihatdan eng yorqin garmo-nik vositadir.

II pog'ona septakkordi ( $II_7$ ) bitta muayyan subdominanta funk-siyasiga ega.

VII pog'ona septakkordi ( $VII_7$ ) ikkita funksiya — dominanta va subdominanta funksiyalar elementlarini uyg'unlashtiruvchi yagona septakkord hisoblanadi. Unda dominanta elementlari biroz ko'proq, chunki u ladning barcha noturg'un pog'onalaridan iborat. Bunday noturg'unlik ko'pincha garmonik majorda va garmonik mi-norda kamaytirilgan septakkordga aylanishi bilan kuchayadi.

$D_7$ ,  $II_7$ ,  $VII_7$  ladning bosh septakkordlari bo'lib, asarlar ekspozitsion, rivojlov qismlarida keng foydalilaniladigan, ohangga rang-baranglik va keskinlikni bag'ishlaydigan vositadir.

Qolgan septakkordlar qandaydir bitta funksiya elementlari ustunlik qiladigan septakkordlarga tegishli. Bular:  $IV_7$ ,  $I_7$ ,  $VI_7$ ,  $III_7$  (ular bu yerda funksional kuchi tartibida keltirilgan). Bu akkordlar asosiy septakkordlarga qaraganda ancha kam ishlataladi. Ular asosan sekvensiyalarda qo'llanilishi uchun «sekvensakkordlar» deb nom olgan. Masalan, Chaykovskiyning № 6 h-moll simfoniyasidan parcha.

**Adagio lamentoso**

### 3-§. Septakkordlar aylanmalari

Septakkordlar uchta aylanmaga ega: kvintsekstakkord, terskvartakkord va sekundakkord.

Kvintsekstakkord septakkordning birinchi aylanmasi bo'lib, uning bas ovozidaakkordning tersiya tovushi joylashadi.

Tertskvartakkord septakkordning ikkinchi aylanmasi bo'lib, uning bas ovozida kvinta tovushi joylashadi.

Sekundakkord septakkordning uchinchi aylanmasi bo'lib, uning bas ovozida septima tovushi joylashadi.

#### **Topshiriq:**

1. Major va ularga nomdosh tonalliklarda bosh septakkordlarni tuzib, chalib bering.
2. Minor va ularga parallel tonalliklarda IV, I, VI, III, septakkordlarni tuzib, chalib bering.
3. Musiqiy adabiyotda septakkordlar qo'llanilgan namunalarni topib, ulardag'i septakkordlar turini aniqlang.
4. Re, mi tovushdan tuzilgan nomdosh tonalliklarda V pog'ona septakkordini aylanmalari bilan tuzing.

## XI BOB. DOMINANTSEPTAKKORD VA UNING AYLANMALARI

### 1-§. Akkordning tuzilishi. Uning qo'sh funksionalligi

Dominantseptakkord — ladning V pog'onasida tuzilgan to'rt tovushli akkorddir. Tersiya bo'yicha joylashgan ushbu akkordning tuzilishi major va garmonik minorda bir xil.

C dur                    c moll  
  
 D<sub>7</sub>                    D<sub>7</sub>  
 32-misol.

**D<sub>7</sub>** qo'shfunktional (bifunktional)akkord bo'lib, uning tarkibi-ga dominanta uchtovushligining tovushlari va subdominantaning asosiy tovushi kiradi (Do majorda: sol-si-re-fa). Uning noohang-doshligini tovushlar orasida paydo bo'lgan dissonansli intervallari: kich.7 (sol-fa) va kam.5 (si-fa) tashkil etadi.

Akkordning har bir tovushi o'z nomiga ega: pastki tovush asosiy yoki prima, ikkinchi — tersiya, uchinchi — kvinta, to'rtinchi tovushi septima deyiladi.

Bu dissonansliakkord barcha kompozitorlar ijodida turli us-lubdag'i asarlarda keng foydalanilgan.

A.S. Dargomijskiy

Moderato

rit.  
Мне грустно  
по-то-му, что я те-бя люблю

33-misol.

Asosiy dominantseptakkord to'liq yoki to'liqsiz bo'lishi mum-kin. To'liq septakkord tersiya, kvinta, septima kuy holatida zich, keng va aralash joylashuvda olinadi.

G dur  
3 5 7  
D<sub>7</sub> D<sub>7</sub> D<sub>7</sub>  
34-misol.

Berilgan misolda birinchiakkord tersiya kuy holati keng joylashuvda, ikkinchiakkord kvinta kuy holati zich joylashuvda, uchinchisi — septima kuy holatida keng joylashuvda berilgan.

To'liqsiz dominantseptakkord ham to'rttovushdan iborat bo'lib, uning kvinta tovushi tushirib qoldirilgan va asosiy tovushi juftlangan holatda ishlataladi. Bundaakkordning yangrashi o'zgarmaydi, chunki uning kich.7 va kam.5 dissonans intervallari saqlanib qoladi. To'liqsiz dominantseptakkordning kuy holatida asosiy tovush, tersiya va septima bo'lishi mumkin.

G dur  
1                    3                    7  
**D<sub>7</sub>**              **D<sub>7</sub>**              **D<sub>7</sub>**  
35-misol.

## 2-§. Dominantseptakkordning tayyorlanishi

Dominantseptakkord quyidagiakkordlar bilan tayyorlanadi, bular qatoriga barcha funksiyaakkordlari kiradi: D, D<sub>6</sub>, T, T<sub>6</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub>, VI, S, II<sub>6</sub>, II, S<sub>6</sub>.

D<sub>7</sub> ning D va, D<sub>6</sub> bilan bog'lanishida septima tovushi pog'onama-pog'ona harakat bilan kiritiladi. D uchtovushligi primasidan keyin pastlama harakatida kiritiladigan D<sub>7</sub> ning septimasid o'tkinchi septima deyiladi. Bu qo'shilishda qolgan tovushlar o'z joyida qoladi yoki aylanishadi.

**D**    **D<sub>7</sub>**    **T**  
36-misol.

Shuningdek, D<sub>7</sub> ning septima tovushi kvarta yoki septima yuqoriga yoki pastga sakrama harakat bilan ham kiritilishi mumkin.

T, T<sub>6</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub>, VIakkordlari D<sub>7</sub> bilan asosan ravon harakatda qo'shiladi. Bunda hosil bo'lgan sof va kamaytirilgan kvinta ketma-ketligini qo'llash mumkin.

37-misol.

Shuningdek, septima kvarta va septima yuqori yoki pastga harakat yo‘li bilan ham kiritilishi mumkin. Bu sakrash teskari tarafga yechilish bilan mutanosiblashtiriladi.

Ladning IV pog‘onasi — subdominantaning asosiy tovushi bir vaqtning o‘zida dominantseptakkordning septimasidir. **Subdominantaakkordlarining** dominantseptakkord bilan bog‘lanishida umumiyl tovush o‘z o‘rnida qoladi. Shuning uchun D<sub>7</sub>ning septimasini tayyorlangan septima deyiladi.

38-misol.

S - D<sub>7</sub> izchilligida to‘liqsiz D<sub>7</sub>ni qo‘llash zarur, chunki to‘liq D<sub>7</sub> bilan ravon ovoz yo‘nalishida garmonik bog‘lanishga erishish imkoniy yo‘q.

### 3-§. Dominantseptakkordning yechilishi

Dominantseptakkorddan so‘ng odatda tonika keladi. Bu lad tortilishlarining va dominantadagi dissonansli noohangdosh intervallarning ohangdoshlikka tabiiy yechilishidir. Yechilishda dissonans intervallar ohangdosh turg‘un intervallarga o‘tadi. D<sub>7</sub> yoki uning aylanmalarini yechish uchun, bиринчи navbatda, uning septimasini to‘g‘ri yechish lozim. Qolgan tovushlar esa tovush yo‘nalishi qoidalariga mos holda ravon harakatlantiriladi.

D<sub>7</sub> ning tonikaga yechilishidagi tartibi:

1. Septima tovushi bir pog‘ona pastga yo‘naladi.
2. Kvinta tovushi bir pog‘ona pastga yo‘naladi.

3. Tersiya tovushi bir pog'ona yuqori, o'rtalarda tersiya intervaliga pastlama yo'nalishi mumkin.

4. Asosiy tovush tonikaning primasi dominanta primasiga kvarta yuqori yoki kvinta pastga o'tadi.

To'liq D<sub>7</sub> to'liqsiz, kvintasi tushirib qoldirilgan tonikaga yechiladi. To'liqsiz D<sub>7</sub> (kvintasi tushirib qoldirilgan, primasi juftlangan) to'liq tonikaga yechiladi.

C dur

*39-misol.*

Dominantseptakkordning tonikaga yechilishida sakramalar ham asosan sopranoda bo'lishi mumkin: tersiya tersiyaga, prima tersiyaga, prima primaga, kvinta primaga.

Dominantseptakkord asosan o'rtalarda xotima kadensiyada qo'llaniladi.

**Размеренно**

*F. Shubert "Serenada"*

*40-misol.*

Ko'pincha badiiy adabiyotda xotima kadensiyalarda to'liqsiz dominantseptakkordning tonikaga yechilishini qarama-qarshi yoki parallel oktavalar bilan kuzatish mumkin.

#### 4-§. Dominantseptakkordning aylanmalari

Dominantseptakkord aylanmalari davriyaning rivojlanishi-da katta rol o'ynaydi. Dominantseptakkord aylanmalarining qo'llanilishi bas ovozi yo'nali shida xilma-xillikni yaratadi. Akkordning bas tovushi bo'yicha D<sub>7</sub>ning aylanmalari ajratiladi. Agar akkordning bas ovozida tersiya joylashgan bo'lsa, bunday akkord kvintsekstakkord deb ataladi. Bas ovozida kvinta tovushi joylashganda bu akkord terskvartakkord deb nomlanadi; agar bas ovozida septima tovushi joylashgan bo'lsa, bu akkord sekundakkord deb ataladi. Aylanmalarining nomlanishi bas bilan septima, bas bilan asosiy tovush orasidagi intervallardan kelib chiqadi. Dominantkvintsekstakkordning belgilanishi — D<sub>6</sub><sup>5</sup>. Bas ovozida VII pog'ona bo'lib, akkord prima, kvinta, septima kuy holatida bo'lishi mumkin.

41-misol.

Terskvartakkordning qisqa belgilanishi — D<sub>4</sub><sup>3</sup>. Tonallikning bas ovozida ikkinchiligi pog'onasi bo'lib, akkord prima, tersiya, septima kuy holatida bo'lishi mumkin.

42-misol.

Sekundakkordning belgilanishi — D<sub>2</sub>. Akkord septimadan tashqari boshqa barcha tovushlar kuy holatida bo'lishi mumkin.

C dur  
1 1 5  
D<sub>2</sub> D<sub>2</sub> D<sub>2</sub>

*43-misol.*

Dominantseptakkord aylanmalari to‘liqsiz holatda ham bo‘lishi mumkin (kvinta tovushi qoldiriladi).

**Dominantseptakkord aylanmalarining yechilishi.** Dominant-septakkord aylanmalari tonika garmoniyasiga yechiladi. Bu lad tortilishlarining va dissonansli intervallarning tabiiy yechilishidir.

D<sub>5</sub><sup>6</sup> T ga yechiladi.

D<sub>3</sub><sup>4</sup> T va o‘tkinchi T<sub>4</sub><sup>6</sup> ga yechiladi.

D<sub>2</sub> T<sub>6</sub> ga yechiladi.

Yechilishlar ravon harakat bilan kechadi:

1) asosiy tovush o‘z o‘rnida qoladi;

2) kvinta va septima sekunda pastga tushadi;

3) tersiya bir pog‘ona yuqoriga yoki o‘rta ovozlarda tersiyaga pastlama harakatlanadi.

### 5-§. Akkordlarning qo‘shilishi

**Kvintsekstakkord** quyidagi akkordlar bilan tayyorlanadi: D<sub>6</sub>, D, D<sub>7</sub>; T, T<sub>6</sub>; II, S, II<sub>6</sub>; IV<sub>6</sub>, V.

C dur  
D<sub>6</sub> D<sub>65</sub> T      D D<sub>65</sub> T      T D<sub>65</sub> T      T<sub>6</sub> D<sub>65</sub> T  
II D<sub>65</sub> T      II<sub>6</sub> D<sub>65</sub> T      S D<sub>65</sub> T      VI D<sub>65</sub> T

*44-misol.*

**Terskvartakkord** quyidagi akkordlar bilan tayyorlanadi: T, T<sub>6</sub>; S, II<sub>6</sub>, II, D, D<sub>6</sub>, D<sub>7</sub>, D<sub>5</sub><sup>6</sup>.

D dur

T<sub>6</sub>   D<sub>43</sub>   T   S   D<sub>43</sub>   T

45-misol.

**Sekundakkorddan oldin quyidagi akkordlar keladi:** D, K<sub>4</sub><sup>6</sup>; S, II<sub>6</sub>; T<sub>6</sub>, VI.

a moll

D   D<sub>2</sub>   t<sub>6</sub>   D   D<sub>2</sub>   t<sub>6</sub>   K<sub>64</sub>   D<sub>2</sub>   t<sub>6</sub>   S   D<sub>2</sub>   t<sub>6</sub>

46-misol.

Shuningdek, D<sub>7</sub> va uning aylanmalari sakrama orqali tonikaga yechilishi mumkin. Bunda D<sub>7</sub> ning kvintasi tonika kvintasiga sakrash hollarida ham yo'l qo'yilishi mumkin. D<sub>2</sub> - T<sub>6</sub> izchilligida kvinta yoki asosiy tovush sakrashlari ko'pincha soprano da bo'lishi mumkin.

D<sub>7</sub>   T   D<sub>7</sub>   T   D<sub>43</sub>   T   D<sub>7</sub>   T   D<sub>65</sub>   T   D<sub>43</sub>   T   D<sub>2</sub>   T<sub>6</sub>   D<sub>2</sub>   T<sub>6</sub>

47-misol.

### O'rın almashuvi.

Dominantseptakkord aylanmalarining o'rın almashuvi dominantanining funksional keskinligini kuchaytiradi. Akkordlar aylanishida septima o'z o'rnida qoladi yoki kvinta bilan o'zaro joy almashadi.

a moll

D<sub>7</sub>   D<sub>65</sub>   D<sub>43</sub>   D<sub>7</sub>

48-misol.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. D<sub>7</sub> qaysi pog'onada tuziladi?
2. D<sub>7</sub> ning interval tuzilishi haqida gapirib bering.
3. D<sub>7</sub> dissonans bo'limgan dominantadan nimasi bilan ajralib turadi?
4. D<sub>7</sub> ning tonikaga yechilishi tartibi qanday?
5. Dominantseptakkordning barcha aylanmalarini ayting.
6. D<sup>6</sup><sub>5</sub>, D<sup>4</sup><sub>3</sub>, D<sub>2</sub> qanday kuy holatlarida qo'llanilishi mumkin?
7. Dominantseptakkord aylanmalarining yechilish tartibi qanday?
8. Ikki alteratsiya belgisiga ega tonalliklarda quyidagiakkord izchiliklarini chaling: 2/4 T, D<sup>6</sup><sub>4</sub> | T<sub>6</sub>, S | D<sup>6</sup><sub>5</sub> D<sup>4</sup><sub>3</sub> | T ||

9. Baslar va kuylarni garmoniyalashtiring.

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.
- 6.

## **XII BOB. AKKORDSIZ TOVUSHLAR HAQIDA TUSHUNCHALAR**

### **1-§. Umumiy tushunchalar**

Kuy, ya'ni bir ovoz bilan ifoda etilgan musiqiy fikr musiqaning eng muhim vositasidir. Garmoniya va kuy orasida munosabatlar paydo bo'ladi. Ayrim kuyning har bir tovushini garmoniyalashtirib bo'lmaydi, ko'pincha kuyning bir necha tovushi bitta akkordga, bitta garmoniyaga to'g'ri keladi.

Ba'zi bir kuylar faqatakkordli tovushlar bo'yicha harakatlanshi mumkin. Kuy pog'onama-pog'ona harakatlanishida esa, akkord tartibiga kirmaydigan tovushlarni qamrab olishi mumkin. Bunday tovushlar akkordsiz tovushlar deb ataladi. Ular akkordni murakkablashtirib, yangrash boyligini oshiradi.

## 2-§. Akkordsiz tovushlarning xilma-xil turlari

- Kuchsiz hissada paydo bo'lgan tovushlar:
  - *yordamchi*,
  - *o'tkinchi*,
  - *predyom*.
- Kuchli hissada paydo bo'lgan to'xtalma tovushi:
  - tayyorlangan to'xtalma,
  - tayyorlanmagan to'xtalma.

Tayyorlangan va tayyorlanmagan to'xtalma yuqoriluvchi va pasayuvchi bo'ladi.

*Yordamchi* tovush pog'onama-pog'ona tovushlar harakatida paydo bo'ladi. U akkordning tovushi va uning takrorlanishi o'rtasida joylashadi (yuqoridan yoki pastdan).

Misol uchun, F. Shuberting «Kechki serenada»da (40-misol) birinchi taktda tonika garmoniyasi yangraydi («re-fa-lya»). Keyin kuy «lya» tonika tovushi bilan boshlanib, darhol tonikaga kirmaydigan «si bemol» tovushni o'rabi olib, so'ng dastlabki «lya» tovushi qaytadi. Akkordsiz tovushlarning shunday turi ***yordamchi akkordsiz tovush*** deyiladi.

Shu asar ichida uchinchi takt oxirida triol yangraydi — «sol-fa-mi». «Sol» bilan «mi» tovushlar dominanta garmoniyaga tegishli. Ular orasidagi fa tovush dominanta garmoniyaga begonadir. U o'tkinchi tovushi hisoblanadi. O'tkinchi tovushlar kuyning ravon harakatida ikki xil akkordli tovush orasidan yuqoriga yoki pastga o'tadi.

***Predyom*** navbatdagi akkordning tovushi o'rnida paydo bo'ladi.

50-misol.

Yana bitta akkordsiz tovushlardan biri kuchli yoki nisbatan kuchli hissada olinadi. Bu tovush **to'xtalma** deyiladi, u garmoniya bilan bir paytda paydo bo'lib, undan keyinakkordli tovushga o'tadi.

1      **Largo**

**Gaydn Simfoniya №16, 2 q**

*51-misol.*

I. Gaydn 16-simfoniyasi ikkinchi qismidagi ikkinchi takning kuchli hissasida re major tonalligi dominantterskvartakkordi yangraydi. Yuqori «do» tovushi o'rniga to'xtalma «re» tovushi berilgan. Undan keyin uakkordli tovushga yechiladi. To'rtinchi taktda tonika uchtovushligi (re-fa-lya) yangraydi. Yuqori «fa» tovush o'rniga kuchli hissada «sol» tovush beriladi, so'ngra u «fa» tovushga, ya'ni tonikaning tersiyasiga yechiladi. Oltinchi taktda subdominanta-ning primasiga to'xtalma yana bir bor qo'llaniladi.

Barcha o'tkinchi va yordamchi tovushlar diatonik va xromatik bo'lishi mumkin. Ular to'xtalmadek bir yoki bir necha ovozlarda ishlatalishi mumkin.

#### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Akkordsiz tovush — bu nima?
2. Akkordsiz tovushlarning qaysi turlarini bilasiz?
3. Har bir turini ta'riflab bering.
4. K. Abdullayevning «Oq paxta», I. Akbarovning «Salomat» asarlarni tahlil qilib, akkordsiz tovushlarni toping.

# XIII BOB. II POG'ONA SEKSTAKKORDI VA UCHTOVUSHLIGI

## **1-§. Akkordlarning juftlanishi va tuzilishi**

II pog'ona sekstakkordi keng tarqalgan akkord va u funksional jihatdan yorqin. Uning yorqinligini uchta noturg'un tovushlar (II-IV-VI) va dominanta bilan umumiy bo'lgan (II) tovush yaratadi.

II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi subdominanta guruhiga kiradi. Tabiiy majorda II pog'ona uchtovushligi minorli ohangga ega bo'lib, asosiy ko'rinishda va sekstakkord holatida qo'llaniladi (Do majorda — re-fa-lya, fa-lya-re).

Garmonik major va garmonik minorda ikkinchi pog'ona uch-tovushligi kamaytirilgan uchtovushlik bo'lganligi tufayli (do mazorda va do minorda — re-fa-lya bemol), u faqat SII<sub>6</sub> holatda qo'llanadi.

Buakkord musiqada, ayniqsa, Vena klassiklari ijodida sub-dominanta guruhi boshqaakkordlariga nisbatan keng qo'llanadi.

**Largo appassionato**

*L. Beethoven*

52-misol.

II pog'ona sekstakkordida ko'pincha bas ovozida joylashgan tersiya tovushi, ya'ni tonallikning IV pog'onasi juftlanadi. Bu hohlat ushbu akkordning subdominantalik ahamiyatini yana bir bora'kidlaydi.

Ovoz yo'nalihiga bog'liq ba'zi hollarda SII<sub>6</sub> ning kamdan kam asosiy tovushi yoki kvintasi juftlantiriladi.

## **2-§. II pog'ona sekstakkordining tayyorlanishi**

II pog'ona sekstakkordi tonika va subdominanta akkordlaridan so'ng keladi. Sekunda nisbatidagi I-II pog'ona uchtovushliklari melodik qo'shiladi, chunki ular o'rtasida umumiy tovush mavjud emas. Ovoz yo'nalihi: parallel kvintalarga yo'l qo'ymaslik uchun uchta yuqori ovozlar basga qarama-qarshi yo'naladi. Akkordlarning faqatgina zinch joylashuvi qo'shilishida barcha ovozlar bir tomonga yo'nalihi mumkin.

II pog'ona sekstakkordi taktning kuchsiz hissasida subdominantadan so'ng kelishi mumkin. Ular garmonik qo'shiladi.

## **3-§. II pog'ona sekstakkordining dominanta garmoniyalari.**

### **Kadans kvartsekstakordi bilan qo'shilishi**

Ikkinci pog'ona uchtovushligi va dominantada yoki dominantseptakkord bilan kvarta-kvinta nisbatida bo'lib, ular ham garmonik, ham melodik qo'shilishga ega.

Dominanta akkordlari tersiyasi juftlangan SII<sub>6</sub> bilan qo'shilishi S-D kabi melodik qo'shiladi. Bunda bas sekundaga yuqoriga, qolgan uchta ovoz pastga yuradi.

Shuningdek, SII<sub>6</sub> ning dominantada garmoniyalari bilan qo'shilishida sakramalar bo'lishi mumkin.

K<sup>6</sup><sub>4</sub> dan oldin, odatda, II pog'ona sekstakkordi qo'llaniladi. Major ladida ikkinchi pog'ona uchtovushligi ham qo'llanilishi mumkin. Bu akkordlar qo'shilishi ravon harakat bilan amalga oshiriladi.

## **4-§. II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi qurshovidagi o'tkinchi tonika**

Bas ovozida berilgan IV, V, VI pog'onalarni garmoniyalashda tonika o'tkinchi kvartsekstakkordni qo'llash mumkin. Bunda SII<sub>6</sub>-T<sup>6</sup><sub>4</sub>-S<sub>6</sub> yoki S<sub>6</sub>-T<sup>6</sup><sub>4</sub>-SII<sub>6</sub> ketma-ketligi hosil bo'ladi. Majorda II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi o'rtasida tersiyasi juftlangan o'tkinchi tonika qo'llaniladi (II-III-IV): yuqori ovozlar bas-

ga qarama-qarshi yo‘naladi. Parallel kvintalardan saqlanish uchunakkordlar zich joylashuvda ishlataladi.

**Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Qandayakkordlar SII va SII<sub>6</sub> dan oldin qo‘yilishi mumkin?
2. T va SII<sub>6</sub> qanday qo‘shiladi?
3. SII<sub>6</sub> dominantdaakkordlari bilan qanday qo‘shiladi?
4. A dur, F dur tonalliklarida T-SII<sub>6</sub>-K<sup>6</sup><sub>4</sub>-D<sub>7</sub>-T ketma-ketligini chalib bering.

**Topshiriq:**

Berilgan kuylarni garmoniyalashtiring:

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

6.

*53-misol.*

## XIV BOB. VI POG'ONA UCHTOVUSHLIGI

### 1-§. Tuzilishi, yechilishi

VI pog'ona uchtovushligi ikkita funksiyaga tegishli. Uning tarkibiga tonika va subdominantaning ikkitadan tovushi kiradi. Shuning uchun u quyidagicha belgilanadi: TSVI, tsVI.

T va S orasida primasi juftlangan VI pog'ona uchtovushligi qo'llaniladi.

VI pog'ona uchtovushligi D, D<sub>7</sub>, K<sup>6</sup><sub>4</sub> dan oldin kiritilsa, u sub-dominanta funksiyasini bajaradi. VI pog'ona uchtovushligi K<sup>6</sup><sub>4</sub> bilan garmonik hamda melodik qo'shilishi mumkin.

VI pog'ona uchtovushligi D, D<sub>7</sub> dan so'ng kiritilishiga *bo'lingan davra* deb aytildi. D<sub>7</sub> ning VI pog'ona yechilishi quyidagi ovoz yo'nalishiga ega: D<sub>7</sub> ning kvinta va septimasi sekunda pastga, prima va tersiyasi sekunda yuqoriga harakatlanadi. Natijada VI pog'ona uchtovushligida tersiya juftlanadi.

*51-misol.*

Shuningdek, D uchtovushligi bilan VI pog'ona qo'shilishida ham TSVI ning tersiyasi juftlanadi.

## 2-§. Bo'lingan kadensiya

Bo'lingan davra mavjud kadensiyasi **bo'lingan kadensiya** deyiladi. Bo'lingan kadensiyada kadanskvertsekstakkorddan keyin D yoki D<sub>7</sub> yakun turg'un tonikaga o'tmay, TSVI ga o'tadi, xotima bo'linib qoladi. TSVI uchtovishligidan keyin garmonik harakat davom etadi va to'liq xotima kadensiyaga olib keladi.

### Topshiriqlar:

Basni garmoniyalashtiring.

a)



b)



2. Berilgan garmonik ketma-ketliklarni fortepyanoda chalib bering.

Bo'lingan davra

86 Cdur



T D D<sub>7</sub> VI S K<sub>46</sub> D<sub>7</sub> T

## XV BOB. SUBDOMINANTSEPTAKKORD (SII<sub>7</sub>) VA UNING AYLANMALARI

### 1-§. Tuzilishi. Belgilanishi

Subdominantseptakkord asosiy septakkordlardan biri bo‘lib, ladning II pog‘onasida tuziladi va majorda SII<sub>7</sub>, minorda sII<sub>7</sub> belgilanadi. Ularning tuzilishi tabiiy majorda — minor uchto-vushligi va kichik tersiya, minorda — kamaytirilgan uchtovushlik va katta tersiya, chekka tovushlari kichik septimani tashkil qiladi.

SII<sub>7</sub> tovushlarining nomlari — prima, tersiya, kvinta, septime.

### 2-§. Subdominantseptakkordning aylanmalari

SII<sub>7</sub> uchta aylanmaga ega:


- **subdominantkvintsekstakkord (SII<sup>6</sup><sub>5</sub>)** — ladning IV pog‘onasida tuzilgan, bas ovozidaakkordning tersiyasi joylashgan;
- **subdominantterskvartakkord (SII<sup>4</sup><sub>3</sub>)** — ladning VI pog‘onasida tuzilgan, bas ovozidaakkordning kvintasi joylashgan;
- **subdominantsekundakkord (SII<sub>2</sub>)** — ladning I pog‘onasida tuzilgan, basdaakkordning septimasi joylashgan.

Xorijiy va o‘zbek kompozitorlari ijodida SII<sub>7</sub> barchaakkordlari, ayniqsa, SII<sup>6</sup><sub>5</sub> keng qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha shaklning eksponsion qismlarida uchraydi.

*Piu mosso*

*P.I. Chaykovskiy*

{ *pp cresc. poco a poco* }



### 3-§. Subdominantseptakkordning tayyorlanishi va yechilishi

SII<sub>7</sub>,akkordlari tonika va subdominanta garmoniyalaridan keyin garmonik qo'shilish yo'li bilan kiritiladi. Bular — T, T<sub>6</sub>, T<sub>4</sub><sup>6</sup>, S, S<sub>6</sub>, SII<sub>5</sub>, SII<sub>6</sub>, VI akkordlar.

a) *SII<sub>7</sub>*, va uning aylanmalarini quyidagi **tonika akkordlariga yechilishi**:

- SII<sub>7</sub> — T<sub>6</sub>, K<sub>4</sub><sup>6</sup> ga yechiladi
- SII<sub>5</sub><sup>6</sup> — T, T<sub>6</sub>, K<sub>4</sub><sup>6</sup> ga;
- SII<sub>3</sub><sup>4</sup> — T, T<sub>6</sub>, K<sub>4</sub><sup>6</sup> va o'tkinchi T<sub>4</sub><sup>6</sup> ga;
- SII<sub>2</sub> — Tga yechiladi.

Bunda ovoz yo'nalihi:

- 1) Septima tovushi (tonallikning I pog'onasi) o'z o'rniда qoladi;
- 2) boshqa tovushlar ravon harakatlanadi;

b) *SII<sub>7</sub> ning D uchtovushligiga yechilishi* xuddi D<sub>7</sub> tonika-ga yechilganidek quyidagi ovoz yo'nalihi bilan amalga oshiriladi: SII<sub>7</sub> ning kvinta va septimasi bir pog'ona pastga, tersiyasi — bir pog'ona yuqoriga yoki tersiya pastga yo'naladi. Akkordning aylanmalarida o'rta ovozlarda berilgan asosiy tovush o'z o'rniда qoladi, u bas ovozida berilgan bo'lsa, tonika primasiga sakrash bilan o'tadi.

- SII<sub>7</sub> — D ga yechiladi
- SII<sub>5</sub><sup>6</sup> — D ga yechiladi
- SII<sub>3</sub><sup>4</sup> — D ga yechiladi
- SII<sub>2</sub> — D<sub>6</sub> ga yechiladi

Subdominantseptakkord dominanta uchtovushligi bilan

qo'shilishida kuy yo'lida primalar yoki kvintalarning sakrashi vu-judga kelishi mumkin.

SII<sub>2</sub> D<sub>6</sub> SII<sub>2</sub> D<sub>6</sub> SII<sup>4</sup><sub>3</sub> D<sub>6</sub> SII<sup>4</sup><sub>3</sub> D SII<sup>6</sup><sub>5</sub> D SII<sub>7</sub> D

#### 4-§. Subdominantseptakkordning D, bilan qo'shilishi

Subdominantseptakkord va uning aylanmalari **D<sub>7</sub> va uning aylanmalariga o'tishi** mumkin. Ovoz yo'nalishi: ikkita umumiy tovush ( II va IV pog'onalar) o'z o'rnidida qoladi, qolgan ikkita tovush (VI va I pog'onalar) bir pog'onaga pastga tushadi.

- SII<sub>7</sub> — D<sup>4</sup><sub>3</sub> ga yechiladi
- SII<sup>6</sup><sub>5</sub> — D<sub>2</sub> ga yechiladi
- SII<sup>4</sup><sub>3</sub> — D<sub>7</sub> ga yechiladi
- SII<sub>2</sub> — D<sup>6</sup><sub>5</sub> ga yechiladi

C dur

SII7 D43 SII43 D7 SII65 D2 SII2 D65

**SII<sub>7</sub>, ning to'liqsiz D<sub>7</sub> ga o'tishi** ham qo'llanishi mumkin. Bu qo'shilishdaakkordlar primalari bir-biriga sakrab o'tadi.

#### 5-§. O'tkinchiakkordli davralarda SII<sub>7</sub> ning qatnashishi

SII<sub>7</sub> hammaakkordlari tarkibida o'tkinchiakkordlar qatnashi-shi mumkin:

- SII<sub>7</sub> — T<sub>6</sub> — SII<sup>6</sup><sub>5</sub> yoki SII<sup>6</sup><sub>5</sub> — T<sub>6</sub> — SII<sub>7</sub> ;
- SII<sub>7</sub> — VI<sup>6</sup><sub>4</sub> — SII<sup>6</sup><sub>5</sub> yoki SII<sup>6</sup><sub>5</sub> — VI<sup>6</sup><sub>4</sub> — SII<sub>7</sub> ;

— SII<sup>6</sup><sub>5</sub> — T<sup>6</sup><sub>4</sub> — SII<sup>4</sup><sub>3</sub> yoki SII<sup>4</sup><sub>3</sub> - T<sup>6</sup><sub>4</sub> - SII<sup>6</sup><sub>5</sub>;

— SII<sup>4</sup><sub>3</sub> — VII — SII<sub>2</sub> yoki SII<sub>2</sub> — VII — II<sup>4</sup><sub>3</sub>;

Bu davralarning asosiy xususiyati: bas ovozi pog‘onama-pog‘ona sekundaga yuqori yoki pastga harakatlanadi.

SII<sub>7</sub> ningakkordlari bir-biri bilan **almashinib kelishi** ham mumkin.

### 6-§. Garmonik majorda subdominanta guruhiakkordlari

Garmonik majorda VI pog‘ona pasayadi. Buning natijasida subdominantaakkordlarining ko‘rinishi o‘zgaradi. II pog‘ona uchtovushligi kamaytirilgan uchtovushlikka, subdominanta uchtovushligi esa minor uchtovushligiga aylanadi.


Buakkordlar xuddi tabiiy majordagi funksional davralarda qo‘llaniladi. Faqat VI pasaygan pog‘onani kiritishga e’tibor qaratish lozim:

1) S va SIIakkordlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri VI pasaygan pog‘ona bilan kiritish mumkin;

2) tabiiy majorning Sakkordlaridan so‘ng VI pasaygan pog‘ona pastga xromatik yarim ton bilan kiritiladi. Xromatik yarim ton bir ovozdan ikkinchisiga ko‘chishi mumkin emas, sababi — ziddiyat hosil bo‘lishi bilan keskin sado paydo bo‘ladi.

#### Topshiriq:

Kuy va basni garmoniyalashtiring.



## XVI BOB. YETAKCHI SEPTAKKORD (DVII<sub>7</sub>)

### 1-§. Yetakchi septakkordning belgilanishi va tuzilishi

Yetakchi tovushdan tuzilgan septakkordlar yetakchi septakkordlar deyiladi. Uning belgisi DVII<sub>7</sub>. Bu dominanta funksiyasiiga qarashliakkorddir.

Yetakchi septakkordlar *ikki xil: kichik va kamaytirilgan* bo‘ladi. Septakkordlarning tuzilishi: kichik septakkord kamaytirilgan uchtovushlik va katta tersiyadan iborat, kamaytirilgan septakkord uchta kichik tersiyadan iborat. Chekka tovushlari katta va kichik septimani hosil qiladi.

*Kichik septakkord faqat tabiiy majorda, kamaytirilgan septakkord garmonik major va minor ladlarda tuziladi.*

Garmonik majorda VI pog‘onaning pasayishi natijasida kichik septakkord kamaytirilganga o‘tadi.

Kamaytirilgan septakkord ikkita uchtonni o‘z ichiga oladi, shuning uchun u dissonansli, keskin ohangga ega. Buakkord mu-siqa amaliyotida keng qo‘llaniladi.

**Massig, erzählend, trauernd**

*F. Shubert*



Yetakchi septakkord ladning to‘rtta noturg‘un tovushidan iborat. Unga dominanta va subdominanta tovushlari kiradi. Basda ladning VII pog‘onasi turishi sababidanakkord dominanta funksiyasiga tegishlidir.

Har qanday septakkord singari yetakchi septakkord ham 3 ta aylanmaga ega:

DVII<sub>5</sub><sup>6</sup>, DVII<sub>3</sub><sup>4</sup>, DVII<sub>2</sub>.

### 2-§. Yetakchi septakkordning tayyorlanishi

Asosan DVII<sub>7</sub> septakkord garmonik qo‘shilishda subdominantgarmoniyasi bilan tayyorlanadi. T, D, D<sub>7</sub>, VIakkordlar bilan ham tayyorlanishi mumkin.

S, D<sub>7</sub>akkordlari bilan bog‘liqlikda yetakchi septakkord o‘tkinchi sifatda qo‘llanishi mumkin. DVII<sub>7</sub> odatda takning kuchli hissasiga to‘g‘ri keladi.

- SII<sub>2</sub> → DVII<sub>7</sub>→D<sub>5</sub><sup>6</sup>
- SII<sub>7</sub> → DVII<sub>5</sub><sup>6</sup>→D<sub>3</sub><sup>4</sup>, D<sub>7</sub>
- IV, SII<sub>6</sub>, II<sub>5</sub><sup>6</sup> → DVII<sub>3</sub><sup>4</sup>→D<sub>2</sub>
- IV<sub>6</sub>, SII<sub>3</sub><sup>4</sup> → DVII<sub>2</sub>→D<sub>7</sub>

### 3-§. Yetakchi septakkordning tonikaga yechilishi

DVII<sub>7</sub> va uning aylanmalarining tonikaga yechilishida septakkordning prima va tersiya bir pog‘ona yuqoriga, kvinta va septima bir pog‘ona pastga yuradi. Tonikaakkordida tersiya juftlanib, quyidagi davralar tashkil etiladi:

Asosiy yetakchi septakkordlari va aylanmalari	Yechimi	Ovoz yo‘nalishi	Do majorda keltirilgan misollar
DVII <sub>7</sub>	T	Yetakchi septakkordning kvinta va septimasi pog‘onama-pog‘ona pastga boradi.	Si-re-fa-lya <i>Yechimi:</i> do-mi-mi-sol
DVII <sub>5</sub> <sup>6</sup>	T <sub>6</sub>	Asosiy tovush va tersiyasi pog‘onama-pog‘ona yuqoriga boradi.	Re-fa-lya-si <i>Yechimi:</i> mi-mi-sol-do
DVII <sub>3</sub> <sup>4</sup>	T <sub>6</sub>	Asosiy tovush va tersiyasi pog‘onama-pog‘ona yuqoriga boradi.	Fa-lya-si-re <i>Yechimi:</i> mi-sol-do-mi
DVII <sub>2</sub>	T <sub>6</sub> <sup>4</sup>	Asosiy tovush va tersiyasi pog‘onama-pog‘ona yuqoriga boradi.	Lya-si-re-fa <i>Yechimi:</i> sol-do-mi-mi

**Prestissimo**

**Dj. Verdi**




Ba'zida yetakchi septakkord tersiyasi bir pog'ona pastga yurishi mumkin, bunda tonika odatiy juftlanishda, ya'ni prima juftlanishida keladi. Ammo bu holda majorda parallel kvintalar hosil bo'lishi mumkin. Bunga esa yo'l qo'yish mumkin emas.

#### 4-§. DVII<sub>7</sub>ning ichki funksional yechilishi

Yetakchi septakkord va D<sub>7</sub> — dominanta funksiyasidagi akkordlardir. Ular uchta umumiy tovushga ega. Agar yetakchi septakkord taktning kuchli hissasiga olinsa, unda u D<sub>7</sub> ga kechikib keluvchi sifatda qabul qilinadi: uchta umumiy tovush joyida qoladi, septima bir pog'ona pastga tushadi. Bunda kompozitorlar tomonidan keng qo'llanadigan quyidagi davralar hosil qilinadi.

#### DVII<sub>7</sub> ning ichki funksional yechilishi



#### 5-§. O'tkinchiakkordlar

T, S, Dakkordlari va ularning aylanmalarini yetakchi septakkordakkordlari o'rtasida o'tkinchi sifatida kelishi mumkin. Bu holda ovoz yo'nalishi ravon, ayniqsa bas ovozi uchun bu asosiy shartdir.

Shuningdek, basning ravon harakatida yetakchi septakkordlar boshqa funksiyadagi turliakkordlarni qamrab olishda ishtirok etishlari mumkin. Masalan, quyidagi davralar bo'lishi mumkin:

- DVII<sub>7</sub> — T — D<sup>4</sup><sub>3</sub>
- S<sub>6</sub> — T<sup>6</sup><sub>4</sub> — DVII<sup>4</sup><sub>3</sub>
- SII<sub>6</sub> — T<sub>6</sub> — DVII<sup>6</sup><sub>5</sub>
- DVII<sup>6</sup><sub>5</sub> — S<sup>6</sup><sub>4</sub> — D<sup>6</sup><sub>5</sub>

### 6-§. Subdominantseptakkordning yetakchi septakkordlarga o'tishi

SII<sub>7</sub> ning DVII<sub>7</sub> ga o'tishi D ga o'tishidan ko'ra kamroq uchraydi. Bu o'tish barcha tersiya nisbatdagi akkordlar qo'shilishi qoidasi bo'yicha amalga oshiriladi: uchta ovoz o'rnida ushlab turiladi, to'rtinchisi bir pog'ona pastga tushadi. Natijada quyidagi izchiliklar paydo bo'ladi.

- SII<sub>7</sub> — DVII<sup>6</sup><sub>5</sub>
- SII<sup>6</sup><sub>5</sub> — DVII<sup>4</sup><sub>3</sub>
- SII<sup>4</sup><sub>3</sub> — DVII<sub>2</sub>
- SII<sub>2</sub> — DVII<sub>7</sub>

#### Topshiriq:

Kuy va baslarni garmoniyalashtiring.

1.

2.

3.

## **GARMONIK TAHLIL UCHUN TAVSIYA ETILGAN MUSIQIY ADABIYOTLAR**

- 1.** I. Akbarov mus., A. Rahmat she'ri «Bahor».
- 2.** K. Mamirov mus. va she'ri «Bahor».
- 3.** G'. Qodirov mus., A. Rahmat she'ri «Gunafsha».
- 4.** A. Muhamedov mus., K. Hikmat she'ri «Qor».
- 5.** G'. Qodirov mus., Z. Diyor she'ri «Olma».
- 6.** Rus xalq qo'shig'i P. Chaykovskiy qayta ishlagan «Maydon-da qayin».
- 7.** G'. Qodirov mus., A. Rahmat she'ri «Yangi yil».
- 8.** D. Zokirov mus., Z. Diyor she'ri «Gunafsha».
- 9.** Il. Akbarov mus., Sh. Sa'dulla she'ri «Ninachi».
- 10.** B. Giyenko «Marsh».
- 11.** B. Giyenko «Chumchuqcha».
- 12.** M. Nasimov mus., Turob To'la she'ri «Tinchlik bog'i».
- 13.** Ik. Akbarov mus., A. Rahmat she'ri «Archa bayrami».
- 14.** X. Muhamedov mus., Sh. Sa'dulla she'ri «Yangi yil».
- 15.** I. Akbarov «Turnalar va quyonlar».
- 16.** Rus xalq qo'shig'i. N.Rimskiy-Korsakov qayta ishlagan «Chapak-chapak».
- 17.** П. Чайковский. «Старинная французская песенка».
- 18.** П. Чайковский. «Марш деревянных солдатиков».
- 19.** П. Шуман. «Шарманщик поёт».
- 20.** П. Чайковский. «Размышление».

## ADABIYOTLAR

1. *Azimova O.N.* Garmoniya. Nazariy kurs. —Т., 2000.
2. *Akbarov I.A.* Musiqa lug‘ati. Maxsus muharrir T.B. G‘ofurbekov. 2-nashri. —Т., 1997.
3. *Vahromeev B.A.* Элементарная теория музыки. —Л., 1983.
4. *Vaxromeev V.A.* Musiqaning elementar nazariyasi. —Т., 1980.
5. *Курс теории музыки.* Редактор А.Л. Островский. —Л., 1978.
6. Л. Красинская, В. Уткин. Элементарная теория музыки. —М., 1983.
7. *Музыкальный энциклопедический словарь.* Гл. ред. Г.А. Келдыш. —М., 1990.
8. Основы теоретического музыказнания. Редактор М.И. Ройтерштейн. —М., 2003.
9. Островский Л.А. *Методика теории музыки и сольфеджио.* —Л., 1970.
10. *Raximov Q.* Musiqaning elementar nazariyasi. Ma'lumotnomda. —Т., 2007.
11. *Способин И.В.* Элементарная теория музыки. —М., 1985.
12. Dubovskiy I., Yevseyev S., Sposobin I., Sokolov. «Garmoniya darsligi». —Т., 1987.
13. Зелинский В. Курс гармонии в задачах. —М., 1971.
14. Можжевелов Б. Мелодии для гармонизации. —Л., 1982.
15. Мясоедов А. Учебник гармонии. —М., 1980.
16. Скребкова О., Скребков С. Хрестоматия по гармоническому анализу. —М., 1978.
17. Шацилло А. Некоторые вопросы методики обучения гармонизации мелодии. —М., 1982.
18. Алексеев Б. «Задачи по гармонии». —М., 1982.
19. Мутли А. «Сборник задач по гармонии». —М., 1986.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH . . . . .</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. MUSIQIY TOVUSH. MUSIQIY TIZIM.</b>	
<b>TEMPERATSIYA. NOTA YOZUVI . . . . .</b>	<b>6</b>
1-§. «Tovush» tushunchasi . . . . .	6
2-§. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari . . . . .	6
3-§. Musiqiy tizim. Tovushqator. Pog'onalar . . . . .	8
4-§. Oktavali tizim. Diapazon. Registr. . . . .	11
5-§. Temperatsiyalangan soz. Hosila pog'onalar. Alteratsiya belgilari. Tovushlar engarmonizmi . . . . .	14
6-§. Nota yozushi. Kalitlar. . . . .	16
7-§. Tovush cho'zimlari. Cho'zimlarni uzaytiruvchi belgilari. Pauzalar . . . . .	19
8-§. Nota yozuvini qisqartirish belgilari. . . . .	23
<b>II BOB. METR. RITM. TEMP . . . . .</b>	<b>26</b>
1-§. Metr. Takt. O'ichov. . . . .	26
2-§. Metr turlari. Oddiy metrlar. Oddiy taktlarda cho'zimlarning guruhanishi . . . . .	29
3-§. Murakkab metrlar. Murakkab taktlarda cho'zimlarning guruhanishi . . . . .	29
4-§. Ritm. Sinkopa. Cho'zimlarning erkin ravishda bo'linishi . . . . .	32
5-§. Temp. Metronom . . . . .	36
<b>III BOB. LAD. TONALLIK . . . . .</b>	<b>39</b>
1-§. Lad. Turg'unlik va noturg'unlik . . . . .	39
2-§. Oktavali lad pog'onalarining maxsus nomi. Major va minor turlari. Tetraxfordlar . . . . .	44
3-§. Tonallik. Kvinta davrasi. . . . .	48
4-§. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar . . . . .	56
<b>IV BOB. XALQ MUSIQASINING LADLARI . . . . .</b>	<b>58</b>
1-§. Melodik ladlar . . . . .	58
2-§. Tabiiy ladlar. Pentatonika. Ikkilanma garmonik major va minor. . . . .	60
3-§. Sun'iy ladlar. . . . .	66

<b>V BOB. INTERVALLAR . . . . .</b>	<b>67</b>
1-§. Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori. . . . .	67
2-§. Diatonik intervallar. . . . .	68
3-§. Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonizmi .	72
4-§. Intervallarning aylanishi . . . . .	73
5-§. Tabiiy major va minor intervallari. . . . .	74
6-§. Xarakterli intervallar. . . . .	76
7-§. Intervallarning yechilishi. . . . .	78
<b>VI BOB. AKKORDLAR . . . . .</b>	<b>80</b>
1-§. Akkord. Akkord turlari . . . . .	80
2-§. Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari . . . . .	82
3-§. Major va minor uchtovushliklari . . . . .	84
4-§. Septakkord. Uning turlari va aylanmalari . . . . .	86
5-§. Dominantseptakkord. . . . .	87
6-§. Yetakchi septakkord . . . . .	89
7-§. Subdominantseptakkord . . . . .	90
<b>VII BOB. XROMATIZM . . . . .</b>	<b>93</b>
1-§. Xromatizm tushunchasi. . . . .	93
2-§. Xromatik gamma. Xromatik gammalarning yozilishi. . . . .	93
<b>VIII BOB. LADDAGI ALTERATSIYA . . . . .</b>	<b>95</b>
<b>IX BOB. OG'ISHMA. MODULATSIYA. TAQQOSLAMA.</b>	
<b>TONALLIKLAR POG'ONADOSHЛИGI . . . . .</b>	<b>97</b>
1-§. Modulatsiya va og'ishma tushunchalari . . . . .	97
2-§. Pog'onadosh tonalliklarga modulatsiya qilish . . . . .	98
<b>X BOB. KUY. KUY HARAKATI TURLARI.</b>	
<b>SEKVENSIYA. . . . .</b>	<b>100</b>
1-§. Musiqa asarida kuyning ahamiyati . . . . .	100
2-§. Kuyning harakat yo'nalmasi va uning diapazoni	101
3-§. Kuyning tarkiblarga bo'linishi . . . . .	103
<b>XI BOB. TRANSPOZITSIYA. PARTITURA. PARTIYA . . .</b>	<b>105</b>
1-§. Transpozitsiya usullari. . . . .	105
2-§. Tonalliklarni aniqlash . . . . .	106
3-§. Partitura. Partiya . . . . .	108

<b>XII BOB. MELIZMLAR . . . . .</b>	<b>110</b>
<b>GARMONIYA</b>	
<b>I BOB. GARMONIYANING ASOSIY XUSUSIYATLARI . . . . .</b>	<b>116</b>
1-§. Garmoniya haqida tushuncha. . . . .	116
2-§. Akkordlar . . . . .	117
3-§. Musiqiy faktura . . . . .	118
<b>II BOB. ASOSIY UCHTOVUSHLIK LAR FUNKSIONAL TIZIMI . . . . .</b>	<b>121</b>
1-§. Lad funksiyasi . . . . .	121
2-§. Akkordlar funksiyasi . . . . .	121
3-§. Asosiy garmonik davralar . . . . .	122
4-§. Major va minorning to‘liq funksional tizimi . . . . .	123
<b>III BOB. ASOSIY UCHTOVUSHLIK LARNING QO‘SHILISHI . . . . .</b>	<b>124</b>
1-§. Lad funksiyasi . . . . .	124
2-§. Akkordlar tuzilishi . . . . .	125
3-§. Akkordlar joylashuvi . . . . .	126
4-§. Asosiy uchtovushliklarning qo‘shilishi. . . . .	127
<b>IV BOB. DAVRIYA. JUMLA. KADENSIYALAR . . . . .</b>	<b>130</b>
1-§. Tuzilma qismlari. Davriya . . . . .	130
2-§. Kvartsekstakkordlar. . . . .	131
<b>V BOB. DAVRIYA SHAKLIDAGI KUYNI GARMONIYALASH . . . . .</b>	<b>132</b>
1-§. Umumiy ma’lumotlar . . . . .	132
2-§. Kuyni garmoniyalashtirish qoidalari . . . . .	132
3-§. Kuyni garmoniyalashtirish usullari . . . . .	133
4-§. Akkordlarning o‘rin almashuvi. . . . .	134
<b>VI BOB. BASNI GARMONIYALASH . . . . .</b>	<b>135</b>
1-§. Basni garmoniyalash qoidalari . . . . .	135
2-§. Sopranoda tersiya sakramalari . . . . .	137
<b>VII BOB. KADANS KVARTSEKSTAKKORDI . . . . .</b>	<b>137</b>
1-§. Umumiy tushuncha. . . . .	137
2-§. $K_4^6$ tayyorlanishi va yechilishi . . . . .	138

<b>VIII BOB. ASOSIY UCHTOVUSHLIKAR</b>	
<b>SEKSTAKKORDLARI . . . . .</b>	<b>140</b>
1-§. Sekstakkordda juftlanishi. . . . .	140
2-§. Ovoz yo‘nalishi. . . . .	140
3-§. Ovoz yo‘nalishida taqiqlangan harakatlar. . . . .	142
<b>IX BOB. O‘TKINCHI VA YORDAMCHI</b>	
<b>KVARTSEKSACKORDLAR . . . . .</b>	<b>144</b>
1-§. O‘tkinchi kvartsekstakkordlar. . . . .	144
2-§. Yordamchi kvartsekstakkordlar. . . . .	145
<b>X BOB. SEPTAKKORDLAR. . . . .</b>	<b>147</b>
1-§. Septakkord turlari. . . . .	147
2-§. Bosh septakkordlar . . . . .	148
3-§. Septakkordlar aylanmalar . . . . .	149
<b>XI BOB. DOMINANTSEPTAKKORD VA UNING</b>	
<b>AYLANMALARI . . . . .</b>	<b>149</b>
1-§. Akkordning tuzilishi. Uning qo‘sh funksionalligi . . . . .	149
2-§. Dominantseptakkordning tayyorlanishi . . . . .	151
3-§. Dominantseptakkordning yechilishi . . . . .	152
4-§. Dominantseptakkordning aylanmalar . . . . .	154
5-§. Akkordlarning qo‘shilishi . . . . .	155
<b>XII BOB. AKKORDSIZ TOVUSHLAR HAQIDA</b>	
<b>TUSHUNCHALAR . . . . .</b>	<b>157</b>
1-§. Umumiyl tushunchalar . . . . .	157
2-§. Akkordsiz tovushlarning xilma-xil turlari . . . . .	158
<b>XIII BOB. II POG‘ONA SEKSTAKKORDI VA</b>	
<b>UCHTOVUSHLIGI . . . . .</b>	<b>160</b>
1-§. Akkordlarning juftlanishi va tuzilishi . . . . .	160
2-§. II pog‘ona sekstakkordining tayyorlanishi . . . . .	161
3-§. II pog‘ona sekstakkordining dominanta garmoniyalari. Kadans kvartsekstakordi bilan qo‘shilishi . . . . .	161
4-§. II pog‘ona uchtovushligi va sekstakkordi qurshovidagi o‘tkinchi tonika. . . . .	161

<b>XIV BOB. VI POG‘ONA UCHTOVUSHLIGI . . . . .</b>	<b>163</b>
1-§. Tuzilishi, yechilishi. . . . .	163
2-§. Bo‘lingan kadensiya . . . . .	164
<b>XV BOB. SUBDOMINANTSEPTAKKORD (SII, VA UNING AYLANMALARI . . . . .</b>	<b>165</b>
1-§. Tuzilishi. Belgilanishi . . . . .	165
2-§. Subdominantseptakkordning aylanmalari . . . . .	165
3-§. Subdominantseptakkordning tayyorlanishi va yechilishi . . . . .	166
4-§. Subdominantseptakkordning D <sub>7</sub> bilan qo‘silishi . . . . .	167
5-§. O‘tkinchi akkordli davralarda SII <sub>7</sub> ning qatnashishi. . . . .	167
6-§. Garmonik majorda subdominanta guruhi akkordlari . . . . .	168
<b>XVI BOB. YETAKCHI SEPTAKKORD (DVII,) . . . . .</b>	<b>169</b>
1-§. Yetakchi septakkordning belgilanishi va tuzilishi	169
2-§. Yetakchi septakkordning tayyorlanishi. . . . .	169
3-§. Yetakchi septakkordning tonikaga yechilishi . . . . .	170
4-§. DVII <sub>7</sub> ning ichki funksional yechilishi . . . . .	171
5-§. O‘tkinchi akkordlar. . . . .	171
6-§. Subdominantseptakkordning yetakchi septakkordlarga o‘tishi . . . . .	172
<b>ADABIYOTLAR . . . . .</b>	<b>174</b>

**IBRAXIMJANOVA GAVXAR AMANBAYEVNA  
URMANOVA LOLA AKBAROVNA  
XODJAYEVA MAXFUZA XALILOVNA  
XALILOV FAXRIDDIN NURIDDINOVICH**

**MUSIQA  
ELEMENTAR NAZARIYASI.  
GARMONIYA**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.  
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Tel./faks: 239-88-61.

Muharrir *I. Karimov*  
Musahhih *H. Zokirova*  
Kompyuterda sahifalovchi *Z. Ulug'bekova*

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.  
Bosishga ruxsat etildi 14.11.2017. «Times» garniturasi. Offset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Shartli bosma tabog'i 11,25. Nashr hisob tabog'i 12,0. Adadi 458 nusxa. Buyurtma №688.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.